

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM

***INNOVATSIYA  
VA  
TARAQQIYOT***

*Ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy  
**JURNAL***

**2024-yil 10-son**

**Urganch-2024**

**Bosh muharrir:**

*M.J.Eshmurodov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**

*S. Samandarova – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

**Mas’ul kotib:**

*U.Bekimmetov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

**Tahrir hay’ati:**

*Z.Do‘simov – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*S.K.Salayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

*S.E.Normamatov – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*A.D.O‘razboyev – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*D.Q.G‘ayipov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*A.I.Primov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

*R.Y.Xudoyberganov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

*D.I.Yo‘ldashev – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*S.M.Sariyev – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*Sh.X.Norbayeva – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*M.B.Tillayeva – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

*R.B.Maxmudov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*M.M.Masharipov – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD).*

*M.Salayeva – Pedagogika fanlari doktori, professor.*

*Ch.A.Sabirova – Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent*

*S.I.Kalandarov – Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

*D.F.Yusupov – Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

*D.A.O‘razboyeva – Psixologiya fanlari doktori, dotsent.*

*I.Abdullayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

*D.Xudayberganov – Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent.*

*O.N.Naumenko – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).*

*O‘I.Abdullayev – Tarix fanlari doktori, professor.*

*G.Durdiyeva – Arxitektura fanlari doktori, dotsent.*

*Q.Y.Masharipov – Tarix fanlari doktori, dotsent.*

*N.R.Matyakubov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*B.M.Satimov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*M.S.Xajiyeva – Falsafa fanlari doktori, professor.*

*B.I.Abdullayev – Fizika-matematika fanlari doktori, (UrDU rektori).*

*R.Y.Ro‘ziboyev – Tibbiyot fanlari doktori, professor, (TTA UF direktori).*

*A.R.Matnazarov – Fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent*

*Almaz Ulviy – Filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon).*

*Azizullah Aral - Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (AQSH).*

*H.H.Tadjiyev – Turkologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (Qozog‘iston).*

*J.S.Iskandarov – Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

*O.Radjabov – Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori.*

**ISSN 3030-3206**

Innovatsiya va taraqqiyot: ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal.  
№ 10 (19), Urganch innovatsion universiteti, 2024-yil.

## MUNDARIJA:

### TARIX

<b>Sh.RAXIMOV.</b> Qadimgi Xorazm vohasi aholisi dafn inshootlari . . . . .	4
<b>U.TAJIYEVA.</b> Quyi Amudaryo hududida tabiatdan foydalanishning tarixiy tajribasi: XIX - XX asr boshlari. . . . .	10
<b>S.KUZIYEVA.</b> Nemis mennonitlarining Xorazmdagi faoliyati. . . . .	16
<b>J.IMINOV.</b> Sharq xalqlari I qurultoyining matbuotda yoritilishi. . . . .	20
<b>N.MATVAPAYEVA.</b> Xorazmlik Koreyslar. . . . .	30
<b>U.BEKMUHAMMAD, N.JIYAMURATOVA.</b> Xorazm qishloqlarida o‘tkazilgan kollektivlashtirish siyosati va uning fojiali oqibatlarini. . . . .	37
<b>D.BABAJANOVA.</b> Turar-joylar hamda ularning qurilishi bilan bog‘liq urf-odat va marosimlar. . . . .	47
<b>O.ALLABERGANOV.</b> O‘zbekiston SSRda yaratilgan ijtimoiy ta‘minot tizimi va uning huquqiy asoslari xususida . . . . .	47

### FILOLOGIYA

<b>S.SAMANDAROVA, U.BEKMUHAMMAD.</b> Tilshunos olimning fidoyiligi . . . . .	58
<b>Q.OLLOYOROV, SH.MADIYOROV.</b> Xorazm dostonlaridagi atoqli otlarning qo‘llanish tamoyillari . . . . .	64
<b>G.KAZAKOVA.</b> Xotira-essalarda ijodkor mahorati (Abdusaid Ko‘chimov publitsist ijodkorlar xususida). . . . .	70
<b>A.Atajanova.</b> Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida o‘zbek ayolining hayoti mavzusi . . . . .	77

### PEDAGOGIKA

<b>D.RAJABOVA .</b> Uzlüksiz ta‘lim tizimida tilga e‘tibor. . . . .	82
<b>SH.RO‘ZIQULOV.</b> Umumta‘lim maktablarini o‘qituvchi kadrlar bilan ta‘minlashdagi o‘zgarishlar: yutuq va muammolar . . . . .	86
<b>M. AXMEDOVA.</b> Shaxs rivojlanishida hadislarning ahamiyati . . . . .	92
<b>G.YULDASHEVA.</b> Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik refleksiyalash qobiliyatini rivojlantirishning imkoniyatlari. . . . .	96

### IQTISODIYOT

<b>N. OTAYEV.</b> Investitsiyalarni moliyalashtirish mazmuni va uning o‘ziga xos xususiyatlari. . . . .	100
<b>I.ABDULLAYEV, D. MATYOQUBOVA.</b> Biznes tuzilmasining innovatsion rivojlanish bosqichlari. . . . .	105
<b>L.MIRZAYEVA .</b> Joylashtirish vositalari daromadlilik darajasini prognozlashtirish istiqbollari. . . . .	111

**TARIX****QADIMGI XORAZM VOHASI AHOLISI DAFN INSHOOTLARI  
(IX-XIII asrlar arxeologik qabriston yodgorliklari misolida)**

UO‘K 902

**Shixnazar  
RAXIMOV****Tarix fanlari bo‘yicha  
falsafa doktori, dotsent.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qadimgi Xorazm vohasi hududida joylashgan IX-XIII asrlarga oid dafn inshootlar arxeologik-etnografik tadqiqot manbalari asosida tahlil qilinadi. Ko‘rib chiqilayotgan materiallar va tadqiqotchilar tomonidan olingan arxeologik-etnografik ma‘lumotlar Xorazm aholisi populyatsiyasining poleodemografiyasi bo‘yicha tadqiqotlarni umumlashtirish, turli tarixiy davrlarda uning turli mintaqalar populyatsiyasi demografik tuzilishini o‘rganish uchun muhim ahamiyat kasb etadi hamda islom davrida sodir bo‘lgan ko‘plab jarayonlar to‘g‘risida ma‘lumot olishga imkon beradi.

**Аннотация:** В данной статье на основе источников археологических и этнографических исследований анализируются погребальные сооружения IX-XIII веков, расположенные в древнем Хорезмском оазисе. Рассматриваемые материалы и полученные исследователями археологические и этнографические данные имеют большое значение для обобщения исследований по палеодемографии населения Хорезма, изучения демографической структуры населения разных его регионов в разные исторические периоды, а также для получения сведения о многих процессах, происходивших в исламский период.

**Annotation:** In this article, based on archaeological and ethnographic research sources, the burial structures of the 9th-13th centuries located in the ancient Khorezm oasis are analyzed. The materials under consideration and the archaeological and ethnographic data obtained by the researchers are of great importance for generalizing the research on the paleodemography of the population of Khorezm, studying the demographic structure of the population of its different regions in different historical periods, as well as for obtaining information about many processes that took place in the Islamic period.

**Kalit so‘zlar:** Qalmiqqirilgan, Qrantog‘, Mizdahkon, Ashurmattepa, To‘q qal‘a, Olmaotishgan, dafn inshootlar.

**Ключевые слова:** Калмыккырылган, Крантоу, Миздахкан, Ашурматтене, Ток-Кала, Алмаатышган, погребальные сооружения.

**Key words:** Kalmykkyrylgan, Krantou, Mizdahkan, Ashurmattepe, Tok-Kala, Alma-atyshgan, burial structures.

Qadimgi Xorazm Amudaryoning quyi qismida joylashgan hududlardan biridir va ushbu hudud bugungi kunga kelib, Qoraqolpog‘iston Respublikasini, O‘zbekistonning shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan yarim muxtor viloyatni, Turkmaniston Respublikasining Dashog‘uz viloyatini va Xorazm viloyatini o‘z ichiga oladi.

Islom dinining dastlabki davri Xorazm tarixida vohada yashovchi xalqlar va qabilalarning taqdirida muhim bosqich bo‘lgan va ko‘p muammolar mavjudligi bilan tavsiflanadi, masalan, urbanizatsiya jarayonlari, savdo va savdo yo‘llarining rivojlanishi, turar – joy hamda ko‘chmanchi dunyo o‘rtasidagi munosabatlar shular jumlasidandir.

Xorazmning O‘rta Osiyo cho‘l mintaqasi markazidagi geografik o‘rni mazkur voha (va davlat)ning qo‘shni ko‘manchilar va ularning birlashmalari bilan alohida munosabatda bo‘lishiga olib keldi. Xorazm O‘rta Osiyo sak-massagetlar olamining bir qismi bo‘lgan, shuning uchun Qadimiy Xorazm dehqonlari bilan ko‘chmanchilarning o‘zaro diniy munosabatlari muammolari arxeolog olimlarimiz faoliyatida alohida o‘rin egalladi. Shu boisdan, dafn qilinadigan joylarning topografiyasi, dafn turlari va evolyutsiyasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ba‘zi hollarda O‘rta Osiyoning qadimiy va O‘rta asrlar tarixidagi oilaviy shakllar, madaniy hamda etnik aloqalarni rivojlantirish kabi muammolarni o‘rganishda yagona manba hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, arxeologik manbalar alohida ahamiyatga ega bo‘lib, bir vaqtning o‘zida Xorazmda Islomning kengayishi muammosini tahlil qilish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi. Dafn marosimlarining arxeologik dalillari hisoblangan o‘rta asrlardagi Xorazm va uning atrofidagi ko‘chmanchi musulmonlar qabristonlarini birinchi marta 1950-yillarning oxirlarida A.V.Gudkova, Ye.B.Bijanov va M.Mambetullaevlar tomonidan To‘qqal’a qabristoni [Bijanov Ye.B., Mambetullaev M.M. 1974. B. 46] o‘rganilgan bo‘lsa, keyingi tadqiqotlar Mizdahkon, Qrantog‘ [Xodjaniyazov G., Yusupov N., Amirov Sh. 2002. B. 184] hamda Qalmiqqirilgan qabriston yodgorliklarida [Mambetullaev M. 1984. B. 88] davom ettirildi.

Tadqiqotlar natijasida musulmonlarning dafn marosimlari asosiy xususiyatlari aniqlandi va musulmon qabr inshootlarining tipologik, xronologik tasnifi o‘rnatildi. Rivojlangan o‘rta asrlar Xorazm voha aholisi dafn marosimlarining asosiy xususiyatlari Xorazm arxeologik tadqiqotlar tomonidan o‘rganilgan va hujjatlashtirilgan qabrlar tasnifga ko‘ra dafnlarning to‘rt turi, ularning ikkitasi pastki turlarga bo‘linadi.

**A-I-qabr turi.** Kesilgan to‘rtburchak kameralardan iborat qabrlar bilan.

**A-II-dafn turi.** Yer ostida kamdan-kam uchraydigan yer osti qabr kameralariga qo‘yish bilan tasniflanadi. Bunday tipdagi qabrlar esa qoplash

usuliga qarab 3 guruhga bo‘linadi:

1. Ikki yon sirti g‘isht bilan qoplangan.
2. G‘isht tirgaklari tekislangan qoplamali.
3. G‘isht tirgaklari yassi pishgan g‘ishtli plitka bilan qoplangan.

**A-III-dafn turi** to‘g‘ridan-to‘g‘ri kengroq qabrning tubiga kesilgan tor qabr o‘rali go‘rga ega dafnlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu turdagi tor qabrni qoplash shakliga qarab 4ta variantga ajratishimiz mumkin:

1. Kvadrat xom g‘isht plitalar bilan qoplangan qabrlar.
2. To‘rtburchak loy bloklar bilan qoplangan qabrlar.
3. To‘rtburchak qiya joylashtirilgan xom g‘ishtlar bilan qoplangan qabrlar.
4. Ustiga yog‘och tayoqlar bilan o‘ralgan qamish to‘shalgan qabrlar.

Mizdahkon maqbarasida hujjatlashtirilgan 25 qabrdan 16 tasida yog‘och tobut qoldiqlari topilgan [Yagodin V.N., Xodjayov T.K. 1970, -S. 246., Raximov Sh.B. 2020, -B. 118-120., Raximov Sh.B. 2019, -B. 44-47]<sup>1</sup>.

**A-IV-dafn turi** qabr kamerasing janubi-g‘arbiy tomonida kesilgan xona (lahadli go‘r) bilan tavsiflanadi.

Ushbu guruhdagi qablardan eng keng tarqalgan turi bu ikkinchi turdagi g‘ishtli qablardir. O‘rta asrlar davrida O‘rta Osiyoning boshqa mintaqalarida ham shunga o‘xshash qabr qurilishlarini ko‘rishimiz mumkin.

Eng kam uchraydiganlari yerga kesilgan vertikal devorlari to‘rtburchak o‘rali mozoristondagi qabrlar va oddiy to‘tburchak, o‘rali mozorning janubi-g‘arbiy tomoniga kesilgan kamera (lahadli mozor) tipidagi qabrlar bilan tasniflanadi.

Dafn etishning eng qadimgi turi kvadrat loy bloklari bilan qoplangan qabrlar bo‘lib, u XI asrlarda yer ostida kamdan-kam uchraydigan g‘ishtli qabr kameralariga ega qabrlar bilan almashgan va XII–XIII asrlarda birinchi va to‘rtinchi qabrlar bilan birga mavjud bo‘lgan.

O‘ng sohil Mizdahkon maqbarasi qablari va loydan qilingan g‘isht bilan qoplangan yassi g‘ishtli plitka bilan dafn qilish usuli [Xodjaniyazov G., Yusupov N., Kдыrniyazov M-Sh., Torebekov M., Avizova A., Saypanov B., Bagdasarova N. 1989, №3. B. 68] Qalmiqqirilgan dafn qilish qurilmasiga o‘xshashdir. V.N.Yagodin ushbu qablarni “VIII-X asrlarning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi” degan fikrni ilgari suradi. Mizdahkondan farqli o‘laroq, Qalmiqqirilgan qablari

<sup>1</sup>Ягодин В.Н., Ходжайов Т.К. Некрополь древнего Миздахкана. -Ташкент, Фан, 1970, -С. 246., Рахимов Ш.Б. Ўрта асрларда Хоразм аҳолисининг дафн иншоотларига доир//ЎЗР ФА Миллий археология маркази Я.Ғуломов номидаги Самарқанд археология институти., Ўзбекистон ва Марказий Осиё жаҳон цивилизацияси тизимида, халқаро илмий конференция материаллари., Самарқанд-2020, -Б. 118-120., Рахимов Ш.Б. “Хоразм аҳолисининг дафн тартиблари ва иншоотлари ўрганилиш тарихи (Археологик тадқиқотлар манбалари асосида)”// Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси, 2019 йил, 6-сон. -Хива. – Б. 44-47.

[Mambetullaev M. 1984. B. 86] xom g'isht bilan emas, aynan pishgan g'ishtlardan qurilgan.



O'xshashlik jihatidan Amudaryoning quyi oqimi tashqarisida, Xorazm musulmon aholisining tosh qutilardagi X-XI asrlarga oid dafn marosimlari Quva qabristoni [Bulatova V.A. 1965. B. 139-146] hamda Quyriqtobe yaqinidagi qabriston materiallaridan ham ma'lum [Nurmuhambetov B.N. B. 92]. Ko'rinib turibdiki, 3-turdagi dafn marosimlari ham keng tarqalgan, Xorazmdagi musulmon aholisining eng qadimgi dafn inshootlari ham

ushbu bo'limga tegishli qabrlardir. Mizdahkon dafn inshootlariga ko'ra, bu turdagi qabrlar asosan VIII-asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lib, XI-asrga qadar mavjud bo'lgan. Biroq, Xorazm vohasining boshqa bir qabriston yodgorliklari - To'qqal'a qabristonida, Qalmiq- qirilgan, Ashirmat tepa, Olma-otishgan [Yagodin V.N., Mambetullaev M., Yusupov N. 1973 g. 52-b], shuningdek, Qrantag' tog'idagi qabrlar XI-XIV asrlarga qadar mavjud bo'lgan.

Qabrlarda, yo'nalishidan qat'iy nazar, dafn etilganlarning joylashuvi o'ng tomonda joylashgan. Ko'milganlar janubi-g'arbiy yo'nalishga ega bo'lib, jasadni "orqasi bilan uzatilgan" holatda, ayrimlari yonbosh holatda bo'lib, bosh chanog'i qiblagga yoki ayrim holatda yuqoriga qarab yo'naltirilgan. Yonbosh holatida qo'yilgan taqdirda jasadni orqa tomoniga xom g'isht yoki tuproq parchalaridan tirgak sifatida foydalanishgan (Xismatulin, 1997: 77, 79, 89).

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, dafn marosimini tartibga soluvchi musulmonlar me'yoriy hujjatlarda belgilangan qoidalar nuqtai nazaridan Xorazm vohasi aholisining IX-XIII asrlarga oid barcha turdagi qabrlari ushbu an'analarga to'la mos keladi.

Janubiy Xorazmda asosan sog'onalarga yer ustida dafn qilish hukmronlik qiladi. Ular o'zlarining hajmi, tuzilishi, rejasi, qurilish materiali, ustining bostirilishi jihatidan turlicha bo'lib, to'rt tipga bo'linadi (Qirantog', Qalmiqqirilgan, Mizdahkon, Ashirmattepa, Olmaotishgan). Sog'onalar bir kishiga yoki jamoaviy dafnga mo'ljallangan.

Xorazmda ko'proq tarqalgan tip turli o'lchamdagi mozorlar bo'lib, ular paxsa, loydan, g'ishtdan (pishgan va xom) quriladi, usti gumbazsimon, ayrimlari

yassi shaklda bo‘ladi. O‘rta Osiyo xalqlari etnogenezisida alohida qiziqish tug‘diradigan yana bir shunday tip yer usti sog‘onasi sandiqdir (Snesarev G.P. Urganch., 2018. 157-bet). Bu yog‘och tobut to‘laligicha g‘o‘la va taxtadan ishlangan. Ular asosan, yakka dafnga mo‘ljallangan bo‘lib, ular ham ikki tipga bo‘linadi. Birinchisi - baland va keng yog‘och quti bo‘lib (Mizdahkon), qabristonga o‘rnatilgach, ustidan loy suvaladi. Ikkinchisi – nozik, tor va uzun quti (Ashirmattepa, Olmaotishgan, Qalmiqqirilgan, Qirontog‘) tobutdan kam farq qiladi.

Birinchi tip katta qabristonlarda boshqa sog‘onalar bilan aralash holda turadi. Asosan bunday tipdagi sandiqlar yosh bolalar va obro‘li kishilar uchun ishlatilgan. Ikkinchi tipdagi tor, uzun tobutlar esa asosan eski qabristonlarda uchraydi. Bu tobutlar yer ustiga zo‘rg‘a chiqib turadi. Bu tobutlar juda ensiz shaklda bo‘lib, unga murdani faqat yonboshiga yotqizilgan holatda joylashtirish mumkin. Keng va baland sandiqlar sog‘ona va nigiriklar ta’sirida uning mukammallashgan shaklidir. Har ikkala shakldagi sandiqda mix ishlatish mumkin bo‘lmagan. Uni faqat pona vositasida birlashtirilgan. Qadimda sandiq tipidagi tobutlar muqaddas daraxt sifatida tut yog‘ochdan ishlangan (Snesarev G.P. Urganch., 2018. 160-bet).

VIII-asr boshlarida Xorazmda arab xalifaligi ta’siri kuchaydi, shu davrdan boshlab islomiy va mahalliy madaniyatlarning o‘zaro ta’siri hamda Xorazm aholisining Islomga o‘tish jarayoni izchil boshlandi. Bu esa Xorazm aholisining dafn tartiblari va inshootlarida ham o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Амиров Ш.Ш., Бендезу-Сармието Х. Раскопки мусульманского некрополя (археологический объект 8) // Археология Приаралья. Вып. VII. Нукус, 2007, (в печати).
2. Бижанов Е.Б., Мамбетуллаев М.М. Раскопки некрополя Ток-калы в 1968 году // Вопросы антропологии и культуры Кердера. Ташкент. "ФАН", 1974. С. 43-62.
3. Бисембаев А.А. Применение статистических методов при обработке материалов позднесредневековых захоронения Западного Казахстана // Вопросы истории и археологии Западного Казахстана. Вып. 3. Уральск, 2004. С. 256-264.
4. Булатова В.А. Некрополь X-XI веков в Куве // ИМКУ. Выпуск 6. Ташкент, "Наука" Узбекской ССР, 1965. С. 139-146.
5. Гудкова А.В. Ток-кала. Ташкент. "Наука" Узбекской ССР. 1964.
6. Мамбетуллаев М. Средневековый могильник Калмыккырган // Археология Приаралья. Вып. II. Ташкент. "ФАН" , 1984. С. 80-92.
7. Нурмуханбетов Б.Н. Раннемусульманское кладбище близ городища Куйрык-тобе // В глубь веков. Алма-ата. "Наука" Казахской ССР, 1974. С 85-94.



8. Пилипко В.Н. Средневековое кладбище городища Хурмузфара в Мервском оазисе // ТЮТАКЭ, т. XIV, Ашхабад, "Ылым", 1969. С. 242-259.
9. Raximov Sh.B. O'rta asrlarda Xorazm aholisining dafn inshootlariga doir//O'zR FA Milliy arxeologiya markazi Ya.G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti., O'zbekiston va Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyasi tizimida, halqaro ilmiy konfrensiya materiallari., Samarqand-2020, -B. 118-120.
10. Raximov Sh.B. "Xorazm aholisining dafn tartiblari va inshootlari o'rganilish tarixi (Arxeologik tadqiqotlar manbalari asosida)"// Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi, 2019 yil, 6-son. -Xiva. –B. 44-47.
11. Snasarev G.P. Xorazmliklarning musulmonlikdan avvalgi marosimlari va urf-odatlari. S.R.Ro'zimboev tarjimai. UrDU noshirlik bo'limi. Urganch-2018. 348 bet.
12. Ходжаниязов Г., Юсупов Н., Амиров Ш. Открытие древнего некрополя на возвышенности Крантау // Археологические исследования в Узбекистане - 2000 год. Самарканд, 2002. С. 181-186.
13. Ходжаниязов Г., Юсупов Н., Кадырниязов М-Ш., Торебеков М., Авизова А., Сайпанов Б., Багдасарова Н. Археологические исследования в некрополе Миздахкана // Вестник КК ФАН УзССР. Нукус, 1989, №3. С. 65-70
14. Ходжаниязов Г., Юсупов Н., Амиров Ш., Даулетназаров Ж., Калменов М. Новые археологические материалы с возвышенности Крантау // "Вестник" ККО АН РУз. Нукус, 2001, №3. С. 73-80.
15. Хисматуллин А.А. Смерть и похоронный обряд в исламе и зороастризме. СПб. -Петербургское востоковедение. 1997. –С. 272.
16. Ягодин В.Н., Ходжайов Т.К. Некрополь древнего Миздахкана. Ташкент. "ФАН" Узбекской ССР, 1970. 254 с.
17. Ягодин В.Н. Памятники кочевых племен древности и средневековья // Древняя и средневековая культура юго-восточного Устюрта. Глава III. "ФАН" Узбекской ССР, 1978. С. 79-198.
18. Ягодин В.Н., Ходжаниязов Г.Х., Амиров Ш. Археологические исследования на возвышенности Крантау в 2002 году // Археологические исследования в Узбекистане - 2002 год. Ташкент. "Абдулла Кадыри", 2003. С. 205-211.
19. Ягодин В.Н., Мамбетуллаев М., Юсупов Н. Отчет. Об археолого-топографических изысканиях территории Хорезмской области УзССР в 1973 г. 52-53 б.

**TARIX****QUYI AMUDARYO HUDUDIDA TABIATDAN FOYDALANISHNING  
TARIXIY TAJRIBASI: XIX - XX ASR BOSHLARI****Umida  
TAJIYEVA****UrDU akademik  
litseyi katta  
o'qituvchisi, PhD****UO'K 94(575.1)**

**Annotatsiya:** Maqolada Xiva xonligida tabiatdan foydalanishning tarixiy tajribalari hamda ularning bugungi kun uchun ham ahamiyati tahlil qilingan. Unda Xorazm vohasida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sun'iy sug'orish tizimlari va an'naviy dehqonchilik usullari yoritilgan.

**Аннотация:** В статье анализируется исторический опыт использования природы в Хивинском ханстве и его значение на сегодняшний день. Описано рациональное использование природных ресурсов, систем искусственного орошения и традиционных методов земледелия в Хорезмском оазисе.

**Annotation:** The article analyzes historical experiences of using nature in the Khiva Khanate and their significance for today. It describes the rational use of natural resources, artificial irrigation systems and traditional farming methods in the Khorezm oasis.

**Kalit so'zlar:** ekologiya, Quyi Amudaryo, Xiva xonligi, Amudaryo, tabiat, yer, suv, dehqonchilik, o'g'it.

**Ключевые слова:** экология, Нижняя Амударья, Хивинское ханство, Амударья, природа, земля, вода, земледелие, удобрения.

**Key words:** ecology, Lower Amudarya, Khiva Khanate, Amudarya, nature, land, water, farming, fertilizer.

Dunyodagi globallashuv jarayonlari tabiiy muvozanatga ham o'z ta'sirini ko'rsatib, jahon hamjamiyati oldida yer sayyorasidagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat bilan birga ekologik holatni ham yaxshilash masalasini hal qilishdek dolzarb muammolar paydo bo'lmoqda. Bu boradagi sa'y-harakatlarni birlashtirishga qaratilgan xalqaro hujjat – Birlashgan Millatlar Tashkiloti Barqaror rivojlanish maqsadlarining qabul qilinishi katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida atrof-muhit muammolari tobora ko'proq olimlar, siyosatchilar, fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida muhokama mavzusiga aylanmoqda.

Mustaqillik yillarida o'zbek xalqining o'z ajdodlari tomonidan yaratilgan tarixiy merosni tiklash, saqlash, o'rganish, bugungi hamda kelajak avlodning

ma'naviy mulkiga aylantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Tarixiy bilimlar sohasida jahon va O'zbekiston tarixining turli aspektlari ustida izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada mazkur sohaning yangi yo'nalishlaridan biri atrof-muhit tarixi sanaladi. Ushbu yo'nalish O'zbekiston tarixi va uning ajralmas bo'lagi Xorazm tarixining "tabiat va jamiyat" o'zaro munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan jihatlarini boyitishga, aholining ekologik madaniyatga doir bilimlarini kengaytirishga, ekologiya va atrof-muhitni asrab-avaylash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muammolarni o'rganish va yechimini topishda zamonaviy yondashuvlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Bu boradagi tadqiqotlarda Xorazm vohasi aholisi an'anaviy dehqonchilik va suv xo'jaligining negizida aholining iqlim va tabiiy shart-sharoitdan kelib chiqib, tabiiy resurslardan oqilona foydalanganliklari, ekin yerlarini muttasil ravishda o'g'itlash, sug'orish, almashlab ekish ishlariga oid bilimlari ochib berilgan.

Mavzu yuzasidan mustaqillik yillarida O'zbekistonda bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ularga I.Jabborov, H.Ziyoyev, R.Balliyeva, M.Jumaniyazova, Y.Rahmonova, U.Abdurasulov, S.Saymanov, S.Matkarimova, N.Kamolova, M.Karlibayev, S.Sulaymanov va boshqalarning ishini kiritish mumkin. Ularda Xorazm vohasida yer egaligi masalalari, yer-suv munosabatlari tahlil etilgan.

Bu borada zamonaviy xorijiy tadqiqotlarning o'rni ham muhim. Ushbu guruhga mansub ishlar orasida xorijlik mutaxassis-olimlardan S.Bekker, J.Zeyts, E.Brit, P.Sartori, K.Bichsel, V.Naumkin, Y.Burnakova, U.Juzbayeva va boshqalarni misol qilish mumkin. Amerikalik olim S.Bekkerning Xiva va Buxoro xonliklariga bag'ishlangan asarida xonlikda iqtisodiy o'sish jihatlarini Xiva agrar hayotiga oid materiallar yordamida o'z aksini topgan [1].

V.Naumkinning Xivaga bag'ishlangan fotoalbomida Xiva xonligining tabiati va undan foydalanish masalalari bilan bog'liq jihatlarni asoslovchi dalillar mavjudligini kuzatish mumkin [2]. J.Zeyts tadqiqotlarida Xiva xonligida sug'orish va qishloq xo'jaligi hayoti 1768 – 1914-yillar misolida o'rganilgan. Muallif 1873-yil Rossiya imperiyasi istilosidan oldingi va keyingi davrlarda Xiva xonligida sug'orma dehqonchilikning o'zgarishi va uzluksizligini yoritgan [3]. E. Brit o'z tadqiqotida Xorazm vohasidagi ikki sug'orish davrini, ya'ni qadimiy va zamonaviy tizimlarni qiyosiy tahlil qilgan. Muallif fikricha, tarixiy davrlardagi o'ziga xos xususiyatlar atrof-muhit barqarorligi va inson farovonligi uchun muhim ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblangan [4].

Mazkur maqolani tayyorlashda tarixiy-qiyosiy tahlil usuliga asoslanib, tarixiy manbalar, xususan hujjatli materiallar, shuningdek, ilmiy adabiyotlar, zamonaviy tadqiqot natijalaridan foydalanilgan.

Tabiiy muhit va antropogen landshaftning rivojlanish tarixini o‘zida aks ettirgan Xorazm vohasida qadimgi davrdan boshlab, qishloq xo‘jaligi va sun‘iy sug‘orish tarmoqlari landshafti, transport-kommunikatsiya yo‘llari, aholining doimiy yashash joylari, hunarmandchilik markazlari landshaftlari hududiy jihatdan tobora kengayib borgan.

Zero, Quyi Amudaryoning hududida yashagan xalqlar irrigatsiyaga oid ilmlarni qadimdan bilishgan, murakkab irrigatsiya inshootlari va sun‘iy sug‘orish ishlari orqali o‘zlarining yerlarini rivojlangan dehqonchilik hududiga aylantirishgan.

Tabiiy muhit va antropogen landshaftning rivojlanish tarixini o‘zida aks ettirgan Xorazm vohasida qadimgi davrdan boshlab qishloq xo‘jaligi va sun‘iy sug‘orish tarmoqlari landshafti, transport-kommunikatsiya yo‘llari, aholining doimiy yashash joylari, hunarmandchilik markazlari landshaftlari hududiy jihatdan tobora kengayib borgan.

Zero, Quyi Amudaryoning hududida yashagan xalqlar irrigatsiyaga oid ilmlarni qadimdan bilishgan, murakkab irrigatsiya inshootlari va sun‘iy sug‘orish ishlari orqali o‘zlarining yerlarini rivojlangan dehqonchilik hududiga aylantirishgan[5].

Quyi Amudaryo hududida tabiatdan foydalanish strategiyasi va aholi xo‘jalik tizimining shakllanishi, avvalo, vohaning tabiiy sharoitlari bilan bog‘liq bo‘lgan. Hududning umumiy tekisligi sovuq Arktika va qutbli havо massalari erkin kirishini ta‘minlagan. Aynan Amudaryo deltasining tabiiy sharoiti mahalliy aholining dehqonchilik, chorvachilik va baliqchilikdan iborat xo‘jalik majmuasini shakllantirishga asos bo‘lgan. Bunda qulay iqlim sharoiti, suv resurslari, dehqonlarning mehnati bilan ishlov berilgan yerlar qishloq xo‘jaligining rivojlanishiga hissa qo‘shgan.


Xorazm vohasida qadim zamonlardan beri yerdan foydalanishning o‘ziga xos shakllari rivojlanib, ularning ayrim xususiyatlari Dashtiqipchoq qabilalari tomonidan olib kelingan urf-odatlar ta‘sirida namoyon bo‘lgan.

Qoraqalpoqlar xonadonlarida echki va qo‘ylar boqishga katta ahamiyat berilgan. Ular aholi uchun jun, sut va go‘sht yetkazib berardilar. Echkilarni asosan kambag‘al oilalar boqishgan. Chunki, echki oziq-ovqatga ko‘p talabchan emas, botqoqlik o‘simliklari bilan oziqlanadi, parvarish qilishni kam talab qiladi va shu bilan birga ko‘p sut beradi.

Orolbo‘yida yashagan aholi uchun yaylovlarning mavjudligi chorvachilikni rivojlantirishga imkoniyat yaratdi, qamish va chakalakzorlarning mavjudligi naslli mollar uchun, cho‘l yaylovlari esa ko‘chmanchi chorvachilik bilan shug‘ullanish uchun foydali bo‘ldi.

Dengizning yaqinligi, ko‘plab ko‘llar va daryolar baliqchilikning rivojlanishiga xizmat qildi. Orol dengizi yaqinida yashovchi barcha Qo‘ng‘irot qabilalari qadimdan baliq ovlashgan. XX asrning boshlarida Orol dengizining janubida yirik baliqchilik jamiyatlari paydo bo‘ldi. 1910-yilda Astraxan va Kavkaz baliq ishlab chiqaruvchilarini birlashtirgan Xiva aksiyadorlik jamiyati tashkil etildi. Orol dengizining butun sohilini qamrab olgan 57 ta baliqchilik xo‘jaligidan 17 tasi Mo‘ynoq yarim orolida edi. Orol dengizining janubiy qirg‘og‘ida, Amudaryoning deltasi va ichki ko‘llarida baliq ovi 1912-yilda 472,7 ming pud, 1913-yilda 699,1 ming pud va 1916-yilda 760 ming pudni tashkil etdi.

Qo‘ng‘irot va uning atroflarida yashagan orolliklar baliqchilik bilan bir qatorda g‘allakorlik, chorvachilik bilan ham shug‘ullanishgan. XIX asr boshlarida Xiva xoni Qo‘ng‘irotni qamal qilib, ekinlarini payhon etib, taslim bo‘lishni taklif qilganida, qamaldagilar: “Uch oy qovunim, uch oy sovunim, Uch



oy qovog‘im, uch oy chabog‘im”, - deb javob qaytarganlari e‘tiborga loyiq [6].

Tamagur va Ilalli shaharlaridan Ko‘hna Urganchgacha cho‘zilgan yerlarda yashagan turkmanlarning mashg‘uloti g‘allakorlik va chorvachilik bo‘lgan. XIX asr boshida Muhammad Rahimxon farmoni bilan Axal-Taka turkmanlarining bir qismi Ko‘hna Urganch va Ilonli (Ilalli) qal‘alari atrofiga ko‘chirilgandi [7]. Ko‘hna Urganch hududidagi turkman urug‘lari suv tanqisligi tufayli suvni kam talab qiladigan bug‘doy, arpa, tariq, mosh, kunjut, zig‘ir kabi ekinlar ekib, ko‘proq chorva bilan shug‘ullanganlar. Ularda 500, hatto 1000 boshga qadar tuyaga egalik qilgan xo‘jaliklar bo‘lgan[8]. Ilalli va Doshog‘uz oralig‘ida dehqonchilik hamda ipakchilik bilan shug‘ullanuvchi buxorolik asirlar turar joyli bo‘lishgan[9].

Orolbo'yining o'zbeklar yashaydigan hududlarida bog'dorchilik rivojlangan bo'lib, ularning bog'larida jiyda, o'rik, olma, shaftoli, nok yetishtirilib, uzumchilik keng tarqalgan. O'zbeklar yetishtirilgan hosilni qanday yaxshi saqlashni bilar edilar. Ular o'rik, qovun, anjir, uzumning ko'plab navlarini quritib saqlashgan.

Bir so'z bilan aytganda, Amudaryo deltasining tabiiy sharoiti mahalliy aholining dehqonchilik, chorvachilik va baliqchilikdan iborat xo'jalik majmuasini shakllantirishga asos bo'lgan. Bunda qulay iqlim sharoiti, suv resurslari, dehqonlarning mehnati bilan ishlov berilgan tuproqlar qishloq xo'jaligining rivojlanishiga hissa qo'shgan. Aynan tarixiy va etnografik ma'lumotlar tabiiy resurslardan foydalanish va aholi yashash joylarining tabiiy sharoitlari o'rtasida bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi, chunki hayotni ta'minlashning asosiy xo'jalik tizimi qishloq xo'jaligi edi.

Xiva xonligida aholining asosiy mashg'uloti dehqonchilik bo'lib, unda aholining 95 foizga yaqini band edi. Qishloq xo'jaligida asosan bug'doy, paxta, beda, arpa, tariq, sholi va jo'xori yetishtirilgan. Xonlikda dalalar asosan qo'rg'onga yaqin hududlarda joylashgan. Ayniqsa, bog'larni va ekinzorlarni sug'orish zaruriyati shuni taqozo qilgan.

Suv tanqisligi sharoitida ko'p yillar davomida mahalliy aholining tabiatdan foydalanish, xususan, yer resurslaridan foydalanish jarayonida to'plangan boy tajribasi vohadagi yerlarni tayyorlash, o'g'itlash va sug'orishning o'ziga xos usullarini shakllantirishga xizmat qildi[5]. Suv resurslaridan foydalanishda esa kanallarni qazish, suv inshootlarini qurish, kanallarni cho'kindilardan tozalash, suv toshqinlarini bartaraf etish muhim masalalardan biriga aylandi.

Xorazmlik dehqonlar qadimdan almashlab ekishning murakkab usullarini ishlab chiqqanlar, bu ularga vegetatsiya davrida tuproqni tez charchatmasdan deyarli uzluksiz ishlov berish imkonini bergan. Bir qancha sayyohlar Xorazm dehqonlarining o'z dalalaridan unumdorlikni yo'qotmasdan maksimal foyda olish uchun almashlab ekish qobiliyati haqida xabar berishgan.

Amudaryoning baland suvi Xorazmda hosildorlikning asosiy manbalaridan biri edi. Amudaryo o'zining loyli tabiati bilan mashhur bo'lib, uning toshqinlari juda ko'p unumdor tuproqlarni to'plagan. O'troq xorazmliklarning asosiy o'g'iti chirindi bo'lganligi haqida ishonchli dalillar mavjud. Mahalliy chirindi hozir ham o'simliklar o'sishini yaxshilash uchun tuproqni boyitishning eng ekologik va samarali usuli hisoblanadi.

Aholi tuproq unumdorligini oshirish maqsadida kuz va qish fasllarida dalalarga o'g'it-malham tayyorlagan. Buning uchun biror bir joyga ikki metr atrofida qum tashlangan. So'ngra mahalliy o'g'it, quyoshda turgan tuproq bir necha marotaba aralastirilgan. Bu malham 500 arava, gohida undan ham ko'p

miqdorda tayyorlangan. Umuman, bu usulda o'g'it tayyorlash ishlarini yilning istalgan faslida bajarish mumkin edi. Rossiyalik tarixchilardan biri Xorazmda o'g'itlarni qo'llash amaliyotiga e'tibor qaratib, "... go'ng o'rniga ayrim yerlarda uy-joy imoratlari qoldiqlari bilan quruq o't, ba'zan kul va boshqa narsalarni aralashmasidan unumdor o'g'itlar tayyorlashgan"ligini qayd etgan [10].

Dehqonlarning butun dehqonchilik davrida sarf bo'ladigan ish vaqtining 22 foizi yerga o'g'it solishga ketgan [11]. Shunday qilib, sug'orish tizimi bir tomondan, dehqonning o'zi ikkinchi tomondan tuproqning irrigatsion qatlamini yaratishda ishtirok etgan.

Xiva xonligining janubiy hududlarida aholi zich yashagan bo'lib, sug'oriladigan yerlarning asosiy qismi shu hududda joylashgan. O'tloqli va botqoqli tuproqlarga boy Amudaryo etaklari asosan, chorvachilikning ham rivojlanishiga xizmat qilgan. Bu yerda o'sgan qamishzorlar va chakalakzorlar uy hayvonlarini oziqlantirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Orol dengizigacha cho'zilgan shimoliy hudud aholi tomonidan kam o'zlashtirilgan bo'lib, bu yerlarda yashagan qoraqalpoqlar asosan, chorvachilik va qisman g'allakorlik bilan shug'ullanishgan. Orol dengizi yaqinida yashagan aholi esa ko'proq baliqchilik bilan hayot kechirgan. Hududda ko'p yillar davomida to'plangan boy tajriba murakkab suv xo'jaligi texnikasini yaratish, yer bilan ishlashning aholida texnologiyasini shakllantirish borasida muayyan ko'nikma hosil qilish imkonini bergan. Suv tanqisligi sharoitida yerlarni tayyorlash, o'g'itlash va sug'orishning o'ziga xos usullari shakllangan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

[1] Seymour Becker. *Russia's Protectorates in Central Asia Bukhara and Khiva*. Harvard University Press, 1968 .

[2] Naumkin V. *Khiva*. 1993. [Garnet Education](#). – 127 p.

[3] John Britton Seitz. *Irrigation and agriculture in the Khanate of Khiva 1768-1914*. Master of Arts in the Department of Central Eurasian Studies, Indiana University, June 2013. – 72 p.

[4] Brite E.B. (2016) *Irrigation in the Khorezm Oasis, Past and Present: A Political Ecology Perspective*. *Journal of Political Ecology* 23. R. 1–25.

[5] Баллиева Р. *Каракалпакский этнос и традиционное природопользование*. Автореф. дисс... док. ист. наук. – М., 2003.

[6] G'ulomov Ya. *Xorazmning sug'orilish tarixi*. Qadimgi zamonlardan hozirgacha. – T., 1959.

[7] Мунис ва Огаҳий. *Фирдавс ул-иқбол*. 212<sup>a,б</sup> varaq.

[8] O'zMA, 125-I-fond, 1-ro'uxat, 106-ish, 6-varaq.

[9] Зиёев Ҳ. *Тарихнинг очилмаган саҳифалари*. – Т.: "Меҳнат", 2003.

[10] Henry Spalding. *Khiva and Turkestan*. London: Chapman and Hall, 1874.

[11] Шкапский О. *Аму-дарьинские очерки*. К аграрному вопросу на нижней Аму-дарье. – Т., 1900.

**TARIX****NEMIS MENNONITLARINING XORAZMDAGI FAOLIYATI****UO‘K 570.511**

**Sevara  
KUZIYEVA**  
UrDU talabasi.

**Annotatsiya:** Maqolada mennonit nemislarining hozirgi Qoraqalpog‘iston Respublikasining Amudaryo tumanidagi Qipchoq qishog‘i hududida joylashgan Lavzondan bugungi kunda Yangiariq tumani hududlariga to‘g‘ri keluvchi Oqmachit bog‘iga ko‘chib kelib, o‘rnashishi va bu davrda mennonit jamoasining Xiva xonligi hayotida tutgan o‘rni, ijtimoiy hayoti, qurilish sohasi, ta’lim tizimi haqida so‘z boradi.

**Аннотация:** В статье говорится о переселении и расселении немцев-мennonитов из Лавзона, расположенного в районе села Кипчак Амударьинского района нынешней Республики Каракалпакстан, до парка Окмачит, который сегодня соответствует территории Янгиарыкского района и роль менонитской общины в жизни Хивинского ханства, общественной жизни, строительной отрасли и системы образования в период проживания в Окмачите.

**Annotation:** Maqolada mennonit nemislarining hozirgi Qoraqalpog‘iston Respublikasining Amudaryo tumanidagi Qipchoq qishog‘i hududida joylashgan Lavzondan bugungi kunda Yangiariq tumani hududlariga to‘g‘ri keluvchi Oqmachit bog‘iga ko‘chib kelib, o‘rnashishi va Oqmachitda yashagan davrda mennonit jamoasining Xiva xonligi hayotidagi tutgan o‘rni, ijtimoiy hayoti, qurilish sohasi, ta’lim tizimi haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Oqmachit, Qosim devon, Chiqirchi, Klass Epp, cherkov, kutubxona, primrose, amaryllis, geraniumlar.

**Ключевые слова:** Окмачит, Касым девон, Чикирчи, Класс Эпп, церковь, библиотека, примула, амариллис, герань.

**Key words:** Okmachit, Kasim devon, Chikirchi, Klass Epp, church, library, primrose, amaryllis, geraniums.

1883-yilda Buxorodan Xiva xonligining Lovzan anxori bo‘yiga ko‘chib kelgan mennonit nemislari yovmutlarning ta’qibu tazyiqlari tufayli og‘ir ahvolga tushib qoladi. Davomiy tazyiqlar tufayli 1883-yilda nemislar Lovzan anxori bo‘ylarini tark etishga majbur bo‘lishdi. Hatto yigirmata oila Amerikaga va Avliyoota hududlariga ko‘chib o‘tishdi.



Ana shunday tahlikali kunlarning birida Qipchoq qishlog‘idagi to‘qayzorda ov qilgani kichik otryadi bilan qozoq zobiti keladi. U mennonitlarning xomushligi sababini bilgach, xivalik askarlarni bu yerga yuborishni va‘da beradi. Ov tugab, qozoq zobiti jo‘nab ketgach, mennonitlar huzuriga Xivadan askarlar keladi. Askarlarga xonning vaziri Qosim devon boshchilik qilardi. Vazir mennonitlar hayoti bilan tanisharkan, nemis ustalari yasagan hunarmandchilik buyumlarini ko‘rib hayron qoladi. Qosim devondan nemislarning Qipchoq qishlog‘idagi yovmutlar hujumidan keyingi vayron holga kelgan hayotini eshitgan xon ularni akasining Chiqirchidagi bog‘iga ko‘chirmoqchi ekanligini aytadi. Yovmutlar hujumidan xotirjamligini yo‘qotgan nemis ustalari bu taklifga bajonidil rozi bo‘lishadi.

1884-yil 16-aprelda 39 ta mennonit oilasi Xiva shahridan 15 chaqirim janubi-sharqda joylashgan Chiqirchi qishlog‘ida Oqmachit koloniyasiga asos solgan. Ularning barchasi 1,5 yildan keyin voz kechishga majbur bo‘lgan Lozanna aholi punktidan kelgan.

Ko‘chish ikki hafta davom qiladi. Katta g‘ildirakli yuzlab aravalarda nemislarning jamiki yuklari, hatto yog‘och va qamishlargacha olib kelinadi. Izvoshchilar chiqirchilik dehqonlar edi.

Oqmachitlik nemislar deya aytib kelingan xalqqa Klass Epp boshchilik qilgan. Klass Epp Oqmachitga asos solgan. U o‘zlarining diniy marosimlarini o‘tkazishlari uchun qishloqda cherkov qurdirgan. Cherkov juda baland va oq rangga bo‘yalgan bo‘lib, bir vaqtning o‘zida 25 ta mennonit oilasiga xizmat qilgan. Mahalliy aholi cherkovni “Oqmachit” deya atagan va bu atama vaqt o‘tib mennonitlar qishlog‘ining nomiga aylangan. Bundan tashqari, Klass Epp boshchiligida Oqmachitda maktab, kasalxona, cherkov va boshqa ma‘muriy turar joylar ham barpo etilgan.

Asta-sekin xonning akasiga tegishli o‘rik va shaftolidan iborat bog‘ida nemis uylari barpo bo‘la boshlaydi. Tez orada ushbu bog‘ning to‘rt tomonida yevropacha uylar qad ko‘tardi. Bog‘ning o‘rtasidagi katta maydonda esa cherkov, maktab va o‘qituvchilar xonasi quriladi.

“Oqmachit - Xivadagi yagona aholi punkti. Uzoqdan qaraganda, u mamlakatning boshqa shahridan hech qanday farq qilmaydi. Biz shahar darvozasidan katta hovliga kiramiz. Bu yerda ishlar Xivadagidan butunlay boshqacha ko‘rinadi. Ba‘zi narsalar albatta Sharqni eslatadi, odamlar bir narsani ikkinchisiga moslashtirishi va

qabul qilishi kerak edi. Lekin ko‘p narsalar hali ham aniq mennonit xususiyatiga ega”.

Katta kvadrat hovli baland sariq loy devor bilan o‘ralgan. Darvozalar shimoldan va janubdan hovliga olib boradi. Odamlarning uylari kichik va pastak bo‘lib, tomlari tekisdir. Har bir xonadonda bir eshik va ikkita deraza bor. Derazalarda yashil panjaralar mavjud.

Hovli mukammal tartibda. Hovli o‘rtasida sharqona uslubda qurilgan kattaroq bino joylashgan. Cherkov xizmatlari uchun yig‘ilish xonasi va ruhoniyning uyi mavjud. Maktab binolari kichikroq uyda, shuningdek, hovlining markazida joylashgan. Bir guruh terak daraxtlari kichik maktab binosini o‘rab olgan. Domlaning xonadoni baland uzumzorlar bilan o‘ralgan.

“Shaharda kasalxona, maktab, kutubxona, bolalar o‘ynaydigan maydonlar, teatr sahnasi, raqs maydoni va do‘konlar mavjud. Hamma-hammasi reja bilan qurilgan. Shahar chekkasida esa turli ustaxonalar, mo‘jaz korxonalar, shuningdek, vino zavodi ham bo‘lgan. Shahar qo‘rg‘onlar bilan o‘ralgan bo‘lib, chekka tarafdagi darvozalarni qurolli soqchilar qo‘riqlashgan.”

Mennonitlar Xiva xonligida mehnatkash fermerlar tariqasida tanilishgan. Dehqonchilikka ixlos qo‘ygan bir guruh nemislar qishloqdagi quruq yerlarni o‘zlashtirish bilan shug‘illanganlar. Kartoshka, karam, pomidor, lavlagi, baqlajon, bodring kabi ekinlardan yuqori hosil olishgan.

Qishloqdagi bog‘lar olma, anor, behi, o‘rik kabi mevali daraxtlar, chekkaroqda esa terak, tol, gujum, eman kabi manzarali daraxtlar bilan yanada chiroy ochgan.

“Oqmachitlik nemislar vohada dehqonchilik bilan bir qatorda temirchilik, chilangarlik, duradgorlik, bo‘yoqchilik ishlari bilan ham shug‘ullanganlar. AQSH va Germaniyadan keltirilgan paxta tozalash zavodi dastgohlarini yurgizish hamda ta‘mirlash ham ularning zimmasida edi.”

Mennonit nemislari shuningdek, chorvachilik, dehqonchilik, bog‘dorchilik va hunarmandchilik bilan shug‘illanib qolmay, bolalarni o‘zlari tashkil qilgan nemis maktabida o‘qitishgan. Ushbu maktabda nemis tilida o‘qish, yozish va hisob o‘rgatilgan. Shuningdek, maktabda bolalar musiqa va adabiyotdan ham ta‘lim olishgan. O‘zlarining ajoyib hunarmandligi bilan nom qozongan mennonitlar maktab uchun stol, stul va partalarni o‘z qo‘llari bilan yasashgan. Mennonit maktabidagi partalar asosan yog‘ochdan yasalgan va har biri 6 nafar o‘quvchi uchun mo‘ljallangan.

Nemislarning Oqmachit bog'iga ko'chishiga asosiy sabab turkman yovmutlarining doimiy bosqinchilik harakatlari bo'ldi. Oqmachitga ko'chib kelgan oilalar asosan "Am Trakt" koloniyasidan bo'lgan. Xiva xoni Muhammad Rahimxon II mennonitlarga himoyalangan jamiyat maqomini bergan.

Shu tariqa nemislar Oqmachitga kelib o'rnashib oldilar. Bu nemislarning Xorazmdagi so'ngi yashash joylari edi. Mennonit nemislarining sa'y-harakatlari natijasida tez orada Oqmachit bog'ida hali xorazmliklar ko'rmagan baland devorli yevropacha tipdagi mennonit uylari qad ko'tardi. Mennonit jamoasi nafaqat uylar, balki cherkov, maktab, kutubxona, do'kon, hatto chorva mollari uchun molxonalar ham qurishgan. Nemislar qurilish ashyolari sifatida Oqmachit bog'ida o'sayotgan eman, gujum, terak va tollardan foydalanishgan. Mennonitlarda maktabga qiziqish katta bo'lib, ta'lim tili nemis tili hisoblangan. Rus tili faqat fan sifatida o'qitilgan. Mennonit jamoasi xorazm shevasini asosan mahalliy aholi bilan muloqat qilish orqali o'rgangan.

#### Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Friesen.R. Mennoniten in Mittelasiien.- Samenkorn: 2012.
2. Bekmuhammad.U. Xorazmda yashagan nemislar. – Urganch: Xorazm, 2019.
3. Epp Klasenning "Mennonit Rundschau" ga bergan ma'lumotlari.
4. Petersning G. "Mennonit Rundschau" ga bergan ma'lumotlari. 1925.
5. Галкин. М.Н. "Военно-статическое описание Хивинского оазиса". 1912.
6. <https://www.google.com/url?esrc=s&q=&rct=j&sa=U&url=https://chortitza.org> (murojaat qilingan sana 4.07.2024)
7. <https://kun.uz/news/2021/11/17/xorazmni-ozgartirgan-nemislar-xiva-xonligida-yashagan-mennonitlar-hayoti-va-ogir-qismati> (murojaat qilingan sana 4.07.2024)
8. <https://www.google.com/url?esrc=s&q=&rct=j&sa=U&url=https://www.mennoniten.de/mennoniten/mennoniten-in-deutschland> (murojaat qilingan sana 4.07.2024)
9. <https://uz.englishlib.org/dictionary/uz-en/mennonitlari.html> (murojaat qilingan sana 4.07.2024)
10. Umid Bekmuhammad. Xorazmda yashagan nemislar// <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/154> (murojaat qilingan sana 4.07.2024)

**TARIX****SHARQ XALQLARI I QURULTOYINING MATBUOTDA  
YORITILISHI****UO‘K 811.512.133:008-115+811.111:008-115****Jasurbek  
IMINOV**

**Andijon Davlat  
Universiteti katta  
o‘qituvchisi,  
Tarix fanlari bo‘yicha  
falsafa fanlari doktori  
(PhD).**

**Annotatsiya:** Maqolada Bokuda o‘tkazilgan Sharq xalqlarining I qurultoyi haqida o‘sha davrda nashr etilgan davriy matbuotda ko‘tarilgan masalalar, qurultoyga turli davlat va jamoat arboblarning munosabatlari masalalari keng yoritib berilgan.

**Аннотация:** В статье широко освещаются вопросы, поднятые в издававшихся в то время периодических изданиях о Первом съезде народов Востока, проходившем в Баку, и отношении к съезду различных государственных и общественных деятелей.

**Annotation:** The article widely covers the issues raised in the newspapers at that time about the First Congress of the Peoples of the East, held in Baku, and the attitude of various state and public figures towards the congress.

**Kalit so‘zlar:** Sharq xalqlari qurultoyi, Boku, gazeta, “Pravda”, Lenin, “Ishtirokiyun”, K.Radek, Zinovuyev, “Volniy gorec” RSFSR.

**Ключевые слова:** Съезд народов Востока, Баку, газета, «Правда», Ленин, «Иштирокюн», К. Радек, Зиновьев, «Вольный горец», РСФСР, Туркестан.

**Key words:** Korean, diaspora, deportation, Koryo Saram, national cultural center.

Mazkur davrning muhim axborot tarqatish vositasi bo‘lgan davriy matbuot 1920-yil sentabr oyida Ozarbayjonning poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Sharq xalqlari birinchi qurultoyini o‘z davri uchun muhim voqeelik sifatida keng yoritib borgan. Albatta, Sharq xalqlarining birinchi qurultoyida ko‘tarilgan masalalar, bolsheviklar hukumatining kapitalistik dunyo davlatlariga nisbatan tutgan pozitsiyalari, qarama-qarshi mafkuraviy kurash jabhasidagi asosiy g‘oyalar e‘lon qilingan maqolalarning asosini tashkil etadi. Sovet hukumati matbuotchilari davriy matbuotda e‘lon qilingan maqolalar orqali birinchidan, Sharq xalqlari birinchi qurultoyi, uning asosiy voqealari haqida ma‘lumot berish, ikkinchidan, butun dunyoga yo‘qsillar davlatining g‘alabasini namuna sifatida ko‘rsatish orqali xorijiy davlatlarda inqiloblarni amalga oshirishni targ‘ib qilish, uchinchidan esa mehnatkashlar ongida kapitalistik davlatlarga nisbatan o‘ta murosasiz va agressiv kayfiyatni shakllantirishdan iborat edi.

Professor D. Alimova birinchilardan bo‘lib mazkur masalani ko‘tarib chiqdi (*Алимова Д. Туркестанцы на I съезде народов Востока: позиции и*

вызовы // Концепты истории Узбекистана: теория и гипотезы. III том. Ташкент: Baqtriya press, 2018. – С.179.). Muallif, O‘rta Osiyo va Qozog‘istondagi milliy qurilish va suveren respublikalar yaratish jarayonida Turkiston Muxtoriyati, Alash O‘rdaning o‘rni va rolini ko‘rsatish asosida 1920 - yil 1-8-sentabrda Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Sharq xalqlarining birinchi qurultoyi haqida bir qancha fikr va mulohazalarni bayon etgan. Maqolada qurultoyda ishtirok etgan turkistonlik vakillar haqida ma‘lumotlar keltirgan, ayrim vakillarning nutqini qisqacha sharhlagan va ular haqida biografik ma‘lumotlar keltirgan. R.Shamsutdinov va Sh.Karimov hammuallifligidagi “Vatan tarixi” kitobida Sharq xalqlari birinchi qurultoyi haqida quyidagi ma‘lumotlar keltirilgan: “Shu boisdan ham Turkiston kompartiyasining arboblardan biri, jadidchilik harakati peshqadamlaridan biri Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov 1920-yil 1-8-sentabrda Boku shahrida o‘z ishini olib borgan Sharq xalqlarining birinchi qurultoyida so‘zlagan nutqi haqida qimmatli ma‘lumotlar keltirilgan.

Sharq xalqlarining Bokudagi birinchi qurultoyi haqida O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasida ham eslab o‘tilgan. Ammo unda O‘rta Osiyodan ishtirok etgan vakillar miqdori haqida “Turkistonlik millat fidoyilaridan jami 90 kishi ishtirok etdi” deb ko‘rsatilishi haqiqatga yaqin emas.

Tadqiqotning uslubiy asosini obyektivlik va tarixiylik prinsipi tashkil etadi. Shuningdek, maqoladagi ma‘lumotlarni tahlil etishda statistik usuldan ham foydalanildi.

Turkiston Millatlar ishlari xalq komissarligining nashr organi hisoblangan “Ishtirokiyun” gazetasi [\[Turdiyev, 1974: 65-66\]](#) Sharq xalqlari birinchi qurultoyini keng yoritganligi bilan ajralib turadi.

“Ishtirokiyun” gazetasining 1920-yil 8-sentabr sonidagi “Sharq xalqlarining qurultoyi” nomli xabarda Bokuda bo‘lgan Sharq xalqlari qurultoyi ochilishiga bag‘ishlangan xabar bosilgan. Xabarda Sharq xalqlari birinchi qurultoyi Turkiston xalqlari hayotida muhim voqea ekanligi, ozodlik va hurlikni tarannum etishi, butun dunyo xalqlari mazlumlarini birlashtirishda muhim o‘rin egallashi qayd qilingan [\[Ishtirok iyun, 1920\]](#).

“Ishtirokiyun” gazetasining 1920-yil 30-sentabr sonida Ali Ismoilzodaning “Mazlum Sharq ko‘zin ochdi (Sharq xalqlarining qurultoyi munosabati ila)” nomli maqolasi e‘lon qilingan. Maqolada muallif qurultoyning borishi, unda ko‘rilgan masalalarga alohida to‘xtalib o‘tgan. Biroq muallif, o‘z maqolasida qurultoyning chaqirilishi, ko‘rilgan masalalarga o‘sha davr ruhiyatidan kelib chiqib bolshevikcha nuqtai nazardan yondashgan.

A. Ismoilzoda o‘z maqolasida Sharqni mustamlaka qilish uchun bir vaqtlar ikki ittifoq “Antanta” hamda “To‘rtlar ittifoqi” o‘rtasida bo‘lib o‘tgan qonli urushda millionlab odamlarning qoni to‘kilgani, Yevropa imperializmining Sharqni mustamlaka iskanjasida ushlab turish masalasidagi barcha o‘y-fikrlari, orzu-istaklari keyingi vaqtlarda puchga chiqqani, Sharq mustamlakachilariga o‘z kuchini ko‘rsatib qo‘ygani ta‘kidlangan. “Sharq shu kundan e‘tiboran sizga qul emas va bo‘lmaydi ham. Bu qurultoyga Sharqning har bir mamlakatidan vakillar kelgan. Undan tashqari Yevropa (proletariati) vakillari ham bor. Bu vakillarning har birining yuragida Yevropa imperializmiga nisbatan nafrati bor, ular baralla “Intiqom! Intiqom!” demoqda. Sharq xalqlarining birinchi qurultoyi 1-sentabrda ochilib, 7-sentabrda yopildi. Unda siyosiy va iqtisodiy masalalar ko‘rildi. Sharq xalqlari vakillari Yevropa imperializmi changalidan qutilish, o‘z erkini o‘zi belgilashi uchun ochiq urush e‘lon qildilar” [\[Ismoilzoda, 1920\]](#).

Muallif o‘z maqolasida, yana Sharq mazlumlari vakillari o‘z fikrlarini bildirib bo‘lganlaridan so‘ng G‘arbiy Yevropa proletarlari vakillari, jumladan, Fransiya, Angliya, Amerika, Bolgariya, Germaniya, Vengriya (Mojariston), Avstriya, Italiya mazlumlarining vakillari ham birma-bir Sharq mazlumlarini asoratdan qutqarish, G‘arb mehnatkashlari ham bir tomchi qonlari qolguncha yordam berishlarini aytib, o‘zlarining do‘stliklarini bildirganliklarini ta‘kidlaydi. “Angliya proletarlari vakili o‘z nutqida sotsialistlarning yetakchilaridan biri Karl Marksning so‘zlaridan iqtibos keltirib “Sharq mazlumlari bilsinlarki, ularning mustamlakachilik asoratidan qutulish yo‘lidagi kurashlarida Angliya mehnatkashlari ularning orqasida turib moddiy va ma‘naviy jihatdan yordam ko‘rsatadilar. Ular bilan birga zolimlarga qarshi kurash olib boradilar, millionlab qurbonlar berib bo‘lsa-da, Sharq ozodlikka erishadi”. Shundan so‘ng butun qurultoy qatnashchilari “Yashasin G‘arb proletariyasining Sharq mazlumlari birlan do‘st-birodarlik va ittifoqi!”- deb qichqirdilar”, - deya o‘zining ehtirosli fikrlarini bildiradi. Qurultoyning oltinchi kunida anjumanga Jazoir, Tunis, Fors, Misr, Arabiston, Hindiston istiqbolchi partiyalari nomidan Anvar poshoning ma‘ruzasini o‘qildi. Anvar posho o‘z ma‘ruzasida: “Avvalo Sharq xalqlari vakillarini Bokuga yig‘ib Sharq mazlumlarini asoratdan qutqarish uchun to‘plagan uchun III internotsionalga qardosh xalqlar nomidan tashakkur izhor etdi” va uzoq bir ma‘ruzadan so‘ng Sharq mazlumlarini Yevropa imperializmiga qarshi kurashda qat‘iy g‘alaba yo‘lida III internatsional bilan birga bo‘lishga chaqirgan [\[Ismoilzoda, 1920\]](#).

Sharq xalqlari birinchi qurultoyining so‘nggi kuni 47 kishidan iborat Sharqda harakat va amaliyot sho‘rosi saylangan, uning markazi Boku shahri bo‘lib, markazning Sharqdagi barcha mamlakatlarida uning sho‘basi tashkillanishiga kelishilgan. Markazning vazifalaridan biri Sharqni G‘arb

imperializmidan qutqarish uchun amaliy harakatlar dasturini yaratish, ikkinchi tomondan Yevropa imperialistlarining Parij va Londonda bo‘lgan parlament va kongresslariga o‘xshash idora yaratishga kelishildi. Agar Antantaning (Yevropa katta hukumatlari ittifoqi) parlament va kongresslari Sharqni bo‘lish masalasini hal qilganda, sho‘ro Antanta davlatlarini yengib, tor-mor etish masalasini hal qilishi mumkin. “Biz, Sharq xalqlari, ishonamizki,- deb ko‘rsatilgan unda,- Antanta bizni masalamizni hal qilmasdan oldin, biz Antanta masalasini hal qilamiz! Chunki butun Osiyo mazlumlari bir ittifoqda Antantaning dushmanlari. Butun Yevropa va Amerika proletarlari biz bilan birga va bir yerdadirlar. Endi biz, sharqliklar, Yevropa imperializmiga bildiramiz, ko‘rsatamiz. Ey G‘arb imperializmi, siz bilingiz, Sharq ortiq sizga qul bo‘lmas. Endi Sharq mazlumlari o‘z taqdirlarini o‘zlari hal qiladilar va Sharqning go‘zal tuproqlaridan siz bosqinchilarni quvib chiqarmaguncha Sharq o‘g‘lonlari qilichlarini qinlariga solmaydilar”[\[Ismoilzoda, 1920\]](#) degan jumlar bilan tugallangan. Ali Ismoilzoda qurultoy haqida his-hayajonga berilgan holda kommunistik mafkuraga katta umid va ishonch bilan qarab, nosotsialistik taraqqiyot yo‘lida bo‘lgan davlatlar, ularning hukumatlariga tahdidli chaqiriqlar yo‘llaydi. Bolsheviklarni Sharqni ozod qiluvchi sifatida ko‘radi va bunga qattiq ishonadi.

“Ishtirokiyun” gazetasining 1920-yil 1-oktabr sonidagi “Sharq ellarining qurultoyi” nomli xabarida qurultoy yig‘ilishining ikkinchi majlisi 1920-yil 2-sentabrda kech soat 2 dan 25 minut o‘tganda G.Zinovyev tomonidan ochilgani va birinchi so‘zni “Sharq xalqlarining bugungi vazifasi” mavzusidagi ma‘ruza uchun so‘z Karl Radekka berilgani, uning ma‘ruzasini Muhammad Aminzoda turk tiliga tarjima qilib berilgani yozilgan.

Xabarda K. Radekning qurultoydagi ana shu masala bo‘yicha ma‘ruzasining qisqacha sharhi berilgan. U mana bu jumlar bilan tugallangan: “O‘rtoqlar! Rossiya mehnatkashlari sizlarga derki, sizlar chindan-da ozod bo‘lmoqchi bo‘lsangiz, sarmoyadorlar, savdogarlar, hukmdorlar zanjiridan qutulib erkda yashashni istasangiz, qurolga yopishingiz! Inqilobni davom ettiringiz! Biz Sharqda inqilobni amalga oshira boshlagan vaqtimizda G‘arb sarmoyadorlari va hukmdorlari bizni Sharqqa Yevropa madaniyatini singdirib, ularni asoratga solmoqchilar demoqdalar. Biz ularga aytamizki, Sharqqa biz o‘z madaniyatimizni yoyamiz. Bu madaniyat oldida to‘p va miltiqlar ojiz qoladi, bu madaniyat butun dunyoga yoyilajak. Biz u yerda haqiqiy insoniyat va madaniyatni quramiz, bu madaniyatning yuzaga chiqishi uchun butun borlig‘imiz bilan kurashamiz deb javob beramiz”[\[Ishtirokiyun, 1920\]](#).

“Ishtirokiyun” gazetasining 1920-yil 3-oktabr sonidagi “Sharq ellarining qurultoyi” nomli xabarda qurultoyning ikkinchi majlisida o‘qilgan ma‘ruzalar

sharhi bosilgan. Undagi ma'lumotga ko'ra, Karl Radekning "Sharq xalqlarining bugungi vazifasi" nomli ma'ruzasidan so'ng Bunyodzoda va undan so'ng Turkiya vakili Baho Shokirlar o'z ma'ruzalari bilan chiqish qilganlar.

Baho Shokir o'z ma'ruzasida Turkiya burjuaziyasining Yevropa burjuaziyasidan qanday farq qilishi xususida fikr yuritib, "Turkiya burjaziyasi ko'proq yerga yopishib olgan, jahondagi o'zgarishlar bilan ishi yo'q. Turkiyada yana yerlarning ko'pi vaqflar qo'lida. Yerning haqiqiy egasi sultondir. Yerning qonunomasi ham ijara muddati ham uning qo'lidadir"[\[Ishtirokiyun, 1920\]](#), - degan fikrni ilgari surgan.

"Ishtirokiyun" gazetasining 1920-yil 5-oktabr sonidagi "Sharq ellarining qurultoyi" nomli xabarda ikkinchi majlisning davomidagi Baho Shokirdan so'ng so'z olgan Eron inqilobchilarining vakili Haydarxonning ma'ruzasi haqida so'z yuritiladi[\[Ishtirokiyun, 1920\]](#).

Haydarxonning ma'ruzasidan quyidagi fikrlar keltiriladi: "Biz Sharq xalqlari qurultoyiga diplomatiya bilan yoki turli xildagi fikrlar bilan kelmadik, balki biz Sharq xalqini tutqunliqdan qutqarmoq uchun keldik. Va bunda ochiqdan ochiq aytamiz, o'rtoq Karl Radek aytganidek, "Biz Sharq mehnatkashlari bilan qo'lni-qo'lga berib, o'lsak birga o'lamiz, tirik qolsak birga qolamiz", bu fikrlar g'oyat buyukdirki, buni biz Sharq xalqlari yuz yillardan beri orzu qilib yashaymiz. Shu kunga qadar Sharq xalqlari G'arbdan bunday so'zlarni eshitmagandi. Oldin ular Sharq xalqini o'ldirish uchun kelar edilar.

G'arb burjuaziyasi biz Sharq xalqlarining boshiga ne balolarni yog'dirmadi. Sharq qancha og'ir balolarni doim G'arb burjuaziyasidan ko'rdi va ko'rmoqda ham. Sharq mehnatkashlarining boshiga nelar kelganini ko'z oldimizg'a keltirsak ko'ramizki, G'arb sarmoyadorlari Eronning, Hindistonning, Turkiyaning boshiga nimalarni solmadilar.

O'rtoqlar! Eronda sarmoyadorlarning harakati shu darajaga borib yetdiki, bir eronlik bir ajnabiy sarmoyadorga biror so'z aytsa, burchini (qarzini) so'rasa yoki boshqa bir da'vosi bo'lsa, Eronning ichinda Eron fuqarosini xorijiy sarmoyadorning saforotxonasiga (elchixonaga) olib borib tayaqlaydilar, ishtirob (jarima) va hibbs etadirlar. Bu ham yetmagandek, 1907-yilda Eronni o'zaro taqsimlab (1907-yil Angliya va Rossiya kelishuviga ko'ra, Eron uchga bo'lingan, shimoli Rossiyaga, janubi Angliyaga, o'rtasi betaraf deb e'lon qilingan - dissertant) ham oldilar. O'rtoqlar! G'arb burjuaziyasi doimiy ravishda Sharq xalqlari ustidan hukmronlik qilish uchun raqobat qilib, Sharq xalqlari ustidan hukmronlik qilgan edilar.

1907-yilda Eronni taqsim etib, Germaniyani tinchlantirish uchun o'z ahdnomalari bilan Germaniyaga ham o'lja ulashdilar. Germaniya reyxstagida Eron masalasini muhokama etib, tamoman o'z foydasiga hal etgan edilar. Eron



xalqining hohish-irodasini inobatga olmagan edilar. Bunga ham qoniqmagan Rossiya va Angliya sarmoyadorlari Eronni o‘zaro ta’sir doiralariga bo‘lib, mehnatkashlarga zulm va jafo qildilar, degan edi.

Endi Turkiyaga kelsak, bizdan oldingi ma’ruzachi (Baho Shokirga ishora qilmoqda - muallif) aytganidek, turklar aslo jahongirliq uchun urushmadilar, ularning maqsadi faqat o‘z hurriyat va istiqloli uchun Yevropa hukmronligidan ozod bo‘lish uchun kurashadilar. “Jahon urushiga ham shu maqsad yo‘lida qatnashgan edilar”, deyish ham to‘g‘ri emas, yanglishdir. Agar Turkiya faqat shu uchun kurashganda Fransiya, Angliya, Italiya va boshqa mustabid hukumatlar uni urushdan so‘ng parchalamas edilar. Endi Kamol posho Turkiya mehnatkashlarini mustamlakachilar iskanjasidan qutqarish uchun kurashga otlangan. Agar birinchi jahon urushida Turkiya o‘zini xalos etish uchungina qatnashgan bo‘lganda zolimlar qo‘lida qolmas edi”. [\[Ishtirokiyun, 1920\]](#)

Ma’ruzachi Hindiston to‘g‘risida ham fikr yuritib, shunday deydi: “Hindistonda to‘rt yuz ellik million aholi yashaydi. Angliya shunday buyuk Hindistonni zabt etib, boyliklarini o‘zlashtirib olmoqda. Yerli xalqqa hech narsa yo‘q. Angliya sarmoyadorlari Hindiston fuqarosini ho‘kiz o‘rnida ishlatadi. Demak, butun Sharqni shul holga solgan Angliya mustamlakachilaridir. Hech bir hukumat shu kunga qadar ularning siyosatining tub mohiyatini ochib bera olmagan. Sho‘rolar hukumatigina ularning mustamlakachilik siyosatining butun sirini, bu siyosatning tub mohiyatini butun dunyo ahliga, ayniqsa, Sharq mehnatkashlariga e‘lon etdi. Bugungi kunda Angliya hukumatining bir katta dushmani bo‘lsa u ham sho‘rolar hukumatidir. Sho‘rolar hukumatining ham asosiy, katta dushmani Angliya imperializmidir. O‘rtoqlar! Angliya va boshqa mustabid kapitalistik hukumatlarni Sharq va Sharq mazlumlari boshiga solgan balolarini ko‘rdingiz, endi sho‘rolar hukumati vakillari bu yerda siz bilan qo‘lino‘lga berib, Osiyoni zulmdan qutqarmoq istaydirlar.

O‘rtoqlar! Shu kunlarda Eronda inqilob bo‘ladi, shu yerga kelgan uning vakillari shu inqilobni uyushtiruvchi xalqning vakillaridir. Biz bu yerda Sharqni jallodlar qo‘lidan qutqarmoq choralari topaylik”[\[Ishtirokiyun, 1920\]](#). Haydarxonning ma’ruzasini tojik va rus tillariga tarjima qildilar. Shuning bilan qurultoyning ikkinchi majlisi kechasi soat 12:00 da yopildi[\[Ishtirokiyun, 1920\]](#), - deya xabar berilgan.

Ko‘rinib turibdiki, ma’ruzachi bolsheviklarning sotsialistik inqilobni Sharqqa yoyish fikrini, ularning asl maqsad va muddaolarini tushunib yetmagan holda qo‘llab-quvatlaydi. Shu bilan birga Sharq xalqlarining asrlar davomida mustamlakachilik azobini tortib kelayotgani, mustamlaka zanjirlarini uzib tashlash yo‘lida kurashdan tolmasligiga alohida urg‘u beradi.

“Ishtirokiyun” gazetasining mazkur sonida qurultoyning 1920-yil 4-sentabr kunduzi soat 12:00da G.Zinovyev raisligida ochilgan uchinchi yig‘ilishi va unda Toshkent vakili Toshpo‘latbek Norbo‘tabekovning ma‘ruzasi haqida ham so‘z boradi [[Ishtirokiyun, 1920](#)].

“Ishtirokiyun” gazetasining 1920-yil 7-oktabr sonidagi “Sharq ellarining qurultoyi” nomli xabarda uchinchi majlisning davomi G.Zinovyev raisligida 1920-yil 4-sentabr kech soat 7 dan 45 minut o‘tganda boshlangani, unda hay‘at rayosatining qarori e‘lon qilinib, qurultoy 1920-yil 9-sentabrda yakunlanishi, vaqt oz qolgani bois Yevropa vakillaridan faqat Angliya va Fransiya vakillariga so‘z berilishi, ma‘ruzalarni tarjimalari ham qisqa bo‘lib faqat forsiyga, turkiyga va rus tillariga tarjima qilinishini bayon etgan [[Ishtirokiyun, 1920](#)]. Shundan so‘ng Turkiyadan Anvar posho ma‘ruzasi berilgan.

Samarqandda nashr etilgan “Mehnatkashlar tovushi” [[Turdiyev, 1974: 71-72](#)] gazetasining 1920-yil 9-sentabr sonida “Sharq ellarining qurultoyi” nomi ostidagi xabarda “Sharq ellarining qurultoyi, munosabati ila Bokuda ulug‘ bir namoyish bo‘lub, o‘n minglarcha xalq ishtirok etgan. Shaharning o‘rtasida Karl Marks uchun obida ochilgan. Namoyish kuni masjidning barchasida Anvar posho va Narimonovning ishtiroki ila ulug‘ bir yig‘in bo‘ldi. Anvar posho Sharq xalqlarini, Rossiya va Ozarbayjon sho‘rolar hukumati bayrog‘i ostiga to‘planib, ingliz istibdodiga qarshi muhoraba etishga chaqirdi. Narimonov Sharqning ozod bo‘lishi inglizlar va Sharq ellarin orasindagi xonlar va podshohlar mahv (ag‘darilgan) etilgan taqdirda vujudga kelajagin bayon etdi [[Mehnatkashlar, 1920](#)], - deya xabar beriladi.

Sharq xalqlari birinchi qurultoyini atroflicha yoritgan gazetalardan yana biri “Pravda” gazetasidir. Mazkur gazeta qurultoyga vakillar yig‘ilishidan boshlab, toki qurultoy yakuniga qadar bo‘lgan jarayonni batafsil yoritib borgan.

“Pravda” gazetasining 1920-yil 24-avgust sonida Bokuga Turkiston orqali Sharq vakillari - o‘zbeklar, qirg‘izlar, xitoyliklar va boshqa millatlar vakillari yetib borganliklari, ular ishtirokida mitinglar uyushtirilganligi haqida xabar bosilgan [[Pravda, 1920](#)].

Gazetaning 1920-yil 27-avgust sonida Sharq xalqlari birinchi qurultoyini o‘tkazishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlar bilan birga uning kun tartibi ham qayd qilingan. Unga ko‘ra, qurultoy kun tartibida quyidagi masalalar ko‘rib chiqilgan:

1. Xalqaro ahvol va Sharq xalqlari.
2. III Internatsional va mustamlaka hamda milliy siyosat masalalari.
3. Agrar masala va Sharq mamlakatlari mehnatkashlarining iqtisodiy ahvoli.
4. Sharq mamlakatlari inqilobiy partiyalarining dastur va taktikalari [[Pravda, 1920](#)].

Shu jihat e'tiborliki, gazetada e'lon qilingan ushbu to'rtta ustuvor masala boshqa manbalarda uchramaydi.

“Pravda” gazetasining 1920-yil 8-sentabrdagi sonida “Sharq xalqlari qurultoyi” nomli maqola bosilgan bo'lib, unda Sharq xalqlarining birinchi qurultoyida ishtirok etgan davlatlar, ularning vakillari haqida ma'lumot berish bilan birga jami ishtirokchilar soni 1800 nafar ekanligi qayd etiladi [\[Pravda, 1920\]](#).

“Pravda” gazetasining keyingi sonlarida Turkiya delegatsiyasining qurultoydagi ishtirokiga alohida to'xtalib o'tilgan. Jumladan, Anvar poshoning qurultoyga kelishi, uning bayonotining o'qib eshittirilishi qurultoy ishtirokchilariga qanday ta'sir ko'rsatgani xususida fikr yuritiladi [\[Pravda, 1920\]](#).

Gazetaning 1920-yil 16-sentabrdagi sonida qurultoyning kun tartibida ko'rilib, keskin muhokama qilingan Angliya masalasiga e'tibor qaratilgan. Angliya jahon imperializmining o'chog'i, sovet Rossiyasining eng xavfli dushmani sifatida qoralangan [\[Pravda, 1920\]](#).

“Pravda” gazetasining 1920-yil 19-sentabr sonida bolsheviklar yetakchisi V.I.Leninning Sharq xalqlari birinchi qurultoyining ahamiyati yuzasidan bildirgan fikrlari e'lon qilingan. Jumladan, V. I. Lenin: “Kommunistlarning Moskvada bo'lib o'tgan qurultoy, Bokuda bo'lgan qurultoy qanday masalalarni hal qilganini, ularning tarixiy ahamiyatini birdaniga o'lchovga solib, to'g'ridan-to'g'ri hisobga olib bo'lmaydi. Lekin bu boshqa harbiy g'alabalardan ham kattaroq ahamiyatga ega bo'lgan g'alabadir. Chunki bu g'alaba bizga bolsheviklarning tajribasi, ularning faoliyati, programmasi, kapitalistlarga va imperialistlarga qarshi revolyutsion kurashga chaqirig'i butun dunyoda ma'qullanganligini va iyulda Moskvada, sentabrda esa Bokuda nima ishlar qilinganligini dunyoning barcha mamlakatlaridagi ishchilar bilan dehqonlar yana uzoq oylar davomida o'zlashtirib va o'zlariga singdirib olishlarini ko'rsatmoqda” [\[Pravda, 1920\]](#), deya fikr bildirgan edi.

“Pravda” gazetasining shu sonida kommunist Karl Radekning “Sharq xalqlari qurultoyi” nomli maqolasi ham e'lon qilingan. Unda K.Radek Sharq xalqlarining birinchi qurultoyi muhim tarixiy sharoitda chaqirilganini ta'kidlab, Rossiya ishchi va dehqonlari bilan Angliya boshliq kapitalistik dunyo o'rtasidagi to'qnashuvda Sovet Rossiyasi o'z kuchini ko'rsatib, interventlarni tor-mor etganiga alohida urg'u bergan. U o'z maqolasida Sovet Rossiyasi o'tgan yili Antantaning dahshatli hujumlarini qaytarib, Angliya kapitalistlari tomonidan qo'llab-quvvatlangan Denikin, Yudenich, Kolchak qo'shinlarini ishchi va dehqonlarning ongli yondashuvi, qizil armiyaning qahramonona kurashi evaziga mag'lub etilgani, Qizil armiya Angliya va boshqa kapitalistik davlatlar qo'llab-

quvvatlagan oqlar Polsha davlatiga qarshi kurash olib borilayotganiga alohida to'xtalib o'tgan [\[Pravda, 1920\]](#).

Shuningdek, K. Radek RSFSR va mazlum musulmon xalqlari ittifoqi burjua Yevropasiga Sharqdan diniy an'analarga hech qanday aloqasi bo'lmagan yangi madaniyatni olib keladi, deya bashorat qilgan. Sharq dunyosining agrar sohaga ixtisoslashgani, biroq Sharq mamlakatlarining har birida dehqonchilik sohasi turlicha xarakter kasb etib, ularning agrar sohasi bir-biridan tubdan farq qilishiga to'xtalgan. K.Radekning ta'kidlashicha, Turkiya qishloq xo'jaligi Eron qishloq xo'jaligidan tubdan farq qiladi.

K.Radek bolsheviklarning Turkiston, Xorazm va Buxoroda yuritayotgan milliy masaladagi siyosati masalasiga to'xtalib, "yerli xalq musulmon aholi bilan til topisha olmas ekanmiz, oldingi tuzum ma'muriyatchiligidan qutila olmas ekanmiz, ekspluatatorlardan hech ham farq qilmaymiz", - deb ta'kidlagan. Shuningdek, bu o'lkadagi o'z siyosatimizni o'zgartirish, oldingi yo'l qo'yilgan xatolarni takrorlamasligimiz, xatolardan to'g'ri xulosalar chiqarishimiz lozim deb aytgan [\[Pravda, 1920\]](#).

Ammo qurultoy jarayonida K.Radek o'zining bu qarashlariga o'zi amal qilmay, O'rta Osiyodan borgan vakillarga nopisand munosabatda bo'lgan edi. Bolshevik yetakchilari o'zlari yozgan maqola talablariga amal qilmayotganlari, K. Radek ham maqolasida o'zi ilgari surgan fikrlarga qurultoy jarayonida o'zi amal qilmagani ham qayd etilgan.

Turkiston istiqloli uchun fidoyi kurashchi bo'lgan atoqli jamoat va siyosat arboblari Mustafo Cho'qayev va Ahmad Zaki Validiy To'g'on Sharq xalqlarining birinchi qurultoyida vakil sifatida qatnashmagan bo'lsalar-da, biroq qurultoyning borishiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazishga harakat qilganlar. VChK xodimlari ularning har bir bosgan qadamini qattiq nazorat ostiga olganiga qaramay, ular turli yo'llar bilan O'rta Osiyodan qurultoyga vakil bo'lib borgan o'z maslakdoshlari bilan uchrashib, ularga yo'l-yo'riqlar, maslahatlar berib turganlar. Shuningdek, ular Kaspiyorti matbuotida o'z maqolalari bilan bolsheviklarning Turkiston ASSR, XXSR va Buxorodagi mustamlakachilik siyosati va amaliyotini fosh etishga harakat qilganlar.

Mustafo Cho'qayev va Ahmad Zaki Validiy To'g'onlar qurultoyga kelgan o'rta osiyolik vakillarni matbuot xodimlari bilan uchrashtirib, intervyular berishlarini tashkillashtirganlar. Jumladan, turkistonlik kommunist firqa vakillarini Tiflisdagi (Tbilisi) "Volniy gores" gazetasi muxbiri bilan suhbatlarini tayyorlashga yaqindan ko'maklashganlar. Buni "Volniy gores" gazetasining sahifalarida e'lon qilingan maqolalardan ham bilish qiyin emas [\[Cho'qay, 59,72-75\]](#).

Mustafo Cho‘qayev va Ahmad Zaki Validiy To‘g‘onlar tashabbusida 1920-yil 6-sentabrda bir guruh turkistonlik vakillarning Ozarbayjon Respublikasi va boshqa xorijiy davlatlar matbuot xodimlari bilan uchrashuvi tashkil etilgan. Bu haqda “Volniy gores” gazetasida e‘lon qilingan “Turkistonlik kommunistlar bilan suhbat” nomli maqoladan ham bilish mumkin [[Volniy gores, 1920](#)].

“Volniy gores” gazetasining 1920-yil 13-sentabrdagi “Turkistondagi sovet hokimiyati” [[Volniy gores, 1920](#)] nomi ostida “Bokudagi muxbirning xabarleri” ruknidagi maqolada Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat qisqa tarzda sharhlanganini ko‘rishimiz mumkin.

“Volniy gores” gazetasining 1920-yil 20-sentabrdagi “Anvar posho Sharq xalqlarining qurultoyida Turkiston masalasi haqida” [[Volniy gores, 1920](#)] nomli maqolada esa qurultoyda Turkiyadan kelgan Anvar poshoning Sharq xalqlariga qilgan murojaatining matni to‘liq e‘lon qilingan.

Yuqoridagi matbuot sahifalarida e‘lon qilingan xabarlar hamda maqolalardan ham ko‘rinib turibdiki, o‘z vaqtida Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Sharq xalqlarining birinchi qurultoyi o‘sha davr markaziy hamda mahalliy matbuotlarida baholiqudrat bolshevikcha mafkura nuqtai nazaridan yoritib borilgan. Chop etilgan maqolalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, qurultoyning rejalashtirilishidan tortib, u faoliyat olib borgan kunlardagi barcha voqelik tarixiy izchillikda bayon etib borilgan.

### 1. Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati

2. Ismoilzoda A. Mazlum Sharq ko‘zin ochdi. (Sharq xalqlarining qurultoyi munosabati ila) // Ishtirokiyun, 1920 yil 30 sentabr.
3. Sh.Turdiyev. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1974. – 120 bet.
4. Sharq ellarining qurultoyi // Ishtirokiyun, 1920 yil 1 oktabr.
5. Sharq ellarining qurultoyi // Ishtirokiyun, 1920 yil 3 oktabr.
6. Sharq ellarining qurultoyi // Ishtirokiyun, 1920 yil 7 oktabr.
7. Sharq ellarining qurultoyi // Mehnatkashlar tovushi, 1920 yil 9 sentabr.
8. Sharq xalqlarining qurultoyi // Ishtirokiyun, 1920 yil 8 sentabr.
9. В Азербейджане. К съезду представителей народов Востока // Правда, 24 августа 1920 г.
10. Волный горец, 13 сентября 1920 г.
11. Волный горец, 20 сентября 1920 г.
12. Волный горец, 6 сентября 1920 г.
13. К съезду народов Востока // Правда, 11 сентября 1920 г.
14. Радек К. Съезд народов Востока // Правда, 19 сентября 1920 г.
15. Съезд народов Востока // Правда, 19 сентября 1920 г.
16. Съезд революционных народов Востока в Баку // Правда, 27 августа 1920 г.
17. Съезд революционных народов Востока в Баку и английские козни // Правда, 11 сентября 1920 г.
18. Шокай М. Избранные труды. Том первый. - Алматы: Арыс, 2016. – С.59, 72 - 75.

**TARIX****XORAZMLIK KOREYSLAR****UO‘K 811.512.133:008-115+811.111:008-115**

**Nasiba  
MATVAPAYEVA**

**Urganch Davlat  
Universiteti tayanch  
doktoranti.**

***Annotatsiya:** Maqolada koreys diasporasining Xorazm viloyatidaga ko‘chib kelish tarixi, moslashuvi va o‘z milliy markazlarini tashkil etish jarayonlari haqida ma‘lumot beriladi. Shuningdek, koreys diasporasining Xorazm tarixida tutgan o‘rni, aholi sonidagi ulushi (shaharlar va tumanlar kesimida) va turli sohalar rivojiga qo‘shgan hissalar haqida so‘z yuritiladi.*

***Аннотация:** В статье представлены сведения об истории корейской диаспоры, их миграции в Хорезмскую область, адаптации, процессе создания национальных центров. Также описана их роль в истории Хорезма, ее доля в населении (в разрезе городов и районов) и вклад в развитие различных областей.*

***Annotation:** The article provides information about the history of their migration to Khorezm region, their adaptation, and the process of establishing their national centers. The role of the Korean diaspora in the history of Khorezm, its share in the population (in the section of cities and districts) and its contribution to the development of various fields were described.*

***Kalit so‘zlar:** koreys, diaspora, deportatsiya, Koryo Saram, milliy madaniy markaz.*

***Ключевые слова:** корейцы, диаспора, депортация, Корё Сарам, национальный культурный центр.*

***Key words:** Korean, diaspora, deportation, Koryo Saram, national cultural center.*

Koreyslar - Koreya Xalq Demokratik Respublikasi (KXDR, Shimoliy Koreya) va Koreya Respublikasining (Janubiy Koreya) asosiy aholisini tashkil etuvchi etnik guruh. Yana taxminan 8 mln. aholi Xitoy, AQSH, Yaponiya, Kanada va boshqa davlatlarda yashovchi koreys diasporasini o‘z ichiga oladi. Ko‘pgina etnik koreyslar postsovet hududida, ayniqsa, Rossiya, O‘zbekiston, Qozog‘istonda yashaydi. Ular Koryo Saram deb yuritiladi. [1. B. 73.] Koreya madaniyati 5 ming yillik tarixga ega Sharqiy Osiyoning eng taraqqiy etgan madaniyatlaridan biridir. [2. B. 344.] 8 mln.dan ortiq koreyslar yarim oroldan tashqarida yashaydi. Shundan 450 mingga yaqin koreyslar MDH mamlakatlarida istiqomat qiladi.

Rossiyada koreys immigratsiyasi paydo bo‘lishining ikki bosqichini ajratib ko‘rsatish mumkin, bular XIX asr o‘rtalaridan boshlab 1884-yilgacha birinchi

bosqich, 1884-yildan boshlab 1917-yilgacha, ya'ni sovet hokimiyati o'rnatilguncha bo'lgan ikkinchisi bosqichlardir. XIX asr o'rtalarida Koreyada tabiiy ofatlar, qurg'oqchilik va suv toshqinlari sababli ijtimoiy-iqtisodiy ahvol og'irlashadi, aynan shu davrdan hukmron elita tomonidan zulm ko'rgan dehqonlar o'z yerlarini tashlab keta boshlaydi. Rossiyaning Primorye o'lkasida ular dehqonchilik qila boshlagan va u yerga juda tez moslashishgan. Ammo doimiy ravishda politsiya va ma'muriy nazorat ostida bo'lganlar. [3. B. 35-42.]

Turkiston Respublikasida ommaviy deportatsiyadan oldin ham ko'plab koreyslar yashagan. 1897-yil Rossiya imperiyasining birinchi umumiy aholi ro'yxatida ham koreyslarning Farg'ona viloyati va boshqa hududlarda yashashi qayd qilingan. [4. B. 60.]

XX asrning 20-yillarida Toshkentda koreys emigrantlarining anchagina qismi yashagan. Aholini ro'yxatga olish ma'lumotlarida 20-yillarda O'zbekistonda 37 nafar koreys, shu jumladan 2 nafar koreys ayol yashagani ma'lum. Ularning ijtimoiy tarkibi turli xil bo'lib, shu paytlarda "Turkiston Respublikasi koreyslar ittifoqi" ijtimoiy tashkiloti tuzilgan edi. Tashkilotning o'z ustavi bo'lmagan va o'sha paytdagi SSSR Xalq Komissarlar Sovetining raisi A.Rikov tomonidan tasdiqlangan nizom asosida ishlagan. Uyushmani ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza 1924-yil 4 nafar ta'sischi tomonidan berilgan, biroq sinfiy kurashning keskinlashuvi sharoitida 1926-yil oktabrda u tugatilgan. [5. B. 11.]

1937-yil 21-avgustda SSSR Xalq Komissarlar Kengashi va Butunittifoq Kommunistik partiyasi (bolsheviklar) Markaziy Komitetining "Uzoq Sharqdan koreyslarni O'zbekiston va Qozog'istonga ko'chirish to'g'risida" N 1428-326 S qarori e'lon qilindi. 1937-yil 170 mingdan ortiq koreyslar O'rta Osiyo va Qozog'iston hududlariga majburan ko'chirildi. Shundan 74 mingdan ortig'i O'zbekistonga, qolgani Qozog'istonga ko'chirilgan. Ko'chirish amalda mumkin bo'lgan xiyonatning oldini olish chorasi sifatida ishlatilgan, shu bilan birga na xalq xo'jaligini rivojlantirish ehtiyojlari, na urushga tayyorgarlik 30-yillarning ikkinchi yarmidagi sovet koreyslarining ko'chishini talab qilmas edi. [6] Aslida imperiya Markaziy Osiyoni doimo ishonchsiz odamlarni surgun qilish joyi deb hisoblagan. Bu an'anani davom ettirgan totalitar hukumat bu yerga "xafa qiluvchi" mayda xalqlarni joylashtirdi. Birinchi bo'lib Uzoq Sharq mintaqasidan koreyslar, keyin Volga nemislari, chechenlar, ingushlar, qarachaylar, Kavkazdan mesxeti turklar, Qrimdan qrim tatarlari joylashtirildi. [7. B. 26.] Bugungi kunda bizda majburiy migratsiyaga uchraganlar soni haqida to'liq ma'lumotlar yo'q. Ularning soni taxminan 3,5 milliondan ortiq edi.[8] Koreyslarning ko'chirilish sababi SSSR va Yaponiya o'rtasidagi munosabatlarning yomonlashishi edi.

Aynan o'sha davrda Koreya yarim orolining bir qismi Yaponiya qo'lida bo'lgan va Sovet Uzoq Sharqida katta koreys diasporasi yashagan. Shuning uchun Sovet hukumati koreyslarni chegaradan ko'chirish to'g'risida qaror chiqaradi. Buning natijasida 170 ming koreyslar Qozog'iston va Markaziy Osiyoga deportatsiya qilindi. O'sha paytda O'zbekiston SSRning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari juda ko'p muhojirlarni bir vaqtning o'zida qabul qilishga imkon bermadi. Shunga qaramay o'zbek xalqi ular uchun samimiy g'amxo'rlik ko'rsatdi. Imkon qadar koreyslar uy-joy va ish bilan ta'minlandi, madaniyat markazlari tashkil etildi, maktablar qurildi. [9.B.178.]

O'zbekiston jami 6 ming oilani, 30 ming kishini qabul qilishi kerak edi. 1937-yil 25-sentabr holatiga ko'ra ko'chirish quyidagi yo'nalishlarda bo'lishi belgilangan edi:

- 1) Quyi Chirchiq tumaniga sobiq Novolubtrest sovxoziga qarashli yerlarga (2000 gektarga) sholi yetishtirish bo'yicha 1200 ta fermer xo'jaligini joylashtirish;
- 2) O'rta Chirchiq tumaniga 2000 gektar yer maydoni bo'lgan sobiq yordamchi xo'jalik yerlarida sholi yetishtirish yo'nalishi bo'yicha 1200 ta fermer xo'jaligini joylashtirish;
- 3) O'rta Chirchiq tumaniga sovxozni ishchi kuchi bilan ta'minlashni yaxshilash, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish va bog'dorchilik uchun 600 ta fermer xo'jaligini joylashtirish;
- 4) Xorazm okrugi Gurlan tumani Oqqum sovxoziga 1500 gektar yerga naslchilik yo'nalishi bo'yicha va yordamchi baliqchilik uchun 1000 ta fermer xo'jaligini joylashtirish ;
- 5) Ikromov tumaniga 4000 gektar yerga 2000 ta fermer xo'jaligini joylashtirish.

Ko'chirish rejasidan tashqari ham koreyslar belgilanmagan yerlarga ko'cha boshlaganlar, bu ayniqsa 1937-yil noyabr,dekabr oylarida kuchaygan. Ko'chirilgan koreys aholisi uchun Gurlan tumanida 500 ta uy, 3 ta maktab, hammom, novvoyxona va 70 o'rinli kasalxona qurish belgilandi. [10. B. 176] 1937-yil 24-sentabr kuni SSSR Xalq Komissarlar Soveti O'zbekistonga yana qo'shimcha 6000 oilani, ya'ni 22-25 ming kishini yuborish haqida qaror qabul qildi. Orenburg yo'lining Orol dengizi stansiyasida yuk tushishi bilan Gurlan tumaniga ko'chmanchilar quyidagi poyezdlarda kelishi belgilandi:

Birinchisi 501-poyezd 10-sentabrda Sviyagino stansiyasidan komendant Lukashev tomonidan jo'natildi (60 vagon, 358 ta oila, 1362 nafar kishi).

Ikkinchisi 502-poyezd 10-sentabr kuni Golenki stansiyasidan komendant Jukov tomonidan jo'natildi (62 vagon, 307 ta oila, 1412 nafar kishi).

Uchinchisi 503-poyezd 10-sentabr kuni Knoring stansiyasidan komendant Stepankevich tomonidan jo'natildi (67 vagon, 366 ta oila, 1744 nafar kishi).



1937-yil 10-oktabrdan 20-oktabrgacha bo‘lgan vaqtda Gurlan tumaniga 6 ta poroxod 5372 kishilik odamlar va taxminan 1000 tonnalik yuk bilan suzib keldi. Ularni kvartiralarga joylashtirish ishlari tez amalga oshirildi. Uy-joylarni tayyorlash, ta‘mirlash sifati yuksak darajada amalga oshirildi. Chunki Gurlan tumani ixcham joylashgan, uylar katta va bir necha xonali hamda turli xo‘jalik



xonalari bo‘lib, uylar va qishloqlar bir-biriga yaqin joylashgan. Gurlanda uy-joy topish va qishloqlarga joylashtirishning katta tashabbuskori Gurlan tumani NKVD boshlig‘i tomonidan amalga oshirilgan. Bu yerda yuk tushirish jarayonida katta qiyinchiliklar bo‘lib, yuklar tuzlangan bodring, go‘sh, loviya, cho‘chqa yog‘i va soya solingan og‘ir bochkalardan iborat edi. Ko‘p qoplarda bug‘doy, un, no‘xat, guruchlar bor edi. [11. C. 102] Ko‘chib kelgan koreyslarga Xorazm viloyatining turli hududlaridan turli hajmda (2,04 gektardan 5,27 gektargacha) jamoat yerlari ajratilgan. 921 gektar yerni o‘zlashtirish uchun 200 ming rubl miqdorida pul ajratilgan. Koreys muhojirlarining 5820 ta oilasi 50 ta kolxozni qayta tashkil etdi, shundan Xorazm viloyatida 3 ta koreys kolxozni paydo bo‘ldi. Koreyslarni haqli ravishda migratsiya harakatchanligi yuqori bo‘lgan etnik guruhlarga kiritish mumkin. Bu chor Rossiyasida ham, undan keyingi davrlarda ham o‘zini namoyon qildi. Koreyslar deportatsiyasidan keyin ma‘muriy ta‘qiqqlarga qaramay, Qozog‘istonning suvsiz dashtlaridan O‘zbekiston va Qirg‘izistonga sholichilik va ekin ekish maqsadida ixtiyoriy ravishda ko‘chib kelganlar. Janubiy Orolbo‘yi va Sirdaryo viloyatlarida sholi yetishtirish amalga oshirilgan bo‘lsa, keyinchalik koreyslarning mehnati bilan Qoraqalpog‘iston

Avtonom Sovet Respublikasi va Xorazm viloyati ham bunday hududlar sirasiga kirdi.

1938-1940 yillarda Koreya kolxozlari sezilarli darajada mustahkamlandi. Ularning asosiy ishlab chiqarish vositalari 2-3 barobar, pul daromadlari 4-5 barobar, sholining yalpi hosili 2,5 barobar oshdi. Kolxozlar kuchli ko‘p tarmoqli xo‘jaliklarga aylandi. 1939-yilgi aholini ro‘yxatga olish jarayonida O‘zbekistonda yashovchi koreyslar soni 72,6 ming kishi, 1959-yildagi ro‘yxatga olish jarayonida esa 138,5 ming kishini tashkil etishi aniqlangan. [12. B. 188-197] 1941-yilga kelib, O‘zbekiston chinakam sholichilik bo‘yicha yetakchi mintaqaga aylandi, bu Ulug‘ Vatan urushi yillarida ham respublika aholisiga, ham butun mamlakatga katta yordam berdi. Bu ishda koreys muhojirlarining hissasi kata bo‘ldi. O‘zbekistonning barcha aholisi singari ular ham 1941-yilning yozida og‘ir sinovlarni boshdan kechirishlariga to‘g‘ri keldi. Urush yillarida ular frontga yuborilmagan, chunki ularga nisbatan ishonchsizlik mavjud edi. Ammo mehnat frontiga 10 yoshdan 50 yoshgacha bo‘lgan koreys erkaklari yuborilgan.

Dunyoda koreys diasporalarining hech biri o‘z mamlakatlari ijtimoiy ierarxiyasida Markaziy Osiyodagi Koryo Saram kabi yuksak maqomga erisha olmadi. 200 dan ortiq koreyslar qishloq xo‘jaligidagi yorqin yutuqlari uchun SSSRning eng oliy unvoni “Sotsialistik Mehnat Qahramoni” unvoniga sazovar bo‘lgani ham buni tasdiqlaydi. Lekin Koryo Saram nafaqat qishloq xo‘jaligi, balki sanoat, qurilish, ilm-fan, sog‘liqni saqlash sohasida ham katta muvaffaqiyatlarga erishdi. O‘zbekiston shahar aholisining tarkibida mazkur millat aholisining ulushi 1939-1959-yillarda koreyslarning ulushi 0,8% dan 1,6% ga qadar ko‘paydi. 1970-yilda aholini ro‘yxatga olish ma‘lumotlarida ularning soni 147,5 ming nafar deb qayd etilgan. 1989-yilga kelib esa, 183 140 nafar kishini tashkil etgan. [13]

1988-yil 29-noyabrda Toshkentda Koreya jamoatchiligining kengaytirilgan yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi, unda koreys madaniyat markazini tashkil etish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita tuzildi. 1990-yil 27-fevralda Toshkent koreys madaniyat markazining birinchi ta‘sis konferensiyasi bo‘lib o‘tdi, unda uning dasturi va nizomi tasdiqlandi. Anjumanda madaniyat markazining 21 kishidan iborat Kengashi saylandi. Toshkent koreys madaniyati markazidan keyin bunday markazlar Andijon, Buxoro, Guliston, Jizzax, Qarshi, Namangan, Termiz, Urganch, Farg‘ona kabi yirik shaharlar va viloyat markazlarida, Olmaliq, Ohangaron, Yangibozor, Chirchiq, Yangiyo‘l, To‘ytepa, G‘alaba, Denov, Yangiyer, Bekobod va boshqa tumanlarda tashkil etildi. Jami 24 ta viloyat, shahar va tuman koreys madaniyati markazlari tashkil etilgan. Va nihoyat, 1991-yil 12-yanvarda O‘zbekiston koreys madaniyati markazlari Respublika uyushmasi tuzildi. Bugungi kunda Xorazm viloyatida jami 4109 nafar koreys millatiga

mansub aholi yashaydi. Ulardan eng ko‘pi Xonqa tumaniga to‘g‘ri kelib, 1313 nafardan iboratdir.[14]

Xorazm viloyatida Jami	Urganch shahri	Xiva shahri	Bog‘ot tumani	Gurlan tumani	Qo‘shko‘pir tumani	Urganch tumani
4109	30	235	299	116	251	505

Xazorasp tumani	Tuproqqa‘la tumani	Xonqa tumani	Xiva tumani	Shovot tumani	Yangiariq tumani	Yangibozor tumani
284	156	1313	63	286	293	278

Koreyslar diasporasi o‘zbek oshxonasini yanada boyitdi. Respublikaning barcha etnik guruhlari taomlari orasida qaynatilgan guruchlar, tuzlangan baliqdan turli xil salatlar, tuzlangan go‘sh, koreys karami, yangi va quritilgan baqlajon, go‘shli bodring, kuk-si va ka-dya sho‘rvalari, taybi soya pishlog‘i va boshqalar mavjud.[15. C. 77.] Koreys diasporasining o‘zbek sportiga qo‘shgan hissasi ham alohida ahamiyatli bo‘lib, ayniqsa, boks, sambo, taekvando, kurash, dzyudo, futbol kabi sport turlari bo‘yicha erishgan yutuqlari quvonarlidir. [16. C. 69] Ularning ilm-fan sohasidagi faoliyati va yutuqlari ham salmoqli bo‘lib, 300 dan ortiq koreys olimlari haqidagi ma‘lumotlarni koreyslarning Markaziy Osiyoga deportatsiya qilinganining 65 yilligi munosabati bilan Primorsk o‘lkasidan “O‘zbekiston koreys olimlari” ma‘lumotnomasidan topish mumkin. [17. C. 86] Xorazmni iqtisodiy rivojlantirishda Koreys diasporasining ham katta hissasi bor. Ko‘plab koreyslar qishloq xo‘jaligi, xususan sabzavot yetishtirishda yetakchi bo‘lib, mahalliy bozorlarni sifatli mahsulotlar bilan ta‘minlaydilar. Bundan tashqari, kichik biznes va savdo sohalarida ham faol ishtirok etib, viloyat iqtisodiyotining o‘shishiga hissa qo‘shmoqdalar. [18. B. 146.] Har yili Xorazmda 10 dan ortiq koreys madaniyatiga oid tadbirlar o‘tkaziladi, jumladan Chuseok va Seollal bayramlari o‘zaro madaniy aloqalarni rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Ushbu tadbirlar mahalliy va xalqaro sayyohlar oqimini oshiradi, yiliga taxminan 5,000 dan 10,000 gacha sayyoh koreys madaniyatini tajriba qilish uchun Xorazmga tashrif buyuradi. [19. B. 151]

Koreys diasporasining Xorazmda paydo bo‘lishi 1937-yil avgust qarori va majburiy ko‘chirish bilan bog‘liq bo‘lsa-da, bugungi kunda koreyslar bu yerda o‘z milliy an‘ana va urf-odatlarini saqlab qolgan holda tinch-totuv yashamoqda. Ular sinovli davrlarni yengib o‘tib, o‘z qadriyatlarini kelajak avlodlarga yetkazishda ham faol mehnat qilmoqdalar.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Назаров Р. Корейская диаспора Узбекистана: история и современность. *Oriental Institute Journal* 2022/2 (54) 73-84-С. 73-с
2. Ю.В. Ванин, Б.Б. Пак, Б.Д. Пак. Корейцы в СССР. Институт востоковедения РАН, 2004. — 344 с.
3. Хан Валерий Сергеевич, Сим Хон Ёнг. Корейцы Центральной Азии: прошлое и настоящее. – М.: Изд-во МБА, 2014 г. – 256 с., 35-42-с.
4. Хан Валерий Сергеевич, Сим Хон Ёнг. Корейцы Центральной Азии: прошлое и настоящее. – М.: Изд-во МБА, 2014 г. – 256 с., 60-с.
5. Ким В. Правда-полвека спустя. Ташкент Узбекистон 1999. 248 с., 11 с.
6. Ким П.Г. Корейцы Республики Узбекистан (История и современность) Ташкент. Узбекистан. 1993
7. Ким В. Правда-полвека спустя. Ташкент Узбекистон 1999. 248 С. 26 с.
8. Ким П.Г. Корейцы Республики Узбекистан (История и современность) Ташкент Узбекистан 1993
9. Саиддбобоев З. Историческая география. Издательско-полиграфический творческий дом имени Чулпана Ташкент — 2011. 224 С. 178 с.
10. Ким П.Г. Корейцы Республики Узбекистан (История и современность) Ташкент. Узбекистан. 1993. 176 с
11. Ким В. Правда-полвека спустя. Ташкент Узбекистон 1999. 248 С. 102 с.
12. Murtazayeva, R. O ‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik [Matn]: darslik / R. Murtazayeva. - Toshkent: «Go To Print», 2020. - 344 b.188-197-betlar.
13. Хан В.С. Социальный статус и вклад корейцев в развитие Центральной Азии. 2014.
14. Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi rasmiy ma’lumoti. 2024-yil aprel.
15. Назаров Р. Корейская диаспора Узбекистана: история и современность. *Oriental Institute Journal* 2022/2 (54) 73-84-С. 77-с
16. Г.Г. Ким. Спорт в жизни молодежи корейской диаспоры Узбекистана. Международная научно-практическая Конференция “Ким Пен Хва и Корейцы Узбекистана” | Тезисы Докладов. Ташкент -2005 118 С. 69-с.
17. Л.М. Юн. Корейские учение Узбекистана. Международная научно-практическая Конференция “Ким Пен Хва и Корейцы Узбекистана” | Тезисы Докладов. Ташкент -2005 118 С. 86-с
18. Davletov S. R. Raximova A. R. Koreys diasporasining Xorazmdagi tarixiy sayohati: Integratsiya va hissalar. 2024. *Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies*. Moscow, Russia. Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com). 145-148-betlar. 146-bet.
19. Davletov S. R. Raximova A. R. Xorazmdagi koreys millatining kundalik hayoti va madaniy amaliyoti: o‘zlik va merosni o‘rganish. *Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies*. Moscow, Russia. Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com). 149-153-betlar. 151-bet.

**TARIX****XORAZM QISHLOQLARIDA O‘TKAZILGAN  
KOLLEKTIVLASHTIRISH SIYOSATI VA UNING FOJIALI  
OQIBATLARI****UO‘K 574.510****Umid  
BEKMUHAMMAD****Tarix fanlari bo‘yicha  
falsafa doktori****Nasiba  
JIYAMURATOVA****O‘zbekiston Milliy  
universiteti magistranti**

**Annotatsiya:** Maqolada Sovetlarning 1929-35-yillarda majburiy o‘tkazilgan kollektivlashtirish, quloqlashtirish siyosati va uning fojiali oqibatlari Xiva xonligidagi hayot tarzi bilan taqqoslangan holda tadqiq qilinadi.

**Аннотация:** В статье исследуется советская коллективизация, политика принуждения в 1929-35 гг. и ее трагические последствия по сравнению с жизненным циклом хивинского хана.

**Annotation:** The article examines the Soviet collectivization, the policy of compulsion in 1929-35, and its tragic consequences compared to the Khiva Khan's life course.

**Kalit so‘zlar:** dekret, kolhoz, rais, brigadir, kolhozchi, quloq, surgun, sotsialistik musobaqa, paxta monokulturasi, ekologik fojia.

**Ключевые слова:** Декрет, колхоз, председатель, бригадир, колхозник, кулок, изгнание, социалистическое соревнование, хлопковая монокультура, экологическая катастрофа.

**Key words:** ordinance, kolkhoz, chairman, foreman, collective farmer, kulok, exile.

1929-35yillarda Xorazmda majburiy ravishda kollektivlashtirish jarayoni boshlanib, kolxozlar tuzilgach, qishloq xo‘jaligi tanazzulga yuz tuta boshladi. Bunga eng asosiy sabab qishloq aholisi o‘rtasida sovetlarning sinfiy kurash siyosatini o‘tkazgani, bu esa o‘zaro nizolar, ya’ni boy, o‘rtahol tabaqaning quloq sifatida mol-mulki tortib olingani, yersiz, yoki ozgina yerga ega dehqonning ularga atayin qarshi qo‘yilganligi edi. Natijada qishloqda yerga, mulkka egasizlik,

davlat siyosatidan hadiksirash, majburiy rejali iqtisodiyot shakliga o'tilib, tabiiy sharoitlarga qaramay paxta ektirish yuzaga keldi. Bu holat qishloq hayotining tanazzulga uchrab, dehqonlarning qiyin ahvolga tushib qolishiga olib keldi. Tabiat muvozanati buzilib, yerlarning hosildorligi kamayib ketdi. Buning salbiy oqibatini nafaqat XIX asrning so'nggi yillaridagi Xiva xonligi dehqonchiligiga oid raqamlardan, balki 1900-1920-yillar va 1926-40-yillarga oid ko'rsatkichlardan, kollektivlashtirishdan oldingi va so'nggi yillardagi faktlarni bir-biriga taqqoslab bilib olish mumkin.

Xiva xonligi arxividagi manbalarga ko'ra, 1850-yilda 1 tilloga (1 tillo-90 tanga) 15 botmon bug'doy yoki 16 botmon jo'xori yoki 12 botmon (1botmon-20 kg) mosh (loviya) sotib olish mumkun bo'lgan. 25 kg olma, 10 kg kishmish - 2 tillo, 100 kg o'rik, 60kg uzum, 10 kg olma -17 tillo, 1kg go'sht -0,75 tanga turgan. Sigir 7 tillo, ho'kiz -14 tillo, 150 bog'lam beda esa 1 tildan sotilgan.

XIX asr oxirida o'rtacha ta'minlangan oilada bir tanob (0,25 sotix) yerga qovun ekilsa, u xonadonda iste'mol etilganidan tashqari, 10 tillogacha daromad keltirgan. Bu tilloga esa bozorda 52 kg go'sht, 52 kg kunjut moyi(yog'i), 125 kg olma, 50 kg kishmish, 1500 bog'lam beda, 50 kg guruch, 600 kg bug'doy olish mumkin edi. Yani, qovun yetishtirgan dehqon oilasi ehtiyojidan ortganini bozorga sotib, bimalol xonadonini deyarli 7-8 oy ta'minlagulik mahsulot sotib olishi mumkin bo'lgan.

Hatto 1890-yillarda Xorazmdan qovun qoqi savdo karvonlari bilan Orenburg orqali Fransiyaga yuborilgan va u yerda eksportbop eng sifatli konyaklarni tayyorlashda foydalanishgan. Xonlik davrida dehqon va chorvadorlar yetishtirgan mahsulotlar vohaga kelgan rossiyalik kishilarni hayratga solgan.

Chunonchi, 1905-yilda Xorazmga kelgan A.Nikol'skiy "Men bu yerlarda tovuq uchun 5 tiyindan ortiq pul to'lamadim, hatto 5 tiyinga 2 ta tovuq sotib olish mumkin" deb yozgandi.

V.Lobachevskiy esa "1909-yilda Sho'raxonda (To'rtko'l) 1pud (16kg) bug'doy uni 1,45 rubl, gurunch 3,30 rubl, mol go'shti 5,28, qand 7,60, kerosin 2,50, bug'doy 1,50, jo'xori 1, arpa 0,70 rubldan sotilayotganini qayd etgandi. (V.Lobachevskiy "Xivinskiy rayon", Tashkent, 1912 g., str.14)

Vohadagi bunday arzonchilik, yuqori hosil yetishtirilishiga sabab dehqonlarning almashlab ekishga e'tibor qaratgani bo'lgan. Chunonchi, xonlik davrida paxta bitta dalada 2-3 yildan ortiq ekilmagan va uni jo'xori yohud bug'doy bilan, kuzgi bug'doyni esa 2 yildan keyin paxta yoki jo'xori bilan almashtirishgan.

Xorazm dehqoni belkurak yordamida yerning sho'r bosgan qatlamini olib tashlab, yerlarning sho'rlanishiga qarshi zahkashlar qazib, sho'r yuvib turishgan. Eng asosiysi, dehqon ekinlarnigina emas, avvalo tuproqni parvarish etgan.

Shu bois ham yetishtirilgan barcha qishloq xo‘jalik mahsulotlari hamda mevalar yuqori sifati bilan ham ajralib turagan. Bunga Amudaryoning quyi oqimidagi iqlim, daryoning loyqali suvi, dehqonchilikda juda ko‘p miqdorda mahalliy o‘g‘itlarning qo‘llanilishi va Xorazm dehqonining yillar davomidagi tinimsiz mashaqqati orqali erishilgan. Bunday tuproqda yetishtirilgan ekinlarga, ayniqsa beda urug‘iga jahon bozorida talab katta bo‘lardi.

“Birgina 1899-yilda vohadan Amerikaga Gamburg orqali 28500 pud ( 1 pud -16 kg), 1903-yilda 109600 pud, 1906-yilda esa 739700 pud beda urug‘i jo‘natilib, 1 pud beda urug‘ligining bahosi 4 rubldan baholangan. Voha aholisi o‘z salomatligini mustahkamlash uchun chorva mollarini asrashga e‘tibor qaratib, ko‘proq go‘sht is‘temol qilgan.

“Xususan, 1911-yilning boshlarida aholining o‘troq qismida 335 ming qo‘y, 175 ming qoramol, 110 ming ot, 44 ming echki boqilgan. Boshqacha aytganda, 1912-13-yillarda bir yilda bir kishi 2,73 pud ( 44,7 kg) go‘sht, 16,5 pud un ( 270 kg ) ist‘emol etgan.

Sho‘raxonda (To‘rtko‘l) 2 desyatina (1 desyatina – 1.09 gektar) haydaladigan yeri, shu jumladan 1,7 desyatina ekinzori bo‘lgan o‘rtacha xo‘jalikda bir bosh ot, 2 bosh qoramol, 1 bosh tuya, 3–4 bosh qo‘y, 1 bosh echki, 1 ta eshak bo‘lgan. Ana shunday ish hayvonlariga ega bo‘lgan, go‘sht va bug‘doy, jo‘xori unlarini ist‘emol etib, sog‘lom turmush kechirgan baquvvat Xorazm dehqoni sifatli mahsulot ishlab chiqarardi”. (R.Shamsutdinov, U, Bekmuhammad. "Moziyning qora kunlari", "Xorazm" nashriyoti, Urganch, 2007-yil, 31-bet).

Ammo, 1873-yildan xonlikni zabt etgan Chor Rossiyasining makkorona, 1920-yildan xonlikni tugatib, o‘z gegemonligini o‘rnatgan sovet mustamlakachiligining qabihona siyosati natijasida paxta ekishga alohida e‘tibor qaratildi. Bu esa yer tarkibini yomon, tuzalmas darajaga olib kelib, xonlik davrida sog‘lom turmush kechirgan dehqonni ham jismonan, ham ma‘nan abgor qildi. Agar chor Rossiyasi vohalik dehqonlarni makkorlik bilan paxta yetishtirishga kredit berib, boshqa mahsulotlarga qaraganda ko‘proq pul to‘lab rag‘batlantirish orqali maqsadiga intilgan va Rossiya sanoati uchun ehtiyojini qondirib borgan bo‘lsa, sovet davlati dehqonlarning yeru, mol-mulkini tortib olib, ularni majburiy ravishda kolxozlarga birlashtirib paxta ektirdi. Dastlab, yer tarkibi yaxshi bo‘lgani bois, chor mustamlakachilari ko‘p narx to‘lagani uchun paxta ko‘p yetishtirilgan.

Hattoki, “1908–1910-yillardagi Moskva birjasida sifati uchun Xorazm paxta tolasi Farg‘ona tolasidan qimmat sotilgan va bundan foydalanish choralari ko‘rmoqchi bo‘lishgan. Sifati bo‘yicha O‘rta Osiyoda eng yaxshi bo‘lgan Xorazm paxtasini chetga chiqarish Xorazm xalq xo‘jaligini rivojlantirishning asosiy

omili, eksport-importning asosi edi va kelajakda-da shunday bo‘lib qoladi”. (Xorazm Xalq Respublikasi tarixi”, Xiva, 1924-yil, 19-bet.)

“Agar 1883-yilda Xiva xonligidan Rossiyaga 300 ming pud paxta olib ketilgan bo‘lsa, 1909-yilda 600 ming pud, 1910-yilda “Amerika” navli hamda 700 ming pud mahalliy navli, 1913-yilda esa 735 ming pud “Amerika” navli va 100 ming pud mahalliy navli paxta olib ketildi“ (*Tuxtametov T.G. Россия и Хива в конце XIX - начале XX в. Победа Хорезмской народной революции. М., 1969 г, стр.106* ).

Xorazmda azaldan to XIX asrning 90-yillarigacha Misr “g‘avchasi” yoki mahalliy “G‘o‘za” navi ekilib kelgan bo‘lsa, mustamlakachilar Rossiya sanoati ehtiyoji uchun mos bo‘lgan “Amerika paxtasi” navini Xorazmda ekishga e‘tibor berdi. “Dyukov” firmasi, “Katta Yaroslavl” manufakturalari AQShdan nav keltirib, Xorazm dehqonlariga ekish uchun taqsimlay boshlashdi. Xususan, 1885-yilda “Dyukov” firmasi Xiva xoni devonbegisidan yer olib, 10 pud “Amerika” navli paxta ekdi va 150 pud sof paxta tolasi olishga erishdi.

Paxtaning xonlikda ko‘p miqdorda, xususan 1904-yilning o‘zida 31 400 desyatinaga paxta ekilgani tufayli, oldin o‘zini va Orolbo‘yi xalqlarini bug‘doy bilan ta‘minlab kelgan Xorazm dehqoni boshqa hududdan bug‘doy keltira boshlagan. Bu holat esa bozorlarda bug‘doy narxining o‘shishiga olib keldi.

“1873-yildan oldin 1 botmon (20kg) bug‘doyning narxi 50-60 tiyin bo‘lgan bo‘lsa, 1890-1898-yillarda 75-95 tiyinga ko‘tarilgan. Hatto 1891-yilda Xiva xonligiga boshqa hududdan 12 ming so‘mlik, 1894-yilda 50 ming so‘mlik bug‘doy sotib olinadi (*V.Girshfeld, M.Galkin “Военно-статистическое описание Хивинского оазиса. Ташкент. 1913 г, стр.158*).

Oradan yillar o‘tib, mustamlakachilik to‘nini qizil rangga o‘zgartirgan sovetlarning kollektivlashtirish siyosatidan so‘ng, paxta maydonlari ko‘paytirilgan bo‘lsa-da, hosildorlik kamayib boravergan. “1909-1914-yillarda AQShda bir gektar paxta maydonidan o‘rtacha 204 kg, Misrda 448, Farg‘ona vodiysida 354 kg, umuman Turkiston bo‘yicha 357 kg tola olingan bo‘lsa, Xorazmda bu ko‘rsatkich 639-837 kgni tashkil qilgan. Oradan 20 yil o‘tib, Xorazmda tashkil etilgan kolxozlar esa paxta hosildorligidan kam natijaga erishgan. Xususan, 1933-yilda vohada 1915-yilga nisbatan paxta ekinlari maydoni 2,31 marta o‘sgani holda, paxta hosildorligi 20,8 sentnerdan 5,3 sentnerga tushib qoldi” (R.Shamsutdinov, U.Bekmuhammad, yuqoridagi kitob, 33-bet).

Hattoki 1935-yildan boshlab Xorazm paxtachiligida mineral o‘g‘itlar qo‘llanila boshlagani ham samara bermadi. Mineral o‘g‘itlar qo‘llanilishi natijasida katta ekologik holat yuz berib, inson va tabiatga ko‘p zarar yetkazildi.



Vaholanki, 1935-yildan 80-60 yil oldin vohaga kelgan ajnabiylar hatto Amudaryo suvining shifobaxshligidan hayratga tushishgan. Chunonchi, 1891-yili xonlikka kelgan G.Danilevskiy o'z asarida (*Г.Данилевский, "Описание Хивинского ханства" Записки РГО, кн 5, 1891 г, стр. 43*) "Xiva xonligida iqlim sog'lom hayot tarziga javob beradi, aholi o'rtasida kasalliklardan o'lish kam. Xonlikda epidemik kasalliklar uchramaydi. Amudaryo suvi ko'rinishidan loyqali bo'lsa-da, tinitilganidan keyin ichishga juda yaroqli " deya, 1861-yili Xorazmga kelgan V.Grigorev esa "Amudaryoning quyi qismida iqlim kishi sog'ligi uchun juda qulay" deb baho bergan. Mashhur venger sayyoh olimi Xerman Vamberi 1863-yili xonlikka kelib, "Amudaryo suvidek mazali suvni dunyoning hech bir go'shasidan topolmaysiz" deya "O'rta Osiyo ocherklari" kitobida hayratlanib yozgandi.

Vaqt o'tib esa, kollektivlashtirilgan vohada mineral o'g'itlar qo'llanilib, kimyolashtirish siyosati olib borilishi natijasida Amudaryo suvi ifloslandi. Hatto 1940-yilgacha vohada kollektor drenaj tizimi bo'lmay, yerlarga daryo, yop( anhor) dan suv chiqirlar yordamida keltirilgan. Bunday hayot talabi, xalq tajribasidan kelib chiqqan sug'orish tizimiga ko'ra, chiqir suvni ikki metrgacha balandlikka ko'tarib, bir soatda 265 marta aylanar va bu jarayonda 20 ming litr suv yetkazib bergan. Tomorqa (Xorazmda "ko'lcha" deb atalgan) suvga to'lgan zahoti dalaga suv berish to'xtatilardi.

Chiqir bilan olinayotgan suv sathi dala yuzasidan 2 metrcha past bo'lgani uchun ham yer osti suvlari sathiy ham ancha past bo'lib, yerlarning sho'rlanishining oldi olingan. Zamonaviy ko'ringan drenaj kollektor tizimi o'rnatilgan 1940-yildan keyin esa kolxoz yerini sug'orish uchun zarur bo'lgan, ming mashaqqat evaziga daryodan olinayotgan suvning bir qismi isrof bo'lgan.

Vaholanki, "1930-yilda quloqlardan 404 chiqir, 1040 ta o'roq, ketmon, bel tortib olingandi". (Q.Beregina "Xorazm okrugida mehnatsiz xo'jaliklarni tugatish yakunlari", T, 1930-yil, 44-bet).

Tortib olingan bu chiqirlardan 1940-yilgacha kolxozlarda foydalanilgan, ammo egasizlik natijasida ularning bir qismi ishga yaroqsiz bo'lib qolgan. Bundan tashqari, kollektivlashtirish, quloqlashtirish va kolxozlardan yot unsur izlash, tozalash tadbirlari o'tkazilayotgan bir paytda aholining bolalarini sovet maktablari, texnikumlarga yubormaslik holatlari ham paydo bo'ladi.

"Birgina 1931-32-o'quv yilida ta'tilga ketgan talaba-o'quvchilarning o'qishga kelmay qo'yishlik holatlari quyidagi ta'lim maskanlarida ko'p ekanligi qayd etiladi: Xiva pedagogika texnikumidan 31, paxtachilik texnikumidan 15, Urganchdagi Rabfakdan 9, partiya maktabidan 91, Xotin-qizlar pedagogika

texnikumidan 23 nafar talabalar o‘qishning navbatdagi bosqichiga kelmay, tahsilni tashlab ketgan”. (Xorazm viloyat davlat arxivi, f 2, 54-delo, 153-bet).

Bunday vaziyat vujudga kelishining uchta asosiy sababi bor edi:

1.Sovet ta’lim-tarbiyasiga ishonchsizlikning ortishi.

2.Joylarda yot unsur va quloqlashtirishning boshlanganidan ularning farzandlarining, qarindoshlarining tahsilga bormay qo‘yganliklari.

3.Sun’iy ravishda uyushtirilgan ocharchilikning boshlanishidan xalq ommasining boshqa hududlarga ko‘chib keta boshlashi.

Chunki, asosan o‘sha davrda paxta ko‘p ekilib, bug‘doy, sholi kabi aholi uchun zarur ekinlarni ekish majburiy ravishda kamaytirib yuboriladi.Xususan, 1933-yilda ekilgan ekinlar bo‘yicha Gurlan tumanidan misol keltirsak.

“1933-yilda Gurlan tumani bo‘yicha “Amerika” paxta navi 6977 gektarga, bug‘doy 160 gektarga, kartoshka 31, sabzavot 84, poliz 334 gektarga ekiladi”. (Xorazm viloyat davlat arxivi, f 3, 7-delo, 14-bet).

Kolxozlarga majburiy ravishda bunday ekin ektirish natijasida 1934-yilda ocharchilik paydo bo‘la boshladi. Xalq o‘rtasida esa o‘sha davrda hatto shunday qo‘shiqalar ham to‘qiladiki, bu shu paytdagi ahvolni ko‘z oldingizda gavdalantiradi:

" Qozonda pishar kurtik,  
Bilmay kolxozga kirdik,  
Azon yorma, kech yorma,  
Kolxozchilik borma.  
Pishirar go‘shtsiz sho‘rva,  
Ilindi bo‘yniga to‘rva."

1934- 1935-yillarda poliz, sabzavot ekinlari o‘rniga ko‘p ekilgan paxta ham terilmasdan, reja bajarilmay qoladi.

“1934-yil paxta rejasini okrugda 70,6 foiz, 1935-yil 63, 27 foizga bajariladi”. (Yuqoridagi arxiv, f 19, 2-d, 19-bet).

Natijada paxta rejasini bajarolmay kelayotgan kolxozlar davlatdan qarzdor bo‘lib qolishadi.Masalan, “Xiva rayonidagi kolxozlardan 50 tasi 4-5 yildan buyon davlatdan 617 296 so‘m qarzi bor” edi deya yozgandi “Inqilob quyoshi" gazetasi 1935-yil 28-fevral sonida.

Bundan tashqari, paxta rejasining bajarilmay qolishiga sabab, kolxozchilarda egalik huquqining yo‘qolishi, ularning kolxozdagi ishga qoniqmay, boshqa daromadliroq ishlar bilan mashg‘ul bo‘lish holatlari uchrab turardi. Masalan, “1930-yil 7-iyulda Xiva agronomiya markazi mudiri Myasnikov okrug yer bo‘limiga telegramma yuborib, rayonda bog‘larda mevalarni terish, yerlarni sug‘orish kechikayotganini, "Qizil Sharq" kolxozidagi traktorchilar ishni

tashlab ketgani, kolxoz inqirozga yuz tutganini yozib, yordam so‘ragan”. (Xorazm viloyat davlat arxivi F 2, d 4, 34-bet).

Shuningdek, 1934-yili Hazoraspda shunga o‘xshash holat kuchayib ketadi. Chunki, ushbu rayon daryo bo‘yida joylashganligi sabab, oldinlari ko‘pchilik kishilar qayiqchilikni kasb qilib olgan bo‘lib, daryoning bu sohilidan u sohiliga, yoki aksincha qilib kishilarni, yuklarni o‘tkazishgan va shundan daromad topishgan. Kolxozga kirishgach esa bu ishlar to‘xtab qolgan va mehnatlari qadrlanmasligi, egalik huquqi yo‘qligi tufayli, ishga bormay qayiqchilik kasbiga qaytishgan.

Arxiv hujjatlariga ko‘ra, “1934-yili Hazorasp tumanining 1-may kolxozidagi 347 kolxozchidan 60 tasi, “Qizil qo‘shin”dagi 144 kishidan 133 tasi, “Fabrika” kolxozidagi 213 kolxozchidan 46 nafari, ”Sotsializm”dagi 328 kolxozchidan 63 nafari qayiqchilikka ketgan. Rayon bo‘yicha qayiqchilikka ketgan erkaklar soni 2 203 kishini tashkil qiladi”.( Yuqoridagi arxiv. F 2, d 4, 34-bet).

Hazoraspdagi egasizlik kabi holat boshqa tumanlardagi kolxozlarda ish asboblari munosabatda ham uchrab turardi. Masalan, “1935-yil 15-martgacha Xivadagi ko‘pgina qishloq xo‘jalik asboblari ta‘mirdan chiqarilmagan, ba‘zilari ishga yaramaydi.”Qizil sharq”, “84-polk”, “Sanoat” kolxozlaridagi 24 plugdan 19 tasi ishga yaramaydi.”Qizil bayroq” kolxozida 2 ta, “Ozod” kolxozida 4 ta, “G‘ayrat” kolxozida 3 ta plug 16-martgacha ishda foydalanilmagan.”Qizil militsiya” kolxozida 4 ta plug ham ishga yaramaydi.Yerni surishda “G‘ayrat” kolxozi 129 gektar paxtadan 31 gektarni zo‘rg‘a uddalagan.”Ozod” kolxozi esa 131 gektardan 35 gektar yerni surgan,xolos. Xivadagi ba‘zi kolxozlarda shu tarzda 10 kunlab ish to‘xtab qolgan” (“Inqilob quyoshi” gazetasi, 1935-yil, 23-mart).

Ba‘zi kolxozlarda esa kolxoz mulkini talon-taroj etish, pullarni o‘zlashtirish ham uchrab turardi. “1935, 1936, 1937-yillar davomida “84 polk” kolxozi kassiri Masharip Qurbonov, hisobchi Masharip Otajonov va rais Vafo Matmurotovlar birgalikda uch yil ichida 17466 so‘m pulni o‘zlashtirishgan”. (“Kommuna”, Xiva tumani gazetasi, 1938-yil, 23-iyul).

Shu tariqa, “besh yillik” dasturlar, chaqiriq va qurultoy, partiya qarorlari (masalan, “1939-yil iyul oyida O‘ZKP (b) MK “G‘o‘za parvarishini yaxshilash, uning gul shonalarini mumkin qadar ko‘proq saqlab qolish hamda ko‘saklarni normal to‘ldirish tadbirlari to‘g‘risida” qaror (“Inqilob quyoshi” gazetasi, 1938-yil,10-iyul) qabul qilgandi, turli xil sotsialistik musobaqa uyushtirish, son-sanoqsiz shu ishlarga doir ko‘rsatma, chora-tadbir, komissiyalar tashkil etilishiga qaramay, hatto mineral o‘g‘itlar ko‘p miqdorda solinsa-da, kolxozchilarda

mulkka munosabat yo‘qolib, talon-tarojlik, egasizlik, ishga bormaslik singari holatlar ko‘paydi va bu paxta hosilining kamayib boraverishiga sabab bo‘lgan. Bunga kolxozchi deb atalgan dehqonga majburiy buyruq berib, ammo xizmatiga yarasha haq to‘lamaslik, egasizlik, dehqonchilik madaniyati unut bo‘layotgani sabab bo‘lgan.

Bu holat tuproq tarkibi ishdan chiqayotgani, sifatsiz mahsulotlar yetishtirilayotgani, kimyolashtirish aholi sog‘lig‘iga, bu esa ish unumdorligiga salbiy ta‘sir o‘tkazayotganini ko‘rsatardi. Vaholanki, azaldan, hatto kollektivlashtirish jarayoni avj olgan 1928-30-yillargacha vohada ovqatdagi oziq moddalari organizm o‘z vazifasini bajarishi uchun yetarli bo‘lmog‘i, ovqatlanish kishi sog‘lig‘iga, tabiat muvozanatiga, hayot asoslariga zarar yetkazmasligi kerak, deb qaralgan.

Negaki, tuproqni ko‘p martalab yumshatish, dalalarga aravada mahalliy o‘g‘it chiqarish, ariq-kanallarni loyqadan tozalash, ekinni parvarishlash, chorva, ish hayvonini boqish, qishga yoqishga o‘tin bog‘lash uchun katta jismoniy quvvat kerak edi. Ayni paytda kaloriyali ovqat iste‘mol etish zarur deb hisoblanardi. Kaloriyali taom esa xorazmlilar uchun oq jo‘xoridan tayyorlanadigan zog‘ora non, boshqa turli ovqatlar sevimli taom hisoblangan. Shu bois jo‘xori hatto bug‘doy hosildorligidan ancha yuqori bo‘lgan.



“V.Lobachevskiy 1909 yilda keltirgan ma‘lumotlarga ko‘ra, “xonlikning jami ekin maydonlari 226983 desyatinani tashkil etib, shundan 31884 desyatinaga (ya‘ni jami yerlarning 14,3 foiziga) jo‘xori ekilgan”. (R.Shamsutdinov, U.Bekmuhammad, yuqoridagi kitob, 35-bet).

1928-yilga kelib esa, Xorazmda ekinzorlarning 19,1 foizini paxta, 17,6 foizini oq jo‘xori tashkil qilgan. Ya’ni, paxta ko‘p ekilib, jo‘xorizorlar kamayib borgan. “1938-yilda esa Xorazm okrugining Gurlan rayonida “Amerika” paxta navi 6977 gektarga ekilgan holda, 746 gektarga jo‘xori, 160 gektarga bug‘doy, 105,1 gektarga arpa, 65,90 gektarga tariq, 313 gektarga kartoshka, 5,1 gektarga kunjut, 84,2 gektarga sabzavot, 334 gektarga poliz ekinlari ekilgan”. (Xorazm viloyat davlat arxivi, f 2, d 49, 1-bet).

Shu tariqa sovet hukumati paxtaga bo‘lgan talabni kuchaytirib, turli usullarni qo‘llagan holda dehqonchilikka tadbiiq etdi. Chunonchi, 1929-yildayoq bunday chora-tadbirlar ko‘rib boshlangan, 40 kg bug‘doy 16 kg paxtaga teng deb qabul etilgan baho belgilangandi.

Lekin ana shu baho belgilanishigacha, 1917-yildan so‘nggi davrda oziq-ovqat mahsulotlari va paxta yetishtirish uchun talab etiladigan resurslar uzluksiz qimmatlashayotgani holda, paxtaning xarid narxini o‘zgartirmasdan saqlab turish, bir kg paxta bahosini bir kg bug‘doy bahosiga tenglashtirish, paxtaga davlat monopoliyasini joriy qilish va yana ozgina vaqt o‘tmay bekor etish, yana qaytadan joriy qilish singari tadbirlar ko‘rildi.

Ya’ni, paxtani ko‘paytirishning birdan-bir yo‘li tovar ishlab chiqaruvchining undan bevosita manfaatdorligini ta’minlash deb qaraldi. Bu borada VKP (b) MK 1930-yil 2-aprelda “Kolxozlarga yengilliklar berish to‘g‘risida» qaror chiqarib, unda kolxozga bepul va abadiy foydalanish uchun davlat tomonidan berilgan umumiy ekin maydonining 75 foizdan ortiq qismidagi paxta maydonlaridan olinadigan daromad solig‘i bekor qilindi. Kolxozlarning paxta yetishtirish tufayli oladigan daromadidan olinadigan soliq ikki barobar kamaytirildi. Normadan tashqari ekilgan har gektar paxta hisobiga beriladigan avans hajmi ikki barobar oshirildi. 1931-yilda esa kolxozlarda bir ish kuniga 1,26 rubl va 2,5 kg bug‘doy berilgan bo‘lsa, 1933-yilga kelib esa 3,5 rubl va 4 kg bug‘doy beriladigan bo‘ldi.

Shu tariqa faqat paxtaga yuqori haq to‘lanib, monokultura joriy etila boshlangan. Bundan tashqari, rejadan ko‘p topshirilgan paxtaning har sentneri uchun asosiy ish haqiga nisbatan 15-20 foiz miqdorida qo‘shimcha haq to‘ladigan bo‘ldi. 1939-yilga kelib, rejadagi hosildorlikdan har sentner paxta xom-ashyosi uchun zveno va brigadalarga qo‘shimcha 10 ish kuni hisoblanadigan bo‘ldi.

Shu tarzda sovet davlati yildan-yilga paxta ekishga e’tibor qaratib, aholini rag‘batlantirish, uni paxta chopig‘idan tortib, terishgacha majburiy jalb etgan holda, paxta yakkahokimligini o‘rnatdi. Shu boisdan ham 1935-yildan boshlab chet eldan paxta tolasi sotib olishga barham berildi.

Mavzudan kelib chiqib va yuqoridagi tarixiy fakt va fikrlardan shunday xulosalar chiqarish mumkin:

1. Chor mustamlakachiligi davridagi xonlik va sovetlar itoati ostidagi kolxozlashtirish paytidagi iqtisodiy jarayonni taqqoslash shuni ko'rsatadiki, mustamlakachilik siyosati oq va qizil imperiya tarzida davom etsa-da, asosiy diqqat-e'tibor Rossiya sanoati uchun kerakli bo'lgan paxtaga qaratilgan va turli choralar ko'rish orqali maqsadga yetilgan—paxta monokulturasi o'rnatilgan.

2. Aynan kollektivlashtirishdan maqsad ham xalqni yana tubanlashtirib, itoat sirtmog'ini qattiq tortish orqali faqat paxta ekishga harakat etilgan. Bularning bari tabiatga, kishilik hayotining asoslariga zarar yetkazdi. Orol qurib, daryolar suvi, sug'oriladigan yerlar zaharlanib, tuproq, bundan tashqari paxta siyosati oqibatida qishloq aholisining sog'ligi izdan chiqishga sabab bo'ldi.

3. Tadqiq etilayotgan davrda ijtimoiy-iqtisodiy hayotda fuqarolarning faolligi, inson omili o'zini namoyon qilishi uchun sharoitning yo'qolishiga, asrlar davomida tajribadan o'tib kelgan xususiy mulkning, raqobatning yo'qolib, iqtisodiyot jahon taraqqiyotidan uzilib qolishiga sababchi bo'ldi.

4. Sovetlarning zo'rlik bilan o'tkazilgan kollektivlashtirish siyosati Xorazm qishloqlaridagi tarixiy rivojlanishning sog'lom jarayonlariga to'sqinlik qildi. Kolxozlarga majburiy kiritilgan dehqonlar barcha asosiy fuqarolik huquqlaridan va, eng avvalo, boshqa joyga o'z ixtiyori bilan ko'chish, kasb faoliyatini tanlash huquqlaridan mahrum qilindilar.

5. Kollektivlashtirish natijasida majburan tashkil etilgan kolxoz tizimi yerdan foydalanishning yaroqsiz shakli bo'lib, oxir-oqibatda agrar sohadagi ishlab chiqarishni tanazzulga olib keldi. Sovet davlatining qishloqdagi azaliy an'anaviy xo'jalik aloqalari tizimiga yoppasiga aralashuvi, qishloq xo'jaligi uchun mutlaqo zararli bo'lgan sotsialistik munosabatlarning majburan tiqishtirilishi, mustaqil rivojlanishning ichki imkoniyatlarini barbod qilib, qishloq mehnatkashlari ongining tubanlashuviga, kolxozchi deb atalgan dehqonlarning yerga va ishlab chiqarishga egalik tuyg'usini, asrlardan buyon davom etib kelgan mehnatsevarlik fazilatlarining yo'qolib borishiga, ulardagi mehnatga, kasb mahoratiga bo'lgan mehr-muhabbatning sovib ketishiga, rasmiyatchilik va ko'zbo'yamachilikning kelib chiqishiga sababchi bo'ldi.

**TARIX****TURAR-JOYLAR HAMDA ULARNING QURILISHI BILAN BOG‘LIQ  
URF-ODAT VA MAROSIMLAR****Dilrabo  
BABAJANOVA****Mustaqil tadqiqotchi****UO‘K 570.511**

**Annotatsiya:** Maqola Xorazm vohasida asrlar davomida xalq tomonidan shakllantirilgan uy-joy qurilishi bilan bog‘liq urf-odat va an‘analar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning yoritilishga bag‘ishlangan.

**Аннотация:** Статья посвящена освещению многовековых традиций и обычаев, связанных с жилищным строительством в Хорезмском оазисе.

**Annotation:** The article is devoted to the information about traditions and customs associated with the creation of a home, which was formed during the years in Khorezm.

**Kalit so‘zlar:** Uy-joy, imorat, xalq, qurilish, urf-odat, an‘ana, marosim, irim, e‘tiqod, hashar, dala yozuvlari.

**Ключевые слова:** Жилье, здание, народ, строительство, обычаи, обряды, традиция, церемония, суеверие, религия, хашар, полевые заметки.

**Key words:** House, building, people, customs, traditions, ceremonies, rituals, beliefs, field notes.

Xorazm vohasida uy-joy qurilishi bilan bog‘liq urf-odat va an‘analar bir necha yuz yillar mobaynida shakllangan va bu jarayon natijasida insonlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarzi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos maxsus marosimlar paydo bo‘lgan. Ushbu marosimlar inson hayoti davomiyligini ta‘minlash, odamlarni turli balo-qazolardan asrash, ilohiy kuchlar va ularning turli ta‘sirlaridan himoyalalanish, oilada tinchlik-xotirjamlikni ta‘minlash va hokazolarga qaratilgan.

Marosimlar va urf-odatlar shu qadar turli-tumanki, uning ildizlari ba‘zan aholining etnik tarkibi, iqtisodiy ahvoli, xo‘jalik faoliyati, diniy tushunchasi va dunyoqarashiga borib taqaladi. Bunday marosimlar va irimlar inshoatga poydevor qo‘yishdan boshlab, to nurab buzilgunga qadar o‘tkazilib turiladi. Uy muqaddas hisoblanib, shu jihatdan qariyalar, “har bir kishi hayoti mobaynida bitta uy qurishi shart” deydilar [1]. Shuningdek, ular uyni sotmaslikni, sotish esa baxtsizlik keltirishni ham ta‘kidlaydilar.

Uy qurilishi uchun dastlabki o‘tkaziladigan marosim “qoziq qoqdi” marosimidir. Bu marosim “joy o‘rni” belgilangan so‘ng o‘tkaziladi. Uy uchun belgilangan maydonning to‘rt tomoniga to‘rtta qoziq qoqiladi. Bu ishni hisob-kitobdan xabardor kishilar maydon burchaklarining to‘g‘riligini hisobga olgan holda bajarganlar. Bu marosim o‘tkazilgandan so‘ng belgilangan maydon daxlsiz hisoblangan va uy egasi istalgan vaqtda, ya‘ni ketadigan materiallar va sarf-xarajatlar tayyor bo‘lganda yoki yangi uy qurish zarurati tug‘ilganda, mahalla oqsoqollari va katxudolarini chaqirib qurilish boshlash uchun maslahat qilganlar. Maslahat so‘ngida oq fotiha berganlar, ularga esa uy egasi tomonidan oq matoga tugib ikkita non berilgan. Shu kuni uy qurilishini nazorat qiladigan bosh usta tayinlangan. Tayinlangan usta o‘z ustozidan fotiha olgan, ustoz esa fotihaga qo‘shib o‘zining “tarosh kapchasi”ni unga bergan bo‘lishi lozim bo‘lgan. Aks holda bu usta qurgan uyning devori egri chiqadi, deya irim qilishgan.

Bosh usta qurilish maydonida turib, ustalar piridan madad tilaydi va qurilishni boshlash uchun fotiha beradi. Shundan so‘ng qo‘y, xo‘roz yoki biror jonliq so‘yilib, inshootning asosi qurila boshlanadi. Uyning asosi qurilayotganda inshootning asosiy kirish ostonasiga (bo‘sag‘asiga) o‘sha oilaning xo‘jalik faoliyati yoki nasl-nasabiga qarab biror buyum qo‘yiladi. Masalan, savdo bilan shug‘ullanuvchilar chaqa, tanga, dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchilar don, hunarmandchilik bilan shug‘ullanuvchilar temir parchasi, o‘troq chorvador aholi bo‘lsa mol tuyog‘i yoki shoxini qo‘yishgan. Bu o‘sha oilaning baxtli va badavlat yashashi uchun irim tariqasida qilingan. Bir tomondan esa bu holat uyning shu kasb orqali topilgan daromadlar evaziga qurilayotganligidan ham dalolat beradi[2;60].

Xorazm aholisining diniy qarashlariga ko‘ra, uy-joy qurilishining juma kuni boshlanishiga alohida e‘tibor qaratilgan. Qo‘shko‘pirlik axborotchi Nurmetov Husinboyning ma‘lumotlariga qaraganda, Ibrohim Halilulloh tomonidan Makkai Madinaning qurilishi juma kuni boshlaganligi sababli uy-joy qurilishini juma kuni boshlash irimi saqlanib qolgan[3]. Ota-bobolarimiz loy (paxsa)dan qurilgan uylarni birinchi paxsasini enli (70-80 sm) qilib boshlab, yuqoriga qarab



qisqartirib, 3-4 paxsalarda 40-50 sm qilib qisqartirganlar. Bu uyning mustahkam bo‘lib, zilzilaga bardoshli bo‘lishini ta‘minlagan.

Uy bitgandan keyin, shu uy uchun xizmat qilgan barcha ustalar chaqiriladi va sarp qo‘yib “potiya” (fotiha)si olinadi. Fotiha berilganda “shu joylarni ichida o‘g‘il uylantirib, qiz chiqarib, yeyilib-yozilib, o‘ynab-kulib o‘tirgaysan, uying mudomo to‘yxona bo‘lsin” deb, har biri “qilgan xizmatim uchun roziman” deb sarp olgach, fotiha beradi. Keyin mahalla-ko‘y va qarindosh-urug‘lar chaqirilib, yangi qurilgan imoratda “Joy to‘yi” beriladi. Bu marosimdan asosiy maqsad, “shu yerda men imorat qurdim”, “bundan keyin men shu yerda yashayman” deb, ya‘ni shu yerda istiqomat qilishini va yangi uyga ko‘chib o‘tganligini bildirib qo‘yishdan iboratdir. Keyinchalik mahallaga kimdir “falonchini uyi qaerda deb so‘rab kelgan taqdirda, falon joyda, joy to‘yi berganda borgandim” deb javob berilgan.

Yangi xonadonga ko‘chib o‘tish uchun qo‘ni-qo‘shni, qarindosh-urug‘larni yig‘ib, qon chiqarilib, oq fotiha olish odati hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Xorazmda ham uyga birinchi bo‘lib uy bekasi o‘z onasi bilan kirgan. Ertasi kuni, yangi uyga ko‘chib o‘tish to‘yi - “joy to‘y”i berilgan. Yangi uyga ko‘chib o‘tish bilan bog‘liq odat ko‘p joyda ayol tomonidan bajarilgan. Ayol qadimdan nasldorlik ramzi sifatida gavdalanib kelgan[4;18].

Xorazmning janubiy tumanlarida qadim zamonlarda yangi imoratga kirish eshigi bo‘zag‘asi ostiga yoki ostonaga to‘shalgan qamish yohud bo‘yra ostiga ikki-uch dona kumush tanga yoki bir necha dona qand, yoki biroz tuz tashlab qo‘yilgan. Shunday odat o‘rta asr boshlarida So‘g‘dda ham bo‘lganligiga arxeologik ma‘lumotlar guvohlik beradi. Afrosiyobda kompozitsiya jihatidan birlashib ketgan, VII asrga va VIII asr boshlariga oid ikkita uying asosiy qismi kirish eshigi bo‘zag‘asi ostidan bittadan tanga topilgan. Xonadon a‘zolari bu tadbirni oilaga baxt-saodat, badavlatlik, farovonlik, xotirjamlik bag‘ishlashiga ishonishgan. Shirinlik, tuz, tangalarning uyga kirish eshigi ostiga qo‘yilishi ostonaning o‘ziga xos ramziy tushunchaga ega bo‘lishidan dalolat beradi. U ikki dunyoning chegarasi hisoblangan.

Shuning uchun xonaga kiradigan yomon kuchlarni eshik ostonasi bilan bog‘liq ramziy odatlar orqali qaytarish imkoni borligiga ishonishgan[5;160].



Xorazm urf-odatlarida ichida muhim o‘rin tutadigan kishilarni g‘ayritabiiy kuchlardan saqlashga yo‘naltirilgan yana bir udum borki, u “ko‘z tegish” deb nomlanadi. “Ko‘zi qattiq” odamlar borligiga qattiq ishonishgan va uning oldini olish maqsadida uylarda bir qancha vositalardan, ya‘ni g‘ayritabiiy kuchga ega deb qaralgan hayvonlar, qushlar va o‘simliklardan foydalanishgan. Xorazmliklarning tasavvurlarida qo‘chqor “yomon ko‘zdan” saqlovchi jonivor hisoblangan. Qo‘chqor shoxi tinchlik, birdamlik ramzini ifodalagan. Qo‘chqorlarni hovli, bog‘, uzumzorlar soyasida daraxtga bog‘lab boqish shu odatdan kelib chiqqan. Yomon ko‘z qo‘chqorning shoxlariga tushib, o‘z kuchini yo‘qotadi deb qaralgan.

Shuningdek, vohadagi barcha marosimlarda qo‘chqor yoki qo‘y so‘yib marosim o‘tkazganlar va so‘yilgan qo‘chqorning shoxini ko‘z tegmasin deb uylarning darvozasi ustiga ilib qo‘yganlar. Chunki qo‘chqor shoxi unga birinchi ko‘zi tushgan odamning nazarini, balo va ofatni qaytaradi deb ishonishgan. “Nazarli”, “ko‘zi qattiq odamlar”ning ko‘zini qaytarish uchun uyning darvozasi ustiga qo‘chqor shoxi bilan

birga qizil qalampir (bir dasta) va tuz osib qo'yilgan. Ushbu achchiq narsalar "yomon nazarni kesadi" degan qarashlar mavjud bo'lgan. Shuningdek, bunday ramzlarning darvoza ustiga yoki dastlabki nazar tushadigan joylarga ilinishining asosiy sababi, uyga kiraverishda bu ramzlar yovuz kuchlarni ushlab qoladi, deb o'ylash natijasidir. Hozirgi kunga kelib zamonamiz shiddat bilan o'zgarishi va milliy urf-odatlardagi transformatsion jarayonlar natijasida shu va shunga o'xshash marosim va urf-odatlar yo'qolib bormoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Xorazm vohasi aholisi ijtimoiy hayotidan o'rin olgan uy-joy qurilishi bilan bog'liq marosimlar xilma-xil bo'lib, u xalqimizning asrlar davomida amal qilib kelgan udumlari va urf-odatlari bilan chambarchas bog'lanib ketganligini ko'ramiz. Ushbu an'anaviy marosimlar voha aholisining bir necha ming yillik tarixi davomidagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy qiyofasini, boy madaniy merosini, turmush tarzini, diniy e'tiqodlarini namoyon etganligi bilan ham ahamiyatlidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Dala yozuvlari. Xorazm viloyati Xiva shahri Yangi hayot mahallasi.2020-y.
2. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. 3/2017-y.
3. Dala yozuvlari. Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani, Obod j/x, Xosiyon mahallasi. 2020-yil.
4. Nozilov D. Markaziy Osiyo me'morchiligida interyer. Toshkent: "Fan", 2005-y.
5. Qurbonova D.Sh. Xorazm vohasining qadimgi va ilk o'rta asrlar ma'naviy madaniyati. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2015-y.

**TARIX****O‘ZBEKISTON SSRDA YARATILGAN IJTIMOY TA’MINOT TIZIMI  
VA UNING HUQUQIY ASOSLARI XUSUSIDA****UO‘K 902.2(575.171)**

**Ollabergan  
ALLABERGANOV**

**Ma‘mun universiteti  
Tarix kafedrası  
o‘qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Sovet davrida O‘zbekistonda aholiga ko‘rsatilgan ijtimoiy xizmatlar holati bayon qilinadi. Shuningdek, o‘rganilayotgan davrda sobiq SSSR hududida qabul qilingan qonunlar va me‘yoriy hujjatlarning mohiyati, ijtimoiy ta‘minot tizimidagi o‘zgarishlar, yutuq va kamchiliklar qisqacha tahlil qilinadi.

**Аннотация:** В данной статье излагается состояние социальных услуг, предоставляемые населению в Узбекистане в советское время. Также, кратко анализируется сущность законов и подзаконных актов, принятых на территории бывшего СССР в исследуемый период, изменения, достижения и недостатки системы социального обеспечения.

**Annotation:** This article presents the author’s opinion on the state of social services provided to the population in Uzbekistan during Soviet times. It also briefly analyzes the essence of laws and regulations adopted in the territory of the former USSR during the period under study, changes, achievements and shortcomings of the social security system.

**Kalit so‘zlar:** sotsializm, SSSR Oliy Soveti Prezidiumi, O‘zbekiston SSR, fuqaro, ijtimoiy ta‘minot, pensiya jamg‘armasi, ijtimoiy nafaqa, ijtimoiy himoya, SSSR Konstitutsiyasi, kolhoz, “Qahramon ona”, bolalar bog‘chasi.

**Ключевые слова:** Социализм, Президиум Верховного Совета СССР, Узбекская ССР, гражданин, социальное обеспечение, пенсионный фонд, социальное пособие, социальная защита, Конституция СССР, колхоз, “Мать героиня”, детский сад.

**Key words:** Socialism, Presidium of the Supreme Soviet of the USSR, Uzbek SSR, citizen, social security, pension fund, social benefits, social protection, Constitution of the USSR, collective farm, “Mother Heroine”, kindergarten.

Bizga ma‘lumki, Sovetlar davrida O‘zbekistonda yuritilgan ijtimoiy ta‘minot tizimi XX asrning 20-yillaridan boshlab shakllana boshlagan bo‘lib, mazkur tizim aholining farovonligini ta‘minlashga qaratilgan edi. Ijtimoiy ta‘minotni amalga oshirish mexanizmida ta‘lim, sog‘liqni saqlash, aholining

mehnatga layoqatini tiklash, uning ijtimoiy himoyaga muhtoj qismiga yordam ko'rsatish, ijtimoiy sug'urta kabi bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan edi.

Bugungi kunda Sovet O'zbekistonida 1945-1991-yillar mobaynida aholiga ko'rsatilgan ijtimoiy ta'minot xizmatiga xolisona baho berish va uni keng xalq ommasiga yetkazish masalasi respublikamiz tarixchi olimlari oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Istiqloq sharofati bilan biz yaqin o'tmishimizda, xususan, o'tgan asrning 20-30-yillarida O'zbekistonda ijtimoiy ta'minot organlarining shakllanishi, rivojlanishi va uning huquqiy asoslarining yaratilishi, keksalar, nogironlar va ijtimoiy ko'makka muhtoj fuqarolarni ijtimoiy va moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan ishlarni tadqiq etish imkoniyatiga ega bo'ldik.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston SSRdagi ijtimoiy ta'minot tizimi va uning amalga oshirilish mexanizmi o'zining ko'pdan-ko'p normativ-huquqiy asoslariga ega bo'lgan. Biz ushbu maqolamizda bir qancha ilmiy manbalar asosida o'rganilayotgan davrda sobiq SSSR hududida qabul qilingan qonunlar va me'yoriy hujjatlarning mohiyati, O'zbekistonda ijtimoiy ta'minot tizimida kechgan o'zgarishlar, yutuq va kamchiliklarni tahlil qilishga urindik.

O'zbekiston SSRning 1945-1991- yillardagi ijtimoiy ta'minot tizimining huquqiy asoslari bugungi kungacha alohida mavzu sifatida juda kam o'rganilgan mavzulardan biri hisoblanadi. Sovet davrida faoliyat yuritgan huquq sohasi mutaxassislari hisoblangan V.S. Andreyev[1], V.A. Acharkan[2], M.S. Lantsev[3] va boshqalarning tadqiqotlarida SSSRda amalga oshirilgan ijtimoiy ta'minot siyosatining huquqiy jihatlarigagina e'tibor qaratilgan. Shu bilan birgalikda mazkur tadqiqotchilar ijtimoiy ta'minotga tegishli fondlar mablag'ini shakllantirish va ulardan foydalanishning iqtisodiy masalalari bo'yicha ham tadqiqot ishlari bilan shug'ullanganlar. Bu kabi izlanishlar Sovet davlati ijtimoiy ta'minotining huquqiy jihatlariga bag'ishlangan bo'lib, ularda O'zbekistondagi ijtimoiy ta'minot tizimi va uning huquqiy asoslari izchil yoritib berilmagan.

Mustaqillik yillarida yaratilgan asarlarda va tadqiqotlarda, jumladan, D. Bobojanovanning "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (70-80-yillar misolida)" nomli kitobida XX asrning 70-80-yillarida O'zbekistondagi mavjud muammolar, ularning kelib chiqish sabablari va bartaraf etish yo'llari, ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish, paxta yakkahokimligi va uning oqibatlari hamda xalqimizning kundalik turmush tarzidagi ijtimoiy muammolar masalalari yoritib berilgan [4]. D.Yusupov, A.Usmonovlarning "Farg'ona viloyatida ijtimoiy ta'minot masalalari (1946-1991-yillar)" nomli monografiyasida esa Sovet davri normativ-huquqiy hujjatlari, davlat rahbarlarining ma'ruzalari va nutqlari, jumladan, 1956-yil va 1964-yillardagi "Pensiya to'g'risida"gi qonunlarning kuchga kirishiga bag'ishlangan materiallar, davlat rahbarlari, jumladan, N.S.Xrushchev va N.A.Bulganinning pensiya masalalariga oid nutqlari, shuningdek, 1971-yil 3-iyunda O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi tomonidan "Ishchi va xizmatchilar uchun qarilik pensiyasi minimal razmerini

oshirish to'g'risida"gi va "Kolxozchilarning pensiya ta'minotini yaxshilash to'g'risida"gi farmonlarining qabul qilinishi va ularning mazmun-mohiyati xususida so'z yuritiladi [5].

O'zbekiston SSRda ijtimoiy ta'minot tizimi va uning huquqiy asoslariga oid mavjud manbalarni o'rganish, jumladan, mazkur maqolani asoslash jarayonida sinxron usul, qiyosiy-tarixiy usul, shuningdek, tarkibiy tahlil usullaridan [6] foydalanildi.

Avvalo, maqola mazmun-mohiyatini ochib berishda O'zbekiston SSRda ijtimoiy ta'minot tizimining huquqiy asoslarini aks ettiruvchi bir qancha qonun va qarorlar bizga manbaviy asos bo'lib xizmat qildi. O'rganilayotgan davrda O'zbekistonda amalda bo'lgan ijtimoiy ta'minotning huquqiy manbalariga 1936-yilgi SSSR Konstitutsiyasi (norasmiy nomlari: "Stalin Konstitutsiyasi", "G'alaba qozongan sotsializm Konstitutsiyasi")ni kiritish mumkin. Ushbu hujjat SSSRning asosiy qonuni bo'lib, u 1936-yil 5-dekabrda Sovetlarning VIII Butunittifoq favqulodda qurultoyi tomonidan qabul qilingan [12]. Sobiq SSSR Konstitutsiyasining 120-moddasida ijtimoiy ta'minot tizimi quyidagicha bayon qilingan: "SSSR fuqarolari qariganda, shuningdek kasallik va mehnat qobiliyatini yo'qotganda moddiy yordam olish huquqiga ega. Bu huquq ishchilar va xizmatchilarni davlat hisobidan ijtimoiy sug'urtalashni keng rivojlantirish, mehnatkashlarga bepul tibbiy xizmat ko'rsatish, ishchilar foydalanishi uchun keng kurortlar tarmog'ini tashkil etish bilan ta'minlanadi" [14]. Shuningdek, 1937-yilgi O'zbekiston SSR Konstitutsiyasining 119-120-121-moddalari ijtimoiy ta'minot tizimiga bag'ishlangan bo'lib, jumladan, uning 121-moddasida "...ona va bola manfaatlarini davlat tomonidan himoya qilish, ayollarga homiladorlik va bolalar parvarishi davrida ta'til berish, tug'ruqxonalar, bolalar bog'chalari va yaslilar bilan ta'minlanishi" ifodalangan [10]. Ushbu normativ hujjatlar bevosita O'zbekiston SSRdagi mavjud ijtimoiy ta'minot tizimining dastlabki huquqiy asoslari edi.

1978-yil 19-aprelda qabul qilingan O'zbekiston SSR Konstitutsiyasining 41-moddasi ijtimoiy ta'minot masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda: "O'zbekiston Respublikasi fuqarolari qariganda, kasal bo'lib qolganda, mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda, shuningdek boquvchisini yo'qotganda moddiy ta'minot olish huquqiga ega. Bu huquq ishchilar, xizmatchilar va kolxozchilarning ijtimoiy sug'urtasi, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari bilan kafolatlanadi; davlat va kolxozlar hisobidan yoshi, nogironligi va boquvchisini yo'qotganligi uchun pensiyalarni to'lash; mehnat qobiliyatini qisman yo'qotgan fuqarolarni ishga joylashtirish; keksa fuqarolar va nogironlarga g'amxo'rlik qilish; ijtimoiy ta'minotning boshqa shakllari kafolatlanadi", -deb ko'rsatilgan [11]. Darhaqiqat, yuqoridagi Konstitutsiyaviy qonunlar O'zbekiston SSRda ijtimoiy ta'minot tizimini alamga oshirishda bir qator qonunosti hujjatlariga asos bo'lib xizmat qilgan.

Butunittifoqda ijtimoiy ta'minot masalalariga oid yana bir huquqiy manba SSSR Oliy Soveti Prezidiumi tomonidan 1944-yil 8-iyulda qabul qilingan "Homilador ayollarga hamda ko'p bolali va bolali yolg'iz onalarga davlat nafaqasini kuchaytirish to'g'risida", "Qahramon ona" faxriy unvonini belgilash

va “Onalik shuhrati” ordeni hamda “Onalik medali”ni ta’ sis etish to’g’risida”gi farmonni aytib o’tish joiz [7]. Ushbu farmon asosida SSSRda ijtimoiy ta’minot sohasida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- davlat tomonidan onalarga va bolalarga beriladigan yordam puli ko’paytirildi. Ko’p bolali onalarga bir yo’la to’lanadigan yordam puli ikki bolasi bo’lib va undan so’ng har bola tug’ilganida, har oylik yordam puli esa uch bolasi bo’lib, to’rtinchi bola tug’ilganida va har bir navbatdagi bola tug’ilganida to’lanadigan bo’ldi;

- bolali yolg’iz onalarga yordam puli belgilandi;

- onalik va bolalikni muhofaza qilishga qaratilgan keng, aniq chora-tadbirlar ishlab chiqildi;

- homilador ayollarga va bolali yolg’iz onalarga mehnat imtiyozlari belgilandi;

- tarixda birinchi marta ko’p bola tug’ib, tarbiyalagan onalarga davlat mukofotlari - “Onalik medali”, “Onalik shuhrati” ordeni va “Qahramon ona” faxriy unvoni joriy qilindi [8].

Ta’kidlash kerakki, O’zbekiston SSRda amalga oshirilgan ijtimoiy ta’minot tizimida kechgan islohotlarda pensiya tizimi ham muhim o’rinni egallaydi. O’rganilayotgan davrda mamlakatda fuqarolarning pensiya ta’minotiga oid bir qator qonunlar qabul qilingan. Bunga misol tariqasida sobiq Ittifoqning 1956-yil 14-iyuldagi “SSSR fuqarolarini pensiya ta’minoti to’g’risida”gi 1480-1-sonli qonunini aytish mumkin. 61 moddadan iborat bo’lgan ushbu qonun 1956-yilning 1-oktabridan kuchga kirgan [13]. Shuningdek, 1964-yil 15-iyulda “Kolxoz a’zolarining pensiyasi va nafaqalari to’g’risida”gi [9] hamda 1990-yil 15-mayda qabul qilingan “SSSR fuqarolarining pensiya ta’minoti to’g’risida”gi 1480-1-sonli qonunni ushbu hujjatlar sirasiga qo’shish mumkin [15]. Yuqorida qabul qilingan qonun hujjatlariga muvofiq, pensiya yoshidagi kishilar va mehnat qobiliyatini yo’qotgan kishilar moddiy jihatdan ta’minlanib borilgan. Amalda qabul qilingan qonunlarga binoan davlat pensiyalarining uch xil turi ko’rsatib o’tilgan. Shulardan birinchisi bu- qariyalik, ikkinchisi- nogironlik va uchinchisi- boquvchisini yo’qotgan kishilar uchun tayinlanadigan pensiyalar edi.

Pensiya va nafaqalar to’g’risidagi qonunlar, shubhasiz, O’zbekiston SSR ijtimoiy ta’minot tizimining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan deyishimiz mumkin. Qabul qilingan qator huquqiy-normativ hujjatlarga vaqt o’tishi bilan qo’shimcha va o’zgartirishlar kiritib borilgan va ular takomillashtirilgan. Shu bilan birgalikda Xalq Komissarlar Sovetining 1942-yil 6-may, SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1967-yil 26-noyabr, SSSR Ministrlar Sovetining 1967-yil 6-mart, 10-noyabr, 1970-yil 14-may, 16-sentabr, SSSR Oliy Sovetining 1977-yil 7-oktabr, 1981-yil 23-fevral hamda 1984-yil 6-yanvar, 26-iyun va 21-dekablardagi farmon va qarorlarida pensiya, maishiy xizmat, sanatoriya va pansionatlarda davolanish, fuqarolarni maxsus harakat vositalari bilan ta’minlash, turar joy, soliqlar, tibbiy xizmatga doir imtiyozlar va yengilliklar berish kabi bir qator chora-tadbirlar belgilangan edi [9].

XX asrning 40-50-yillarida Sovet davlati tomonidan mehnatkashlarning ijtimoiy ahvolini yaxshilash uchun bir qancha ijtimoiy chora-tadbirlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, biroq baribir mamlakat ijtimoiy hayotida turg'unlik va qashshoqlik elementlari saqlanib qolaverdi. Boshqa Ittifoqdosh respublikalarda bo'lgani kabi O'zbekiston SSR fuqarolarini ham pensiya bilan ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan, albatta. Ushbu yo'nalishning muhimligi SSSRda ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy sug'urta uchun ajratilgan xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tasdiqlanadi, ularning bir qismi aynan pensiya xarajatlari edi. Bu davrda ijtimoiy ta'minot tizimi bilan bog'liq ishlarda jiddiy kamchiliklar ham kuzatiladi, jumladan, kolxozchilarni pensiya bilan ta'minlash ishlarining paysalga solinishi, nafaqa pullarini o'z vaqtida yetkazmaslik holatlari ham tez-tez qayd etilgan. Kolxozlarda pensiyaga chiquvchi fuqarolarning ro'yxati o'z vaqtida shakllantirilmagan va ularning hujjatlarini rasmiylashtirish esa cho'zib yuborilgan.

Sobiq Ittifoq - yagona xo'jalik kompleksi, unda hamma respublikalar va xalqlar teng huquqqa egaligi nafaqat SSSR Konstitutsiyasida, balki Ittifoqdosh respublikalarning milliy Konstitutsiyasida yozib qo'yilgan bo'lsa-da, amalda, ijtimoiy hayotda mutlaqo boshqa qonun-qoidalar hukm surar edi. Jumladan, markazdagi ishlab chiqarish korxonalari, tashkilot va idoralardagi xodimlar bilan O'zbekistonda faoliyat yurituvchi xodimlarning ish haqlari o'rtasida ham keskin farq mavjud edi, bunday tafovutlarga aksariyat kishilarning loqaydlik bilan qarashining sababi - totalitar tuzum mafkurasining kuchli ta'siri edi. Bundan ham bilishimiz mumkinki, sobiq Ittifoqning ijtimoiy ta'minot tizimi O'zbekistonda nomigagina amalda bo'lgan, xolos. Sobiq SSSRda aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning samarali tizimi yaratib berilganday ko'ringani bilan amalda millionlab mehnatkashlarning ijtimoiy-moddiy ahvoli yaxshilanmay qolaverdi.

1945-1991-yillar oralig'ida O'zbekistonda ijtimoiy ta'minot sohasi va bu borada qabul qilingan qonunlar va meyoriy hujjatlarning ko'pligiga qaramasdan oddiy mehnatkash aholining moddiy ahvoli yaxshilanmadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar balandparvoz, quruq va yolg'on raqamlardagina ifodalangan. Ijtimoiy ta'minotga oid qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda hammani tengligi belgilab qo'yilgan bo'lsa-da, amaliy hayotda bu qonuniyat o'z aksini topmadi. Eng achinarlisi, 1945-1991-yillar oralig'ida O'zbekiston xalqining moddiy ahvoli Ittifoq markazidagi respublikalarga nisbatan ancha past darajada edi. Ijtimoiy ta'minotga doir bir qancha qonun va qarorlar qabul qilinishiga qaramasdan ko'plab ijtimoiy infratuzulmalar, xususan, tibbiyot, maorif, bog'cha va yaslilar juda og'ir ahvolga tushib qolgan edi, respublikada faoliyat yuritayotgan maktab va kasalxonalarining 60 foizi talab darajasida bo'lmagan binolarda joylashtirilganligining o'zi ham fikrimizning yaqqol isbotidir.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Андреев В.С. Социальное обеспечение в СССР. М.: “Юридическая литература”, 1971.
2. Ачаркан В.А. Государственные пенсии в СССР: Автореф....канд. юрид. наук. М., 1969 // Интернет-портал “Юридическая Россия”. // <http://law.edu.ru/book/book.asp?bookID=2939> (5 мая, 2009 года).
3. Ланцев М.С. Социальное обеспечение в СССР (экономический аспект), М.: “Экономика”, 1976.
4. Бобожонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий–иқтисодий муносабатлар (70-80 йиллар мисолида). Т., 1999.
5. Yusupov D., Usmonov A. Farg‘ona viloyatida ijtimoiy ta’minot masalalari (1946-1991-yillar). Monografiya. Farg‘ona, 2022. –B.11.
6. Shadmanova S. Tarix tadqiqotlarning metodologiyasi va zamonaviy usullari. - Т.: “Barkamol fayz media nashriyoti”. 2018. –B. 70.
7. Ведомости Верховного Совета СССР. 1944. №37 (16 июля). <https://www.lib.tsu.ru/mminfo/2020/000462771/>
8. Отахо‘jayev F.M, Yo‘ldosheva Sh.R. Oliy huquqi. Т.: “Adolat”, 2007. –B.53.
9. 75 mehru shafqat yillari. - Т.: “Adolat”, 1994. –B.16-17.
10. O‘zbekiston SSRning 1937-yilgi Konstitutsiyasi. Т.:1938. –B. 20. <https://shosh.uz/wp-content/Konstitutsiya-Uzbekskoy-SSR-1937-g..pdf>
11. [https://nrm.uz/contentf?doc=3910.18\\_konstituciya\\_\(osnovnoy\\_zakon\)\\_respu\\_bliki\\_uzbekistan\\_\(prinyata\\_19\\_04\\_1978\\_g\\_na\\_vneocherednoy\\_shestoy\\_sessii\\_](https://nrm.uz/contentf?doc=3910.18_konstituciya_(osnovnoy_zakon)_respu_bliki_uzbekistan_(prinyata_19_04_1978_g_na_vneocherednoy_shestoy_sessii_)
12. <https://www.dissercat.com/content/sozдание-konstitutsii-sssr-1936-goda>
13. <https://normativ.kontur.ru/document?moduleId=1&documentId=58270>
14. <https://www.hist.msu.ru/ER/Etext/cnst1936.htm>
15. <https://base.garant.ru/6335790/>

**FILOLOGIYA****TILSHUNOS OLIMNING FIDOYLIGI****UO‘K 40.450**

**Sayyora  
SAMANDAROVA**  
Filologiya fanlari  
nomzodi, dotsent



**Umid  
BEKMUHAMMAD**  
Tarix fanlari bo‘yicha  
falsafa doktori

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada taniqli tilshunos olim Fattoh Abdullaevning hayoti va ilmiy faoliyati yoritib beriladi. Uning o‘zbek tilshunosligi, xususan, Xorazm shevalariga oid yozgan asarlari, bu boradagi izlanishlari tahlil etiladi.

**Аннотация:** В данной статье описывается жизнь и научная деятельность известного лингвиста Фаттоха Абдуллаева. Анализируются его работы по узбекскому языковедению, в частности, по хорезмскому диалекту.

**Annotation:** This article describes the life and scientific activity of the famous linguist Fattoh Abdullaev. His works on Uzbek linguistics, Khorezm dialects, and his researches in this process are analyzed.

**Kalit so‘zlar:** Jambul, Namangan, Xorazm, tilshunoslik, sheva, darslik, monografiya, tarjima.

**Ключевые слова:** Джамбул, Наманган, Хорезм, языкознание, диалект, учебник, монография, перевод.

**Key words:** Jambul, Namangan, Khorezm, linguistics, dialect, textbook, monograph, translation.

O‘zbek tilshunosligi, xususan Xorazm shevalarini tadqiq qilib, bu borada fanda chuqur iz qoldirgan olimlardan biri Fattoh Abdullayevdir. U nafaqat tilshunos va folklorshunos, balki mohir tarjimon va o‘z davrining erkin fikrli shaxsi edi.

“Fattoh Abdullaev asli Avliyoota (hozirgi Qozog‘istonning Taroz shahri) shahridagi mashhur qozi Abdullajon oilasida 1914-yilda tavallud topgandi. Abdullajon qozi barpo ettirgan masjid hozirgi kundayam Taroz shahri markazida faoliyat ko‘rsatmoqda. Shuningdek, Abdullajon qozining mablag‘iga bunyod qilingan hammom binosiyam hozirda saqlanib qolgan” (1).

Ma‘lumki, Fattoh Abdullaev voyaga yetgan yillar dinga, boy-mulkdorlarga qarshi kurash avj olgan yillar edi. Shu boisdan u Namanganga borib yashab, o‘zining ijtimoiy kelib chiqishini yashirishga majbur bo‘ladi. Ilmga bo‘lgan ixlos tufayli Kattaqo‘rg‘onga borib, 1929-33-yillarda pedagogika texnikumida tahsil oladi. O‘qishni tugatib, bir yil davomida

“Kattaqo‘rg‘on haqiqati” gazetasida adabiy xodim bo‘lib ishlaydi. Tabiiyki, intilgan, izlanganga tole yor deganlaridek, ilmga ixlos uni 1934-yilda olis Leningrad shahriga boshlab boradi. Shu tariqa u 1934-39- yillarda Leningrad



Davlat Universitetining filologiya fakultetida tahsil oladi.

Bu vaqt ichida moddiy yetishmovchilik bois port va pivo zavodida yuk tashuvchilik qilib kun ko‘radi. O‘qish, ish yuzasidan turli millat vakillari bilan so‘zlashish natijasida rus tilini mukammal egallaydi. Shu bilan birga ingliz tilinini ham o‘rgana boshlaydi.

“O‘qishni tugatib Toshkentga kelgach, 1939-44-yillarda Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika institutida o‘qituvchilik qiladi. 1944-47-yillarda Namanganda

O‘qituvchilar tayyorlash institutida “O‘zbek tili kafedrası”ga mudirlik qiladi. 1947-yilda yana Toshkentga qaytib, O‘zFA Til va adabiyot institutiga bo‘lim mudiri sifatida ishga kiradi.

Uning 1946-yilda “O‘zbek tilida arabizmlar” mavzusida yoqlagan dissertatsiyasi “ijtimoiy begona element tomonidan dinni targ‘ib qilish”da ayblanishiga bir bahya qoladi. Uning ustidan 1950-yilda anonim xat tushib, F. Abdullaev akademik N. Ya. Marrning “ilmiy asoslanmagan nazariyasi”ga xayrihohlikda ayblangandi. Ma‘lumki, o‘sha yillarda partiya tomonidan ilm-fan doiralaridagi yashirin dushmanlarni fosh qilish va ularning ig‘volaridan ogoh bo‘lish borasida ko‘plab chaqiriqlar e‘lon qilingandi. Anonim xat ayni shu pallada ko‘zlangan nishonga borib tegadi. Til va adabiyot institutining rahbariyati, anonimni asos qilib, tuturiqsiz bahonalar asosida F. Abdullaevni ishdan bo‘shatib yuboradi.

Vaholanki, o‘sha paytlarda fan nomzodlari Toshkentda unchalik ko‘p emasdi. Fattoh Abdullaevning 1940, 1941, 1942-47, 48, 49, 50- yillarda 7-sinlar uchun yaratgan “Vatan adabiyoti” xrestomatiya darsligi qayta-qayta nashrdan chiqqandi. Bundan tashqari, bir qancha o‘quv qo‘llanmalari o‘qituvchilar uchun maktabda asosiy tayanch manba vazifasini o‘tar, 1940-yilda nashr

etilgan “Umar Xayyom-ulug‘ shoir va faylasuf”, 1941-yilda chop qilingan “Kamina-turkman shoiri to‘g‘risida” va boshqa maqolalari ilmiy doiralarda ancha dovuq qozongandi. Biroq shunga qaramay, Fattoh Abdullaev ishdan chetlatiladi” (2).

Natijada u poytaxtdagi biron bir ilmiy, pedagogik muassasaga ishga joylasha olmay, Toshkentdan ancha uzoq bo‘lgan, unchalik katta va gavjum bo‘lmagan olis Urganchga borib qo‘nim topadi. Ko‘ngilni cho‘ktiruvchi, ilmni noxolis baholovchi darg‘alar dakkisidan so‘ng u yana ham fanga bog‘liq tadqiqotlar ustida ish olib bordi. Xorazm shevalariga oid dialektologik materiallarni, ertak, maqollar, afsonalarni to‘plash, yoshlarni ilmga ixlosli avlod sifatida voyaga yetkazishga intildi.

Fattoh Abdullaev qishloqma-qishloq to‘plagan boy sheva manbasi asosida Xorazm shevalarining etnik va lingvinistik xaritasini tuzdi va shu asosda vohadagi shevalarni ilmiy tasnifladi. Aynan u o‘zbek tilshunoslari ichida birinchi bo‘lib dialektal lug‘atning namunasini yaratdi.

Stalin vafoti va jamiyatdagi “iliqlik” -“Xrushchyov bahori” sabab Fattoh Abdullaev 1956-yilda Toshkentga qaytadi. Dastlab Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika institutida, keyinchalik esa 1985-yildan to umrining so‘ngigacha O‘ZFA Til va adabiyot institutida faoliyat ko‘rsatadi.

To‘plagan, taqqoslagan, tadqiq qilgan ilmiy ishlari asosida “Xorazm shevalari” (1961), “Xorazm ertaklari” (1961), “Xorazm shevalari fonetikasi” (1967), , “O‘qish kitobi”, “Eski o‘zbek yozuvi namunalari” (hammualliflar: T.Shermuhammedov, L.Xalilov, -1973), “So‘zlar o‘zaro qanday bog‘lanadi?” (1974), “O‘zbek tilining o‘g‘iz lahjasi” (1978), “O‘zbek tilida boshqaruv” (hamuallif F.Ibrohimova) singari ilmiy-ommabop kitoblarini nashr ettiradi. 1961-yilda “O‘zbek tili Xorazm shevalarining fonetikasi” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi.

Nafaqat o‘zbek tili va qardosh turkiy tillarini, balki rus, ingliz tillarini ham chuqur egallagan olim sifatida Jek Londonning hikoyalar to‘plamini ingliz tilidan, Umar Xayyom ruboyilarini fors tilidan, Kaminaning she‘rlari, B.Kerboboevning “Dadil qadam”, “Nebitdog‘” romanlari, “Oysulton” qissasini turkman tilidan, E.Kazakevichning “Oderda bahor” romanini rus tilidan tarjima qilib, chop ettiradi.

Ha, Fattoh Abdullaev nafaqat yetuk tilshunos, mohir tarjimon, ayni paytda adabiyotshunoslik, tarix, etnografiya singari fanlarga doir ham tatqiqotlar kuzatishlar olib borgan serqirra olim edi. Eng asosiysi, u hayotining har bir daqiqasini, hatto odatiy suhbatlarda ham ilmga qaratardi. Bu haqda domlaning xorazmlik shogirdlaridan biri, professor Zarifboy Do‘simov shunday xotirlaydi:

-Domla bilan dastlabki uchrashuvimiz 1960-yillarning yoz oylarida bo'lgan edi. Meni u kishining uylariga o'sha vaqtda til va adabiyot institutida ishlayotgan hamyurtimiz Ahmad Ishaev boshlab bordi. Hovliga kirganimizda bizni do'ppi kiygan, o'rta bo'yli, dumaloq ko'zlari kulib turgan, jilmayganida ikki kulgichi diqqatni tortadigan bir kishi qarshi oldi.

-Mana, olib keldim,-dedi Ahmad aka. U kishi biroz bizga razm solib,- Qani keling, kelinglar!-deb katta o'rik tagidagi so'riga boshladilar.

Suhbat chog'ida bizga savollar berardilar-u e'tibor bilan tinglardilar. Goho o'rinlaridan turib tezgina uylariga kirib ketardilar. Qaytib chiqib yana suhbatni davom qildirar, yana kirib ketardilar. Domlaning bu harakatlari meni ancha hayron qoldirdi. O'qituvchimizning ba'zan bizga "katta olimlarning g'alati odatlari ham bo'ladi" degan gapi esimga keldi. Baribir bu g'alati odamning samimiy so'zlari va tabiiy harakatlari menga yoqib qolgan edi. Keyinchalik bilsam, u kishi biz bilan suhbat chog'idayam shevaga xos bo'lgan yangi so'zlar va ularning talaffuziga e'tibor berib, tezda ularni yozib chiqar ekanlar. Bu uchrashuvimizning sababi esa u kishining Janubiy Qozog'istonga ekspeditsiya qilish uchun safarga tayyorlanayotganida ekan(3).

Fattoh Abdullaevning xorazmlik shogirdlaridan yana biri filologiya fanlari nomzodi Fazilat Ibrohimova ham domlani shunday xotirlagan edi:

-“Men Qo'qondan Xorazmga kelin bo'lib tushgan, Xorazm pedinstitutida ishlayotgan edim. U dargohda mashhur san'atkor Sheroziyning o'g'li Otanazar Madrahimov ham ishlar edi. U kishi menga tilshunoslik bo'yicha boshlayotgan ilmiy ishimga Fattoh domlani ilmiy rahbar qilib olishni taklif qildi. F. Abdullaev Xorazmda ishlab ketgani, mening vodiyan bo'lganim, qolaversa men bilan suhbatlashish davomida SO'Zga e'tiborli ekanimni sezibmi, ilmiy rahbarlikka rozi bo'ldilar. Vaqt o'tib 1971-yilda u kishining ilmiy rahbarligida nomzodlik ishinni muvaffaqiyatli hqildim. Bir nechta maqola, risolalarni domla bilan hammualliflikda tayyorladim. Men domlani shogird sifatida kuzatib shunday xulosaga kelgan edimki, u ilmiy ishni shunchaki kerak bo'lib qoladigan diplom sifatida emas, fanga qo'shiladigan hissa deb bilardi. Shuningdek, ularda sharq shoirlarining she'rlarini, ulardagi SO'Z, badiiy jozibani his etish tuyg'usi kuchli edi. Agarki, Fattoh domla tilshunos olim bo'lmaganida, albatta u kishidagi badiiy zavq shoirlikka aylanardi, deb o'ylayman” (4).

Xorazm pedagogika institutidagi talabalik davrida Fattoh Abdullaevdan saboq olgan shogirdlaridan biri, shoir va dramaturg, davlat arbobi Erkin Samandar (1935-2024) ham domlani xotirlab shunday fikr yuritgan edilar:

-“Domla darsga birinchi kirgan kuniyoq qaysimiz qaerdan ekanimizni so‘rab, yozib olganlar hamda har birimizga o‘z tuman va qishloqlarimizda eshitgan hikoyat, rivoyat, dostonlarni, xalq maqol-matallari, hikmatli so‘zlarni yozib kelishimizni topshirganlar. Hammamiz ishga tez kirishib ketganmiz, daftarlarimiz qiziqarli gaplarga to‘lib ketgan.

Yoshlik qilibmi, haddim sig‘ibmi, domlaga ko‘p savol berar, bilmagan so‘zlarimning ma‘nosini bemalol so‘rab olaverar edim. Savollarim haddan oshib ketgan bo‘lsa kerak, bir so‘zning ma‘nosini so‘raganimda yur kutubxonaga, deb qoldilar. Birinchi qavatga tushdik. Kutubxonachidan lug‘atni so‘rab oldilar. Menga ko‘rsatib u so‘zni izlay boshladilar. Oxiri topdilar va menga berib o‘qi, dedilar. So‘ng chiqib ketdilar. O‘qib nimaligini anglar ekanman, xayolimga domla shu so‘zni o‘zlari ham bilmas ekanlar-da, degan fikr keldi. Keyin chuqurroq o‘ylab qaragam, domla menga o‘ziga xos dars bergan ekanlar. Har narsani so‘rayverma, o‘qib-bilib ol, deganlari ekan bu.

Menga qattiq ta‘sir etgan ibrat quvvatlaridan biri shu bo‘ldi.

Esimda, o‘qish mashg‘ulotlari boshidayoq domla bizdan:

-Tilchi, adabiyotchi bo‘lishni astoydil istab bu fakultetga o‘qishga kirganmisizlar?-deb so‘radilar.

-Shunday, domla,-dedik.

-Esa, har haftada bir marta diktant yozasizlar, -deya so‘zini davom ettirdilar. -Imlongizga qarab yuqorida aytgan so‘zingizning to‘g‘ri-noto‘g‘riligini bilib olamiz. Savodni, ixlosni bildiruvchi asosiy narsa bu - imlo. So‘zni to‘g‘ri, bexato yozolmaydigan talabani ertasi yo‘q.

..Imtihonlar ketayotgan payt. Maqtanish emas, barcha fanlardan a‘loga topshirayotgan edim, ona tilidan ham ayni shunday bo‘lishiga yuz foiz ishonardim. Biletni olib, savollarga ko‘z yugurtiriboq (o‘tirmasdan):

-Men hozir javob beraman,-debman-da.

Domla menga g‘alati qarash qildilar va yaxshi, boshla, dedilar, noxush bir holatda.

Savollarga tezgina javob berdim. Domla na bir savol berdilar, na bir og‘iz so‘z aytdilar.

-Zachyotkani ber,-dedilar.

Berdim.”4” qo‘ydilar. Boshimga go‘yo gurzi tushganday bo‘ldi.

Imtihondan chiqiboq o‘zimni tashqariga otdim. Qancha yurdim, bilmayman, bir vaqt qaragam, shahar istirohat bog‘ida turibman.Hech kim yo‘q ( ish, o‘qish vaqti), bir payt, ko‘l bo‘yidagi majnuntollarga ko‘zim tushib qoldi. Ular savlatli, fayzli va baland, lekin boshlari yerga egik...

Ko‘lga yondosh, olmazorga qaradim, hosillari mo‘lligidan barchasi sollanib, egilib turibdi...

“Sen nega kekkayasan,-dedim o‘zimga o‘zim,- tabiatdan ibrat olgin-da, tez borib domladan uzr so‘ragin!”

Yuqoridagi ikki holatda ham ( kutubxonaga tushganimizda va imtihon payti) domla menga bir so‘z demay o‘z sa‘y-harakatlari bilan purma‘no dars bergan ekanlar. Ibrat kuchi-quvvati degani shu bo‘lsa kerak!” (5).

Ha, Fattoh Abdullaev haqida yana ko‘plab shogirdlari tomonidan shu singari samimiy so‘zlarni eshitish mumkin. Eng asosiysi, SO‘Zga, tilshunoslikka umrini bag‘ishlagan fidoyi olimning asarlari qaytadan nashr etilishi lozimligida. Chunki, professor Fattoh Abdullaevning asarlari ilk bora chop etilganiga ham yarim asrdan ko‘proq vaqt bo‘ldi. Bu vaqt ichida bir nechta yangi avlod shakllandi.Ammo domlanning asarlarini ba‘zan kutubxonalardan ham topishning imkoni yoq. Masalan, bolalar va yoshlar uchun “Xorazm ertaklari” kitobini qayta nashr etish, tanlangan asarlarini qayta chop qildirish zarurati mavjud. Shu kabi Fattoh Abdullaev asarlarining elektron variantini tayyorlab, sohaga doir saytlarda berib borilsa, undan qardosh xalqlar ham bahramand bo‘lardilar. Zero, ilm zamon va makon bilmaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.U.Bekmuhammad, “Xorazm va xorazmliklar”, “Durdona” nashriyoti, Buxoro-2022 yil.

2.Dala yozuvlari. Professor Z.Do‘simovdan yozib olingan. Urganch , 2023-yil, 19-may.

4.Dala yozuvlari. Filologiya fanlari nomzodi, dotsent F.Ibrohimovadan yozib olingan.Urganch, 2020-yil, 6-iyun.

5.Dala yozuvlari.O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Erkin Samandardan yozib olingan. Urganch, 2018-yil, 14-yanvar.

**FILOLOGIYA****XORAZM DOSTONLARIDAGI ATOQLI OTLARNING QO‘LLANISH TAMOYILLARI****UO‘K 45.220****Quvondiq  
OLLOYOROV**

Urganch Innovatsion  
universiteti “O‘zbek va  
xorijiy filologiya”  
kafedrasi mudiri,  
PhD.dotsent.,

**Shixnazar  
MADIYOROV**

UrDU magistranti

Og‘zaki ijod namunalari hamda yozma adabiyotga aloqador manbalardagi muayyan tipdagi onomastik birliklar, xususan, antroponimlarni ularning nomlanishiga ko‘ra bir necha tamoyillarga ajralishini ko‘rish mumkin. Mazkur masalaga ayollarga xos nomlar doirasida qaraladigan bo‘lsa, ularning ayrimlari diniy e‘tiqod bilan bog‘liq bo‘lgan ayol nomlari hamda badiiy maqsadlarga yo‘naltirilgan ayollar nomlari kabi toifalarga mansub bo‘ladi.

Ilmiy adabiyotlarda: “Muqaddas deb hisoblanuvchi narsalar, obyektlar, shaxslarning atoqli otlari – agionimlar” [3.11], – deb yuritilishi keltirib o‘tiladi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xorazm dostonlaridagi atoqli otlarning qo‘llanish tamoyillari tahlil etiladi. Tadqiqot sifatida ayollarga xos nomlar mavzu qilib tanlangan.

**Аннотация:** В данной статье анализируются принципы употребления существительных в хорезмском эпосе. Темой исследования были выбраны женские имена.

**Annotation:** This article analyzes the principles of use of nouns in Khorezm epics. Female names were chosen as a research topic.

**Kalit so‘zlar:** Xorazm, doston, ayollar, ijod, arab tili, o‘zbek tili, sheva.

**Ключевые слова:** Хорезм, достон, айоллар, иход, араб тили, узбек тили, шева.

**Key words:** Khorazm, Doston, Ayolar, Ijod, Arab Tili, O‘zbek Tili, Sheva.



Payg‘ambarlarning ayollari va qizlari nomlari deyarli barcha dostonlar va lirik asarlarda, hoh u yozma adabiyotga mansub asar bo‘lsin, hoh og‘zaki ijod mahsuli bo‘lsin, eng faol qo‘llanuvchi ayollar nomlaridan sanaladi.

Arab tiliga xos so‘zlar O‘rta Osiyo xalqlari tiliga yozma adabiyot orqali, asosan, eroniy tillardagi adabiyot orqali o‘tgan [6.41]. Tarixan arab tilidan o‘tgan so‘zlarning ayrimlari o‘zlashib, hozirda boshqa tildan o‘tganligi sezilmas darajaga kelib qolgan. Professor F.Abdullayevning qayd qilishicha, “biz bunday so‘zlarni tamomila o‘zlashtirib, o‘z so‘zimizdek turlayveramiz, yasovchi qo‘shimchalar vositasi bilan ulardan yangi so‘zlar yasaymiz [1.89]”.

Xorazm dostonlari onomastikasida arabiy asosga ega bo‘lgan nomlar katta ko‘pchilikni tashkil qiladi. Ayniqsa, arab tilidan o‘zlashgan Olloh va uning sifatlarini ifodalovchi nomlar (teonimlar) salmoqli o‘rinni egallaydi. Bunday nomlarning ko‘pchiligi o‘zbek kishilari, umuman, musulmonchilikni qabul qilgan turkiy qavmlar a‘zolarining ismi sifatida ham qo‘llaniladi. Payg‘ambarlar, ularning yaqinlarining ismlaridan tashqari, ularga xos xususiyat va fazilatlarni ifoda etuvchi nomlar – “kunya”lar, ramziy nomlar ham mavjuddir. Misol uchun: Tohira (Muhammad payg‘ambarning rafiqasi Xadichaga mansub nisba bo‘lib, pokdomon degan ma’noni anglatadi [2.13]) va boshqalar.

Shunday nomlardan biri Bibi Maryam nomidir. Ushbu nom “Go‘ro‘g‘li” va “Oshiqnoma” turkumidagi dostonlarda birdek qo‘llanilgan ayollar nomlaridan biridir. “Ro‘zaxon” dostonida quyidagi parchada uchraydi: “...O‘rislarning e‘tiqodicha, go‘yo shu vaqtlari Maryam tog‘iga hazrati Bibi Maryam kelib yuradi. Xudoga yoqqan bandalar ko‘radi...” [4.360].

Bibi Maryam xristian dini manbalarida Isoning onasi, xristianlikda “bogoroditsa” (богородица), “bogomater” (богоматерь), “deva Mariya” (дева Мария), islomda Bibi Maryam degan nom bilan mashhur tarixiy shaxs nomidir. Aqidalarga ko‘ra, uni ayollar voliyisi, homiysi sifatida ilohiylashtirib, u haqda turli-tuman afsona va rivoyatlar to‘qilgan.

O‘rta Osiyo hududlarida istiqomat qilib kelayotgan ayollar ismiga “bibi” komponentini qo‘shib qo‘llash odat tusiga kirib qolgan. “Bibi” slavyan tillarida ham mavjud bo‘lib, xonim (госпожа) ma’nosini anglatadi. Mazkur elementning asosiy funksiyasi ayol ismlarini hosil qilishdir. Arab oy kalendari (taqvimi) bo‘yicha Ashur yoki Rajab oyida tug‘ilgan chaqaloqlar ushbu oy nomlari bilan atalganlar. Lekin shu oyda tug‘ilgan qiz bolalar ismiga albatta “bibi” komponenti qo‘shilgan: Bibiashur yoki Ashurbibi; Rajabbibi yoki Bibirajab kabi. “Bibi” elementi kelib chiqishiga ko‘ra turkiy birlik bo‘lib, “xonim” ma’nosini anglatadi. Forsiy xalqlarda bibi – buvi ma’nosida qo‘llanadi. Qadimgi davrlarda avliyo

darajasida tasavvur qilinadigan ayollar ismlariga ham mana shu qism qo‘shib ishlatilgan. Masalan, Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarning rafiqalari Xadicha, Oysha; qizlari Zaynab, Ruqiya va Fotimalarni ham ismlari oldidan “bibi” elementini qo‘shib, Bibi Xadicha, Bibi Oysha, Bibi Zaynab, Bibi Ruqiya, Bibi Fotima kabi shakllarda atab kelishgan.

Xorazm dostonlaridagi ayollarga xos kishi ismlarining hammasi ham diniy xarakterga ega bo‘lgan nomlardan iborat emas. Ular orasida oddiy xalq orasidan chiqqan qahramonlar, tarixda yashagan mashhur sarkardalar va qolaversa, barcha uchun ma‘lum bo‘lgan asar qahramonlarining nomlari ham mavjud. Quyida shular xususida so‘z yuritamiz.

Badiiy maqsadlarga xizmat qiluvchi ayollar nomlari muayyan tipdagi dostonlar matnida keng qo‘llaniladi. Mazkur yo‘nalishga “Oshiqnoma” turkumidagi ayrim dostonlarni, jumladan, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Sayodxon va Hamro”, “Oshiq G‘arib va Hilola pari”, “Yusuf va Ahmad” kabilarni va “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlarni ham shu guruhga mansub deb hisoblash mumkin. Bu tipdagi dostonlar hozirda yozma shakllarda mavjud bo‘lsa ham, ularning aksariyati og‘zaki shakli xalq orasida keng tarqalganligi bilan xarakterlanadi.

Dostonlarimiz leksikasidagi ayollarga xos nomlarning mazkur tipi ko‘pincha xalq orasidan chiqqan kishilar, qahramonlarning ismlari bo‘lib, ulardan ayrimlari tarkibida laqablari, shug‘ullanadigan mashg‘uloti, unvoni, mansabi, yashash joyi kabilarni aks ettiruvchi aniqlagichlar (indikatorlar) [5.71] ham ishtirok etishi mumkin. Masalan: Aqcha, Bibijon, Bibiniyoz, Bonu kaniz, Gulasal pari, Guljamol, Gulzor kaniz, Gulnihol, Gulrux, Gulchehra, Gulqand, Dali Xiromon (Xirmondali), Jayhun pari, Zaynab momo, Zulfizar, Mazzam momo, Malikai Qa‘riya, Manjalaqixon, Gulqiz, Suvchi kaniz kabilalar shular jumlasidandir.

Ushbu zikr etilgan nomlarga e‘tiborni qaratadigan bo‘lsak, ular, asosan, oddiy xalq orasidagi qahramonlarning nomlari bo‘lib, ularga o‘sha nom egalari haqida ma‘lum bir xabarni, ma‘lumotni saqlash funksiyasi ham yuklangan bo‘ladi.

Masalan, Aqcha nomini olaylik. Bunday nom egalari tarixda yashab o‘tmagan shaxslar toifasiga kiritilib, ularni doston ijrochilari voqealar rivojiga keskinlik, ta‘sirchanlik kabi turli badiiy maqsadlarga yo‘naltiradi. Muammo, so‘zning dastlabki tovushi nimaning ta‘sirida “a” ga siljigan bo‘lishi mumkinligini aniqlashdan iborat. Bizningcha, bu dostonning Turk, Ozarbayjon, Turkman versiyalari va variantlari ta‘sirida yuzaga kelgan fonetik holat hisoblanadi.

Aqcha galin g‘amsiz boshim, G‘amxona bo‘ldi naylayin?

Bir so‘z bilan oshno, yorim, Begona bo‘ldi naylayin?... [8.32]

“Oshiq G‘arib va Shohsanam” haqida professor Safarboy Ro‘zimboyevning yozishicha [8.443], “ushbu dostonning ozarbayjon versiyasi 1912-yildan 1979-yilgacha Bokuda yetti marta, turkman versiyalari Ashxobodda 1940-yildan to hozirgacha olti marta, qoraqalpoq versiyasi 1960-yildan hozirgacha ikki marta, dostonning o‘zbek tilidagi versiyalari 1906-yilda Buxoroda, 1907-yilda Toshkentda toshbosmada, 1956-yilda esa og‘zaki va yozma matnlar asosida Toshkentda nashr etilgan”.

Nashr qilingan dostonlar matnida nomning birinchi tovushi “o” va “a” unililari bilan qo‘llanilgan variantlarga ega. Bunday variantlarning yuzaga kelishiga so‘zning Xorazm shevalaridagi talaffuzi bilan o‘zbek adabiy tilidagi shaklining to‘qnash kelishi ham sabab bo‘lgan. O‘zbek adabiy tilida orfoepik jihatdan “Oqcha” shakli ishlatilsa, dialektal variantlarda nomning dastlabki tovushi “a” tovushiga maksimal darajada yaqinlashadi va “Aqcha” varianti yuzaga keladi. Ayniqsa, o‘g‘uz guruhiga mansub Turkman versiyasi [9.79] Xorazmda tarqalgan versiyalar bilan omuxtalashib ketganligi kabi omillar nomning dastlabki tovushining ikki xil bo‘lishiga olib kelgan deb hisoblaymiz.

Keyingi davrlarda olib borilgan tekshirishlardan ma’lum bo‘lmoqdaki, oq leksemasida har ikki turdagi (ham ijobiy, ham salbiy) semantik bo‘yoq ham mavjud bo‘lar ekan. Masalan, “oq kiymoq” ba’zi hududlarda “azaga kirmoq” ma’nosida, boshqa bir hududlarda “azadan chiqmoq” ma’nosida ekanligi keltiriladi [7.14]. Bu hodisa, fanimizda “enantiosemiya” atamasi bilan yuritilmoqda. Har holda, mazkur nom egasi “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonining markaziy qahramonlaridan birining nomi sifatida anchayin badiiy qimmat kasb etadi.

Xorazm dostonlari tilida uchraydigan ayollarga xos nomlar orasida badiiylik uchun xizmat qilgan yana bir nom bor, bu – Xirmondali nomidir. Dostonlarimiz matnlarida qo‘llanilgan dali elementli nomlar bir qancha miqdorni tashkil qilib, ular ham erkaklarga xos, ham ayollarga xos nomlarga qo‘shilib kelganligini ko‘ramiz. Masalan, Dali Matal, Dali mehtar, Majnundali, Mirg‘azdali, Karam dali va boshqalarda dali komponenti erkaklarga xos nomlarga qo‘shilib, nom egasining xarakteridan xabar beruvchi antroponimik birlik sifatida ishtirok etgan.

Xorazm dostonlarida kishi nomlari tarkibida uchraydigan “dali” elementi ko‘proq o‘g‘uz guruhidagi lahjalarga aloqador bo‘lib, u dostonlar leksikasida

o‘rniga qarab kishi ismiga “tanti”, “tavakkalchi”, “bo‘ysunmas”, “asov” kabi qo‘shimcha ma‘nolarni singdirish funksiyasini bajaradi.

Dali leksemasi o‘zbek tilining izohli lug‘atida sharhlangan bo‘lib: “1. Jinni, tentak, aqldan ozgan; 2. Ko‘chma ma‘noda: bebosh, asov...” deya keltiriladi. Bundan tashqari “dali-devona” juftlashgan birligi tarkibida ham qo‘llaniladiki,


unda aynan jinni bo‘lmoq, aqldan ozmoq ma‘nolari yetakchi hisoblanadi. Bundan tashqari, o‘zbek tilidagi “dali-g‘uli – ko‘nglida kiri yo‘q, oqko‘ngil va xushchaqchaq” kabi shakllarda ham o‘zbek tilida qo‘llanilib kelinishi manbalarda keltiriladi. Dali-g‘uli elementining “chapani”, “soddalarcha”, “pala-partish” kabi ma‘nolari ham mavjudligi “izohli lug‘at”da keltiriladi [10.549].

Masalan, Go‘ro‘glining rafiqasi bo‘lgan obraz nomi Xirmondali, boshqa bir versiyada Xiromon dali kabilar shular jumlasiga

kiradi. Mazkur nomlarning Xirmondali // Dalixirmon // Xiromon pari kabi variantlari ham dostonlar matnlarida turli xil ifoda shakllariga moslashgan tarzda qo‘llaniladi. Xirmondali ismining bunday variantlarining yuzaga kelishi dostonning she‘riy o‘rinlaridagi qofiya, turoq kabi vaznlar o‘lchovi bilan bog‘liq. Mazkur ismning tarkibida dali elementini nima sababdan ishlatilganiga e‘tibor qaratsak, u ma‘lum darajada ayon bo‘ladi: “...Qadim ayyomda, o‘tgan zamonda Rum shahrinda bir boy o‘tgan ekan. Uning odina Arslonboy deb od barar ekanlar. Uning bir qizi bo‘lg‘an. Odini Gulixiromon deb qo‘yg‘on. Yoshi yigirmalarga borib qolg‘on, ham baxshi, ham polvon bo‘lg‘on...” [4.273].

ESHCHANOVA GAVHAR

**“OSHIQ G‘ARIB VA SHOHSANAM”  
DOSTONING VARIANTLARI VA  
BADIYATI**



Ushbu parchada qiz bolaning baxshiligini va polvonligini uning hatti-harakatlaridagi noodatij jihat ekanligini ifodalash uchun nomning tarkibiga dali elementi qo‘shilgan deb hisoblash, bizningcha, to‘g‘ri bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Xorazm dostonlarida uchraydigan kishi nomlari, xususan, ayollarga xos nomlarning qo‘llanish tamoyillarini o‘rganish o‘zbek onomastikasi, aynan, uning antroponimikasi uchun qimmatli ilmiy ma’lumotlarni taqdim etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullayev F. O‘zbek tili leksikasining ba’zi bir masalalariga doir. Til va adabiyot instituti asarlari . 1-kitob, Toshkent, 1948-y.
2. Abdulaziz Mansur, Bahmonyor Shokir. Musulmonchilikdan ilk saboqlar. Toshkent, 1992-y.
3. Begmatov E. Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati. Namangan, 2006-y.
4. Go‘ro‘gli. Nashrga tayyorlovchilar: To‘ra Mirzo va Zubayda Husainova. Aytuvchi Rahmatulla shoir Yusuf o‘g‘li. –Toshkent: Sharq nashriyoti, 2006-y. (448-b)
5. Do‘simov Z. Toponimik indikatorlar // O‘TA. –Toshkent, 1972-y. №5.
6. Махмудов Н., Одилов Ё. Сўз маъно тараққиётида зиддият. Ўзбек тили энантиосемик сўзларининг изоҳли луғати. Т.: Академнашр, 2014-у.
7. Oshiqnoma. 2-kitob. Mas’ul muharrir S.Ro‘zimboyev. –Urganch: Xorazm nashriyoti, 2006.
8. Шасенем-Гарып, Дессан. –Ашгабат: Туркменистан неширятьы, 1979.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Д ҳарфи. А.Мадвалиев таҳрири остида. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com).

**FILOLOGIYA****XOTIRA-ESSELARDA IJODKOR MAHORATI  
(Abdusaid Ko‘chimov publitsist ijodkorlar xususida)****Gulasal  
KAZAKOVA****Urganch Innovatsion  
universiteti o‘qituvchisi****UO‘K 33.320**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada taniqli adib Abdusaid Ko‘chimovning xotira-esselati tahlil etiladi. Adibning ijodkorlar mahorati to‘g‘risidagi esselari mavzu qilib olingan va taqdid qilingan.

**Аннотация:** В данной статье анализируются воспоминания известного писателя Абдусаида Кочимова. В качестве темы были взяты и представлены очерки писателя о мастерстве творцов.

**Annotation:** This article analyzes the memoirs of the famous writer Abdusaid Kochimov. The writer's essays on the skills of creators were taken as a topic and presented..

**Kalit so‘zlar:** Esse, adabiyot, janr, mahorat, jurnal, kitob, nashriyot.

**Ключевые слова:** Эссе, литература, жанр, мастерство, журнал, книга, издательское дело.

**Key words:** Essay, Literature, Genre, Skill, Magazine, Book, Publishing.

Ijodkor Abdusaid Ko‘chimov esse va uning taraqqiyoti haqidagi fikrlarida istiqloldan keyingi adabiyotda shakl va mazmun jihatdan tub o‘zgarishlar bo‘lib, publitsistika yo‘nalishida esse ko‘proq ommalashganini, bu janr ijodkor hayot haqiqati bilan ko‘ngildagi bor tuyg‘ularni, fikrlarni, munosabat va qarashlarni bildirish imkoniga egaligi bilan publitsistikaning boshqa janrlaridan farq qilishini hamda o‘zi yaratgan esselarda ijodiy fantaziya essenavisning hayotiy kuzatuvlari asosida yuzaga kelganligini ta’kidlab o‘tadi.

U taniqli adib Pirmat Shermuhammedovga bag‘ishlangan “Tezoqar sokin daryo” essesinde ijodkorning badiiy olami, ijodiy kamoloti, kasbiga nisbatan mas’uliyatli va o‘ta talabchan ekanligini, shaxs sifatidagi o‘ziga xosligini ko‘rsatib beradi. Yigitlik paytidan tortib keksalik davri siymosi akslantirilgan, 6 qismdan iborat bu essening nomlanishi ham ijodkorning hayot hikmati, umr maslagiga monand tanlangan.

Adibning ijodiy portreti tasvirlanarkan, Moskvada nomzodlik dissertatsiyasini yoqlab kelgan, qop-qora sochlari Pushkinniki singari ko‘pirib turguvchi, qaddi-basti kelishgan, istarasi issiq, shoir-yozuvchilar bilan bo‘ladigan barcha uchrashuv va adabiy kechalarga bosh-qosh, g‘ayratli navqiron bir yigit ko‘z oldimizda gavdalanadi.

Essenavis A.Ko‘chimov Pirmat Shermuhammedov badiiy olamini tasvirlashni 4 ta xronologik ustunga ajratadi:

- adabiy jarayondagi faolligi;
- ilmiy kuzatuvlarini faoliyatiga tatbiq etishi;
- yosh qalamkashlar ishlarini doim qo‘llab-quvvatlashi;
- publitsistika sohasidagi faoliyati.



A.Ko‘chimovning ustoz faoliyatidagi o‘ziga xoslikni tasvirlashi, ya’ni boshqalardan farqlantiruvchi jihatlarini qalamga olishda P.Shermuhammedovning o‘zbek adabiyotida yuz berayotgan o‘zgarishlar, dunyo adabiyoti yangiliklari borasidagi ilmiy kuzatuvlarini qiziqarli misollar bilan tahlil qilib berishlari ekanligiga asosiy urg‘u beradi. Essenavis Pirmat Shermuhammedov yosh adabiyotshunoslar to‘garagiga rahbarlik qilish bilan birga yosh qalamkashlar ijodiy mashqlarini hijjalab o‘qir, maslahatlarini ayamas, “pichoqqa ilinadigan”larini erinmay tahlil qilar va o‘zi gazeta-jurnallarga olib borib chiqartirar hamda bu kabi fidoyilikni faqat u inson uddalashi mumkinligini havas bilan tilga oladi. Adibning sa’y-harakatlari tufayli yosh adabiyotshunoslar Abdulla Oripov, Muhammad Ali, Omon Matjon, Rauf Parfi, Ma’ruf Jalil singari oltmishinchi-yetmishinchi yillarda o‘zbek she’riyatiga burgut shiddati bilan kirib kelgan betakror talant sohiblari bilan to‘garak mashg‘ulotlarida, institut zallarida yuzma-yuz uchrashish, suhbatlaridan bahramand bo‘lish baxtiga muyassar bo‘lganligini faxr bilan eslaydi.

A.Ko‘chimov adibning publitsistika sohasidagi faoliyatiga to‘xtalarkan, bu sohaning taraqqiyotidagi hissasi va shogirdlariga ko‘rsatgan jonbozligini shunday tavsiflaydi: “Pirmat Shermuhammedov sho‘ro idorasida “toblangan”, sho‘ro hukumati topshirig‘ini og‘ishmay amalga oshirishni “ham farz, ham qarz” deb biladigan amaldor esa-da, eng avvalo, adabiyotchi-yozuvchi bo‘lgani vajidan qavmining dardi unga oyday ravshan, shu boisdan ham yozarlar uni qora tortib, unga ishonib siyohi qurimagan qo‘lyozmalarini “Sharq yulduzi”ga ko‘tarib

kelishardi”<sup>2</sup>. O‘zbek adabiyoti, san’ati, madaniyati temir nazoratga olingan, “yilt” etgan yangilik g‘alvirdan o‘tkazilib, qayta-qayta elaklarda elanayotgan u kunlarda ijodkorlarga oson bo‘lmagani bugun barchaga ayon. Ammo chin ma’nodagi vatanparvar rahbarga, gazeta-jurnal bosh muharriri yoki nashriyot direktoriga undan-da qiyin bo‘lganini ham aytib o‘tadi. O‘sha yillarda nashr etilgan gazeta-jurnallardagi maqolalar, nashriyotlarda chop etilgan asarlarni sinchiklab ko‘zdan kechirgan kishi buning guvohi bo‘lishi mumkin, zero bunday paytda matbuot Pirmat Shermuhammedov kabi jasoratli muharrirga ehtiyoj tuyardi.

Essening 3-qismi “Sharq yulduzi” jurnalining “Surxon” nomli yillik mukofoti taqdimot marosimini o‘tkazishda P.Shermuhammedovning ko‘rsatgan jonbozligi ko‘plab ijodkorlarning yangi qirralarini ochishiga sababchi bo‘lganligi xususidadir. Taqdimotdan so‘ng A.Ko‘chimov bilan sayr qilarkan, yozuvchi o‘z oldida turgan bir nechta mas’uliyatli ishlar haqida aytib o‘tadi. Suhbat jarayonida tahririyatda yangi qo‘lyozmalar ko‘payib qolgani, ammo ularning ko‘pida inson qolib, ijtimoiy-siyosiy muammolar-u dolzarb masalalarni ko‘tarib chiqish birinchi darajaga aylanib ketayotganidan achinadi. Ayni damda essenavis ba’zi insonlar orqavartdan ustozni “juda ehtiyotkor” deb ta’na qilishi sabablariga oydinlik kiritmoqchi bo‘ladi. Ustoz iqtidorli yoshlarning ehtiros qurboni bo‘lib qolishidan cho‘chishini, ular yaratayotgan har bir asarni o‘nlab ko‘zlar qora ko‘zoynak ostidan taftish qilib o‘tirganini hamda buni yoshlar o‘zlari bilishmasligini aytadi. Yosh iste’dodlar taftishchilar qarmog‘iga ilinib qolmasligi, katta yo‘lga beshikast chiqib olishi uchun “ehtiyotkor” ekanligini aytadi. Kimdir “ehtiyotkorlik” deb baholagan bu ishni yozuvchining o‘zi “burch” deya baholaydi. Ardoqli adib Odil Yoqubov ham bir suhbatida aynan shunday fikrni keltirib o‘tadi: “Pirmatjon sirtidan ehtiyotkordek ko‘rinadi. Aslida esa u jasur va dangal, to‘g‘ri va halol, sadoqatli va hushyor, chuqur ilmi. U “Sharq yulduzi”ga bosh muharrir bo‘lib kelganidan keyin jurnal qiyofasi, mazmuni batamom o‘zgaradi. Adabiyotda voqea bo‘lgan asarlar bosiladi. Uncha- muncha redaktor botinolmaydi bunga. Tezoqar sokin daryoga o‘xshaydi u...”<sup>3</sup>. Pirmat Shermuhammedov zohiran muloyim, botinan jasur bosh muharrir ekanligini essenavis mana shunday tasvirlaydi. Essening nomlanishi, ya’ni “Tezoqar sokin daryo” nomi ham ustoz Odil Yoqubovning Pirmat Shermuhammedovga berilgan mana shu haqqoniy bahosi tufayli, qolaversa ustozning xarakter xususiyati, g‘ayrat-shijoatining obrazli ifodasi qalamga olinadi.

P.Shermuhammedovning yashash sharoiti oddiygina bo‘lib, u qilgan halol mehnati va bag‘rikenglikdan ortiq boyligi yo‘q inson bo‘lgan. “Birlik” dahasidagi kichkina hovlida ortiqcha hashamsiz, sodda va kamtarona hayot kechirgan. Oylik maoshidan boshqa qing‘ir-qiyshiq tirikchiligi yo‘q sof vijdonli inson, 1980-yillar o‘rtalaridagi og‘ir va tahlikali davr Pirmat Shermuhammedov faoliyatini ham chetlab o‘tmadi. Sharof Rashidov vafotidan keyin totalitar tuzum siyosatining nohaqligi “Sharq yulduzi” jurnalini ham chetlab o‘tmadi. Tinimsiz tazyiq va ijod ahlining erkiga bo‘lgan cheklov yozuvchining bardoshini ancha sinaydi. O‘z arizasiga ko‘ra ishdan ketarkan, Pirmat aka yelkasidan bosib yotgan tog‘dan

<sup>2</sup> Abdusaid Ko‘chimov, 3-jild. (Publitsistika) [Matn]: nasr / - T.: “Akademnashr”, 2021. 285-bet

<sup>3</sup> Abdusaid Ko‘chimov, 3-jild. (Publitsistika) [Matn]: nasr / - T.: “Akademnashr”, 2021. 289-bet.



qutulgan odam kabi butun vujudi bilan ijodga sho‘ng‘iydi. Adabiy jarayon, badiiy mahorat, bolalar adabiyoti muammolari bo‘yicha qator tahliliy maqolalar nashr ettirib, taniqli adiblar portretiga chizgilar, esselar yaratadi. Tarixni, ulug‘ ajdodlarimizning hayotini o‘rganadi va tarixiy mavzuda asarlar chop ettiradi. O‘nlab shogirdlarining doktorlik ishlariga ilmiy rahbarlik qiladi. Essenavis Pirmat Shermuhammedovning eng havasli fazilati ustozdagi hayotga, ijodga, do‘st-birodarlarga, ustoz-shogirdlarga bo‘lgan beadoq mehr ekanligini alohida ta’kidlaydi.

Esseda Pirmat Shermuhammedovning shaxsiyati, dunyoqarashi, orzu-umidlari, ijodiy faoliyati, ruhiyati va o‘ziga xos xususiyatlari jonli, hayotiy lavhalarda bitilgan. Ustoz badiiy olamini tasvirlashda A.Ko‘chimovga P.Shermuhammedov bilan bo‘lgan doimiy muloqot, hammaslaklik nihoyatda qo‘l kelgan. Ayni tasvirlar fonida muallifning ham o‘ziga xos qiyofasi, ijtimoiy-ma’naviy va adabiy muammolarga munosabati namoyon bo‘lib boradi. Xalqimiz va adabiyotimiz fidoyi jonkuyari, elni musaffo ma’rifat suvidan bahra oldirgan, milliy o‘zligimiz, qadriyatlarimizni ardoqlagan ma’rifat sohibining ibratli umr yo‘li yorqin tasvirlarda aks ettirilgan.

A.Ko‘chimovning “Tog‘ guli” essesi ijodkor, iqtidorli munaqqid va ko‘zga ko‘ringan tarjimon Mahmud Sa‘diy haqidadir. Bu siymoning nomi shoir-u yozuvchilar qatorida bo‘lmasa ham, o‘zbek adabiyotining eng dolzarb muammolari tahliliga bag‘ishlangan ko‘plab maqola va tadqiqotlari orasida uning adabiy-tanqidiy maqolalari va suhbatlarni o‘z ichiga olgan “Teran tomirlar” kitobi ko‘pchilikka ma’lum. Essenavis Mahmud Sa‘diy xarakter-xususiyatining o‘ziga xosligini shunday ta’riflaydi: “Davralarda, gap-gurunglarda birdaniga diqqatni tortmaydi – shovqin-suronsiz, ohista kiradi, indamay o‘tirib eshitadi, bahs-munozaralarga huda-behuda aralashmaydi, eshitib bo‘lgach, yana o‘sha ohistalik bilan boshqalarga sezdirmay chiqib, o‘z yumushlari bilan mashg‘ul bo‘ladi. Ammo bahsga qo‘shilgudek bo‘lsa bormi, undagi chuqur falsafiy tafakkur, teran mulohazalar, bahs va nutq madaniyati hayron qoldiradi sizni”<sup>4</sup>. Zahmatkash olim shaxsiyatini tabiatning hayotbaxsh ne’mati, tog‘larning dilbar giyohi – kiyiko‘tiga qiyoslashida ham ramziy ma’no mujassam. Bu o‘t go‘zalligidan tashqari ayricha fazilatlarga ham egaki, bargi va gullarining hidi xushbo‘y, undan olinadigan efir moyi va mental atir-upa sanoatida, meditsinada keng ishlatilib shifobaxsh malhamlar tayyorlanishi izoh sifatida keltirilarkan, Mahmud Sa‘diy faoliyati ham xuddi shu kabi tahsinga loyiqdir. Aslida ijodkor bilan tog‘ guli o‘rtasidagi botiniy yaqinlikni A.Ko‘chimov shunday izohlaydi: “O‘xshashlikning ilk belgisi shuki, bir qarashda bu odamda ham “yalt” etib boshqalardan ajralib turguvchi jihat yo‘q: o‘rtabo‘y, serharakat, bug‘doyrang, ko‘zlari o‘ychan, kiyinishi sodda, kamtar, kamsuqum”<sup>5</sup>. Ayni shu o‘xshashlikning izohini keltirish orqali muallif ijodkor portretini ham tasvirlashni maqsad qiladi.

<sup>4</sup> Abdusaid Ko‘chimov, 3-jild. (Publitsistika) [Matn]: nasr / - T.: “Akademnashr”, 2021. 300-bet.

<sup>5</sup> Abdusaid Ko‘chimov, 3-jild. (Publitsistika) [Matn]: nasr / - T.: “Akademnashr”, 2021. 299-bet.

Chin adabiyot uchun, adabiy va abadiy haqiqatlar uchun doim bahslashadigan Mahmud Sa'diy bahs chog'ida o'zini erkin tutishi, bildirilayotgan mulohazalarga hurmat bilan qarashi, o'z fikrida qat'iy turishi bilan jamoada doim o'z o'rniga ega xodim bo'lganligini ta'kidlarkan, mag'lubiyat u kishi uchun begona ekanligini anglash mumkin. O'jarlik bu shaxs uchun mutlaqo begona bo'lib, hamisha o'z fikriga ishonar va uni himoya qilarkan, asosiysi boshqalarni ham ishontirish qobiliyatiga ega inson bo'lgan. Shu boisdan bir karra suhbatlashgan odam undagi samimiyat chashmasidan bahra olib, bir umrlik do'st-birodar bo'lib qolishni istaydi. Xudbin, ikkiyuzlamachi, o'z manfaati uchun har qanday g'alamislikka tayyor nodonlar uchun ham aslo yomonlik istamas, tanbeh berib to'g'ri yo'lga chaqirar, boisi so'ralganda insonlar bir-biriga g'animat ekanligini aytib yurarkan.

M.Sa'diy nolish, nolinish kabi miskin tuyg'ulardan uzoq, hamisha boriga shukur qiluvchi iymon-e'tiqodi but inson sifatida ta'riflanarkan, betinim o'qir, ishlar va yozar, shu tufayli ham ustozning o'z shogirdlariga o'gitlari ko'p bo'lgan. Undagi ahli qalam qadrlaydigan eng kamyob fazilat uning zukko tahrirchiligidir. Qo'lga tushgan qo'lyozmaga zargarona ishlov beradi, har so'z, har iborani erinmay sayqallaydi. U birona asar tahririga kirishganda uy-ro'zg'or tashvishlarini, rejalashtirgan yumushlarini chetga surar, yozilajak risola yo maqolalarini, muxtasar ifodalaganda, o'zini tamomila unutar, butun vujudi bilan ijodga sho'ng'irdi. Ijodkorning bu fidoyiligini A.Ko'chimov ijoddagi jonkuyarlik deya baholaydi.

Talantli shoir, iqtidorli jurnalist, adabiyotshunos olim va pedagog Shamsi Odil hayoti va ijodiga bag'ishlangan esseni "Odil xalq turibdi tarozi ushlab" deb nomlaydi. Bolalikdan mehnatda chiniqqan, o'z maqsadlariga peshona teri bilan erishgan, "mehnat insonni ulug'laydi" degan bobolar o'gitini hayotiy shior qilib olgan bu kamtarin ijodkor qisqa umr ko'rsa-da, ijodiy faoliyati davomida ibratli adabiy meros qoldirishga ulguragan fidoyi ijodkorlardan biridir. Turmush tashvishlari bilan ijodga biroz kechroq kirib kelgan Shamsi Odilning onasi Hanifa aya xalq dostonlarini maromiga yetkazib hikoya qilar, Navoiy, Mashrab, Nodira g'azallarini ifodali o'qir ekanki, ehtimol, adabiyotga, she'riyatga bo'lgan mehr Shamsi Odilda xuddi o'sha lahzalarda paydo bo'lganligi taxmin qilinadi. Afsuski, onasining bevaqt o'limi oilada yolg'iz farzand Shamsi Odil zimmasiga yanada ko'p mas'uliyat yuklaydi. O'qishni muvaffaqiyatli tugatgan ijodkor sharoit tufayli ilmiy faoliyat bilan shug'ullanmasdan oila bag'riga qaytishga majbur bo'ladi. Ish faoliyatini maktabda ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi sifatida boshlarkan, chuqur bilimi, mehnatsevarligi, kasbiga mas'uliyati sababli tumandagi taniqli muallimlar qatori tilga olinadigan bo'ladi. Natijada mehnatsevar va tirishqoq pedagogni tuman xalq ta'limi bo'limiga ishga taklif qiladilar.

Essenavis Shamsi Odil kasbiy faoliyatidagi o'ziga xoslikni baholashda o'z hayot tarziga monand mezonlardan foydalangan va ushbu e'tirof aynan A.Ko'chimovning ham jamiyat oldidagi insoniylik burchini ado qilishdagi faoliyatlarida yaqqol aks etadi. O'z zimmasidagi vazifaga shunchaki oylik maosh to'lanadigan yumush deb emas, kelajak avlod oldidagi, yurt oldidagi, qolaversa, vijdon oldidagi burch deb qarashga odatlangani uchun el-yurtga bugun

kechagidan, ertaga bugungidan ko‘ra ko‘proq foydam tegsin deb tinim bilmay ishlashi jarayoni tasvirida yorqin namoyon bo‘ladi.

Haqiqatdan, oddiy kishilar orasidagi jo‘shqin hayot uni nafaqat inson sifatida shakllantirdi, ayni chog‘da, bo‘lajak asarlari uchun asos vazifasini ham o‘tadi. Ona tilining go‘zal va betakror jozibalarini namoyon etuvchi xalqona so‘zlarni o‘z qulog‘i bilan eshitadi, xalq og‘zaki ijodiga mansub ertaklar-u afsonalarni qishloq qariyalaridan tinglaganda ko‘ksi tog‘day ko‘tarilar, oddiy, sodda va samimiy yozilgan kitoblar o‘quvchilar orasida talash bo‘lib ketganini o‘z ko‘zi bilan ko‘rar – shunday yozish kerakligini anglaydi. Toshkentga qaytish Shamsi Odil uchun badiiy ijod bilan astoydil shug‘ullanish davrini boshlab beradi. O‘qish-o‘rganishga yana ham jiddiy kirishadi. Sharq va G‘arb adabiyoti durdonalarini mukammal o‘rganadi. Serqirra ijodkor, zahmatkash olim badiiy ijodning ko‘pgina janrlarida asarlar yaratadi, badiiy ijodni ilmiy tadqiqot bilan uzviy bog‘lab olib borgan holda, poetikaning, adabiy jarayonlarning dolzarb masalalari xususida maqolalar yozadi. Bundan tashqari, u kattalar qatorida kichkintoylar uchun ham ibratli asarlar yozib qoldiradi. Shu o‘rinda A.Ko‘chimov, Pirmat Shermuhammedov va Shamsi Odil ijodining mushtarak jihati bolalar adabiyotiga e‘tibor hamda uning taraqqiyoti uchun o‘z ulushini qo‘shish ekanligini ta‘kidlash joiz.

Qator hikoya, dostonlardan keyin prozaning yirik turi hisoblangan roman janrida yoshlar hayotiga doir asar yozadi. Shoirning farzandlari va nabiralari ham ijodkorning muborak yo‘llarini davom ettirib, ilm va ma‘rifat yo‘lini tutganligini keltirarkan, essenavis o‘zini Shamsi Odilning “Qaynar buloq”laridan qonib suv ichganlarning biri deya nomlaydi. Shoirning portretini quyidagicha aks ettiradi: “Qorachadan kelgan, o‘rta bo‘y, ko‘zlari katta-katta, sochlari jingalak-jingalak, o‘rdakka o‘xshab sal-pal lapanglab qadam tashlaydigan kishi ekan shoir Shamsi Odil. Chehrasidagi soddalik va muomaladagi samimiylik men kutgan va meni qattiq tashvishlantirgan o‘ng‘aysizlikni darrov o‘rtamizdan olib tashladi.”<sup>6</sup>. Ushbu ta‘riflar orqali Shamsi Odilga xos samimiylik, ochiqko‘ngillik, tavoze‘lik, kirishimlilik, hazilkashlik kabi xislatlarni anglash mumkin. Essenavis ijodkorga xos fe‘li kenglik, halollik, to‘g‘rilik, mehr-oqibat, saxiylik, kamtarlik, insof, diyonat deyilmish fazilatlar ham, aslida, noyob xazina – odamlardan odamlarga qoladigan bebaho meros ekanini eslashni ta‘kidlaydi.

A.Ko‘chimovning “Odamlar bilan birga” nomli essesi shoir va publitsist Erkin Ne‘matov hayot yo‘li, ijod olami, insoniy fe‘l-atvori tasviriga bag‘ishlangan bo‘lib, ijodkor essenavis tahsil olgan maktabning faxri hisoblangan. Barot Boyqobilov, Kamol Qalandarov, Abdurashid Abdurahmonov kabi respublikada taniqli shoir va olimlar qatorida Erkin Ne‘matovning nomi ham tez-tez tilga olingan. Bundan ijodga qiziquvchi yosh qalamkashlardan tortib barcha o‘quvchilar faxrlanganlar, murg‘ak yuraklarda havas tuyg‘usi uyg‘ongan. Ne‘matovlar xonadonining kenja farzandi Is‘hoqjon Ne‘matov A.Ko‘chimov bilan sinfdosh bo‘lganligi bois hamda maktab karidorida “Bular – maktabimiz

<sup>6</sup> Abdusaid Ko‘chimov, 3-jild. (Publitsistika) [Matn]: nasr / - T.: “Akademnashr”, 2021. 315-bet

faxri” doskasida muloyim kulimsirab turgan Erkin Ne’matov nigohlaridan essenavis ayricha sehr izlaydi. Ayni shu o’rinda ijodkor esse qahramoni tasvirini o’z biografiyasiga doir ma’lumotlar bilan to’ldiradiki, xotiralar orqali ijodkor fenomeni qayta kashf etiladi. Yoki bo’lmasa Erkin Ne’matov ijodiy siymosini yaratish orqali A.Ko’chimovning ijod olamiga kirib kelish jarayonini ham kuzatish mumkin.

Erkin Ne’matov bilan ilk ijodiy uchrashuvdan olgan taassurotlari asosida A.Ko’chimov ijodkor badiiy siymosini aks ettiruvchi portretni yorqin bo’yoqlarda tasvirlaydi. “O’rtabo’y, yelkalari keng, qaddi tik, qadam tashlashlari shiddatli, harakatlari chaqqon, patila-patila sochlari peshonaga tushgan, chaqnoq ko’zlari mehr bilan boquvchi, bug’doyrang yuzlari tiniq, orasta kiyim-boshi o’ziga yarashgan shoirning qiyofasi suratidagidan ham yoqimli, suhbatlari esa undan-da ohanraboli ekan”<sup>7</sup>. E.Ne’matov samimiy, ochiq ko’ngil bo’lganligi uchun shogirdlar ustoz bilan tez til topishar, ijodiy mashqlarini ustozning sinchkov nigohidan o’tkazishi bilan ijobiy sifatlarni o’zida aks ettirishini keltirib o’tadi. Yoshi va holatidagi farq bir dunyo bo’lishiga qaramay, E.Ne’matov A.Ko’chimovdan o’zining birinchi she’riy kitobi haqidagi fikrlarini so’raydi. Mulohazalarini e’tibor bilan tinglab, minnatdorlik bildiradi, kitobiga dastxat yozib beradi, ko’rishib, maslahatlashib turishi kerakligini, biron-bir yordam kerak bo’lsa, tortinmasligi zarurligini tayinlaydi.

E.Ne’matov shaxsiy fazilatlarini, fe’l-atvoridagi o’ziga xoslik, hayot va ijod maslagi, insoniylik siymosini tasvirlashda ham adabiy portret komponentidan o’rinli foydalangan: “U har so’zni o’ylab, yurakdan gapirar, gaplari oddiy va juda samimiy edi. Shundan so’ng tez-tez uchrashib turadigan bo’ldik. Bu odamning bahs va munozaralarga o’chligi, bu jabhada jinday o’jarlikka moyilligi va o’z fikrida qat’iy turishi, hamisha sizga yelkadosh bo’lishga intilishi, qo’lidan keladigan yordamni hatto dushmanidan ham ayamasligi, o’z qadrini biladigan kishilarga xos kamtarligi, mehmondo’stligi ko’pchilik birodarlari qatori mening ham havasimni keltirar edi”<sup>8</sup>. Erkin Ne’matov asarlarining mavzu doirasi keng, lirik qahramonlari rang-barang va jozibali, butun umri davomida do’stlari, og’a-inilari, shogirdlari qurshovida bo’ladi. U hech qachon hatto bir piyola choyni ham yolg’iz o’zi icholmas, odamlarni sevar, topganini ular bilan baham ko’rib yashashga intiluvchi inson sifatida qalamga olinadi.

A.Ko’chimov yaratgan esselarda shoir va yozuvchilar, ziyolilar siymosini yaratishga intilish yuqori bo’lib, ijodkorlar shaxsiga katta e’tibor qaratilishi, ularning ijodiy laboratoriyasiga chuqurroq kirish, ijod psixologiyasini teranroq his etish, asarlaridagi ijtimoiy, estetik tamoyillarni mukammal talqin etish bosh tamoyil hisoblanadi. U esselar to’plamida ham badiiy ijod va undagi kuzatishlarni qayta ishlab, shoir va yozuvchilar siymosini badiiy gavdalandirgan, ularning shaxsiy va insoniy sifatlarini xotiralarda umumlashtirgan qalam sohibidir.

<sup>7</sup> Abdusaid Ko’chimov, 3-jild. (Publitsistika) [Matn]: nasr / - T.: “Akademnashr”, 2021. 326-bet

<sup>8</sup> Abdusaid Ko’chimov, 3-jild. (Publitsistika) [Matn]: nasr / - T.: “Akademnashr”, 2021. 327-bet

**FILOLOGIYA****ZULFIYA QUROLBOY QIZI HIKOYALARIDA O‘ZBEK  
AYOLINING HAYOTI MAVZUSI**

**Aysha  
ATAJANOVA**

**Urganch Innovatsion  
universiteti o‘qituvchisi**

**UO‘K 33.320**

***Annotatsiya:** ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek hikoyanavisi Zulfiya Qurolboy qizining hikoyalari badiiy jihatdan tahlil qilingan.*

***Аннотация:** в данной статье с художественной точки зрения проанализированы рассказы современной узбекской писательницы Зульфийи Куролбой кизи.*

***Annotation:** in this article, the stories of the modern Uzbek storyteller Zulfia Kuroolboy are analyzed from an artistic point of view.*

***Kalit so‘zlar:** lirik qahramon, badiiyat, mavzu, mahorat, o‘xshatish, falsafiylik, adabiy muhit.*


***Ключевые слова:** лирический герой, артистизм, тема, мастерство, сравнение, философия, литературная среда.*

***Key words:** lyrical hero, artistry, theme, skill, simile, philosophy, literary environment.*

Hozirgi yangilanayotgan davr va inson ma’naviyati badiiy ijodning ayrim masalalariga yondashuvni yanada chuqurlashtirish, bugungi jarayon va qator nazariy fikrlarni yangicha idrok etishni taqozo qilmoqda. Bu masalalar silsilasida ijodiy metod, uslub va janr munosabatlari salmoqli o‘rin tutadi. Zero, bulardan hech biri o‘zaro aloqalarsiz taraqqiy eta olmaydi. Bu tushunchalar badiiy ijodning o‘zak masalalaridan bo‘lib, ularning tarixiy va ijodiy xarakteri, davr va estetik tafakkurdagi evrilishlarga bog‘liqligi muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, uslub tushunchasi bilan bog‘liq holda uslub va metod, uslub va shakl, uslub va janr munosabatlari, shuningdek, uslubiy yo‘nalishlar va uslublar muqoyasasi (tipologiyasi) kabi xilma-xil muammolar tug‘ilganki, adabiyotshunoslik ilmining tabiati ham, badiiy takomili rivoji ham bu chalkashliklarga aniqlik kiritishni talab qiladi.

Negaki, individual uslub qanchalik xususiy va rang-barang bo‘lsa ham badiiy ijod qonuniyatlari, metod va janr takomilida kechayotgan o‘zgarish va etakchi xususiyatlar ta’siridan xoli bo‘la olmaydi. Shu bois, adib uslubi asarga o‘ziga xoslik baxsh etsa, asar o‘zi mansub janrni takomillashtirishga, janr esa metodni boyitishga xizmat qiladi. Ma’lumki, metod tushunchasi mohiyatida ijodkorning voqelikka, narsa va hodisalarga muayyan estetik munosabati aks etib,

tasvir haqqoniy, o‘z holicha (realizm), yohud ko‘tarinki ruhda hohish, orzu ifodasi sifatida (romantizm) voqe bo‘ladi. Bulardan birinchisida obyektivlik, ikkinchisida subyektivlik ustuvor bo‘lgani holda, realizm milliy adabiyotimizning etakchi ijodiy metodi sifatida haqqoniylik va badiiy tasviriylik barcha davrlarda uning asosiy mezonini bo‘lib kelmoqda. Hozirga kelib realizm imkoniyatlari, janrlar takomilidagi o‘rni tobora ko‘proq namoyon bo‘lmoqda. Buni an‘anaviy realizm atalmish metod va hikoya janri munosabatida ham yaqqol ko‘rish mumkin. Tahlilga tortilayotgan Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida ham uslubning o‘ziga xosligi, real tasvir metodining ustuvorligini kuzatamiz.



Yangi asrning texnik taraqqiyoti avj olayotgan bir paytda turmushning ba‘zi qatlamlarida hayotda kechayotgan turli jarayonlarni ijod ahli bor haqqoniyligi va ma‘naviy-ruhiy oqibatlari bilan tasvirga olmoqdalar. Ular bu murakkab holatlar tasviri orqali davr dramasini ochib berishga harakat qilmoqdalar. Odatda, san‘atkor hayot bilan tengma-teng yurmog‘i va uni mantiqan to‘g‘ri talqin qilmog‘i lozim. Bu hol oilaviy munosabatlar borasidagi yangilanishlarga ham to‘la taalluqli. Shu o‘rinda oiladagi erkak va ayolning o‘zaro munosabatlaridagi tub o‘zgarishlar tufayli yuzaga kelgan ruhiy g‘alayonlarni butun nozikligi va chigalliklari bilan qalamga olayotgan Salomat Vafo,

Abduqayum Yo‘ldosh, Zulfiya Qurolboy qizi, Difuza Qo‘zieva, Jamila Ergasheva kabi ijodkorlar hikoyalarida ayol va erkakning qalb kechinmalari yangicha yo‘sinda ifoda etilayotganini ta‘kidlash kerak. Bu yozuvchilarning aksariyat hikoyalarida oiladagi chigal, sertashvish, ba‘zan esa ilojisiz holatlar hayotiy lavhalarda bor murakkabligi bilan aks ettirilayotir. Bunday hikoyalarda insonning qayg‘uli ruhiy nidosi ifoda qilingani bois ham ular g‘oyat ta‘sirchan bo‘lib, o‘quvchilar qalbiga tez yetib boradi. Bu hikoyalar bilan tanishgan o‘quvchi mahzun ruhli qahramonlarni yonma-yon nafas olayotgandek, yaqindan tuyadi.

Zulfiya Qurolboy qizining hikoyalari ham shu yo‘nalishdagi shaxslarni badiiy tadqiq etish natijasida dunyoga kelgan asarlardir. Adiba hikoyalarining qahramonlari hayot tashvishlaridan qiynalgan, odamlararo munosabatlar chigalligidan azoblangan kishilar sirasiga kiradi. Qahramonlar ruhiy olamidagi kuchli po‘rtanalar, o‘lchovsiz iztiroblar jo‘ngina oilaviy munosabatlar, turmushning oddiygina tashvishlaridan tug‘iladi. Adibaning deyarli barcha asarlari taqdirning g‘aroyib to‘qnashuvlarini sinchkovlik bilan kuzatayotgan muallif-hikoyachining o‘y-kechinmalari tarzida ifoda etiladi. Adiba hikoyalarning aksariyatida ayol ruhiy kechinmalari, ko‘ngil jilvalariga e‘tibor kuchli, qalbidagi bir dunyo orzu-tilaklari, intilish-niyatlari bo‘lgan har biri o‘ziga xos qahramonlar tasvirlanganligi jihatidan ular o‘zaro mushtaraklik va alohidalik kasb etadi. Ularda bugungi turmushning ko‘pchilikka noma‘lum sinovlarini ifodalashga shoshilayotgan adiba nazari namoyon bo‘ladi. Xususan, uning “Ayol” hikoyasida ayol dardi, kechinmalari, botiniy olami mahorat bilan ko‘rsatiladi.

Asar bosh qahramoni Nafisa oliy ma'lumotli o'qituvchi bo'laturib, turmush taqozosi bois farroshlik qilishga majbur bo'lgan ayol. Eri Asilbekning uyda ishsiz o'tirishi uning muammolarini yanada kuchaytiradi. U maktabdan dars so'rab borganida maktab direktori unga faqat "dvornik" o'rni bo'sh ekanligini aytadi. Nafisa noiloj shu o'ringa rozi bo'ladi. "Ayol maktab hovlisiga chiqib atrofni kuzatdi. Nari borsa olti sotix chiqar. Ertalab va kechqurun... Ikki mahal... Bir-ikki soatda tozalab tashlash mumkin. Shu arzimagan ish uchun etti yuz so'm to'lashsa yomon emas. Eng muhimi - uyi bir qadam. Ana, balkon oynalari ko'rinib turibdi. Nima bo'lsa bo'lar, bugun hal qilmasa yana ikkilanib yuraveradi. Bu yoqda to'rtta bola. Uch oy muqaddam, o'zining aytishicha "nohaq ishdan bo'shatilgan er...". Hikoya qahramoni Nafisa shunday o'ylar bilan oliy ma'lumotli bo'lsa ham, shu ishga rozi bo'ladi. Ayol oila inqirozidan chiqishning yagona yo'li ishlash va yana ishlash deb biladi va bu ish faqat vaqtinchalik-ku, deb o'ziga tasalli beradi. Ayol qalbidagi iztiroblar ishga joylashgandan keyin ham to'xtamaydi. Negaki ayol "...Ochig'ini aytganda, birovga "ishlayapman" deyishga uyalardi. Ayniqsa, hovliga chiqib kun bo'yi gap sotib o'tiradigan qo'shni ayollardan tortinardi. Shu bois u har kuni vaqtli turar, tong yorishar-yorishmas maktabga borar, hamma yoqni supurib, ariqlarni tozalar, axlatlarni chiqarib tashlar, uzoqroqqa ishga qatnaydigan kishilar uylaridan chiqqanlarida u qoshi-ko'zi changga belanib uyga qaytayotgan bo'lardi. Kechki mahal esa hovlida bitta-yarimta tanishlarga yo'liqib qolmaslik uchun erga qaragancha maktab tomon shippillab jo'nab qolardi". Kitobxon asarni o'qir ekan, atrofida Nafisaga o'xshagan ayollar borligini his qiladi, chunki mazkur ayol obrazi juda jonli va hayotiy lavhalarda tasvir etilgan. Zulfiya Qurolboy qizi hikoyada kechinmalarni g'oyatda moddiy va ishonarli chizadi. Masalan, maktab direktori Dilbar Yusupovna obrazini kuzatganimizda ham mazkur holatga duch kelamiz. Hikoyada ba'zi bir rahbar xodimlarda uchraydigan kalondimog'lik, boshqalarga nisbatan bepisandlik xususiyatlari Dilbar Yusupovna obrazida yaqqol ko'rinadi. U Nafisaga doim ta'na-dashnom qiladi, ayolni ko'rganda ijirg'anib qo'ygani shundoqqina yuz-ko'zidan bilinib turadi. Nafisa yordam so'rab kirganda, uni shikoyatchi bilib, hammaga yomonlaydi. Aslida Nafisa ko'ngilchan, beozor, ammo nochor, qo'li qisqa ayol, hamkasbi Shahnoza Alievaning dardiga malham bo'lishni istaydi, lekin qo'lidan qech narsa kelmasligi uni qiynaydi. Hikoyada Shahnoza Alievna obrazi ham original tarzda yoritilgan. Bu ayol oq-sariqdan kelgan, qirq yoshlar atrofida bo'lib, doim bir xil kiyinar, oyog'idagi urinib qolgan tufisini paxta yog'i shimdirilgan latta bilan artib, yaltillatib yurardi. Shahnoza Alievna obrazining tashqi ko'rinishi tasviridan ham uning g'aribona hayot kechirishi bilinib turadi. Uni beshta bolasi bilan eri tashlab ketganligini Sanobar opa ismli hamkasbi Nafisaga gapirib beradi. Nafisaning "Nega tashlab ketadi?" degan savoliga esa, "Nega bo'lardi, opa bir vaqtlar kommunist bo'lgan, qirq soatlab dars olgan, uyga eri qatori, balki undan ham kechroq borgan... Ro'zg'or ishlari o'lda-jo'lda, qozon vaqtida qaynamagan, yana yarim kechgacha o'tirib daftar tekshiradi, darsga tayyorlanadi, erining ko'nglini olishga vaqt yo'q. Bunga hafsala ham bo'lmagan. O'sha vaqtlari o'qituvchi odmiroq bo'lishi kerak degan qonunmi, qoidami bo'lardi. Siz

bilasizmi-yo‘qmi, o‘qituvchi bechora o‘quvchilarning ko‘zi ochilmasin deb labiga pomada ham surolmasdi. Xullas, eri o‘zi bilan ishlaydigan bir ayolni sevib qolib, o‘shanikiga ketib qoladi...”, deb javob beradi. Hikoyada o‘tish davri voqealari ana shu tarzda ochiq-oydin bayon qilib boriladi.

O‘tish davri ko‘plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqargani sir emas. Ishsizlik, iqtisodiy tanglik - har qanday insonning oilaviy hayotiga ta’sir o‘tkazmay qolmaydi. Ayni chog‘da, turmushning og‘irlashuvi odamlar ma’naviy olamiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Maoshning kamligi ayrim o‘qituvchilarni ta’magirlik yo‘liga boshlagani asarda ishonarli tasvirlangan. Takabbur, shafqatsiz va ikkiyuzlamachi direktor Dilbar Yusupovning munofiqligi, beozor Shahnoza Alievning fojiali o‘limi Nafisaning tabiatiga qattiq ta’sir qilib, undagi tortinchoqlik, erkakka tik gapirmaslik kabi sifatlarni yemirib boradi. Toshdan qattiq tirikchilik, yo‘qchilik, atrofidagi odamlarning nosamimiy, sun’iy munosabatlari, munofiqlik singari illatlar uning asablarini egovlab, o‘ta tortinchoq ayolni jangari kimsaga aylantiradi. Nafisa erining yuziga qoyat og‘ir, nafratomuz so‘zlar aytib yuboradi. Bunday ruhiy portlash aslida turmushning adog‘siz, azobli sinovlari tufayli ro‘y beradi. Ayol ruhiyatidagi bunday evrilish jarayonini tasvirlash orqali bugunning kishisi ma’naviyatiga doir chigal muammolarni ko‘rsatib berish asarning qimmatini oshiradi.



Bugungi hikoyalarda inson ruhiy dunyosidagi shu kabi qirralarga ko‘proq e’tibor berilmoqda. Shu o‘rinda Zulfiya Qurolboy qizining “Hilola” hikoyasida ayol ruhiyatining go‘zal va kutilmagan manzaralari ifodalanadi. Yozuvchi turmush qurmay, yoshi o‘tib borayotgan qizning oilaviy baxt sari intilish jarayonidagi kechinmalarini dramatik ko‘rinishlarda ishonarli tasvirlagan. Hikoyada qiz bola uchun oila quvonch manbai, baxtli hayot ramzi ekanligi Hilola ruhiyatini ko‘rsatish asnosida tasvirlanadi.

Qizning ichki olami, uning oilaviy baxtga talpinishi hikoyaning markazida turadi. “Yolg‘izlik Yaratganga xos”,-deydi xalqimiz. Har bir odam o‘ziga suyanch bo‘ladigan odamga intiladi. Hikoya qahramoni Hilola o‘z joni hisobiga bo‘lsa ham oilaviy baxtdan bahramand bo‘lgisi, har bir ayol sazovor bo‘lishi



lozim bo‘lgan taqdirni kechirgisi keladi. Asar Hilolaning dugonasi – boshqa bir qiz tilidan hikoya qilinadi. Asarda Hilola uch kunlik oy - hilolga qiyos qilinadi, bu bilan esa asar qahramonining pokiza va go‘zal qalb egasi ekanligiga ishora qilinadi. Hilola yigirma besh-yigirma olti yoshlarda bo‘lsa ham, haligacha turmush qurmagan, ertalabdan kechgacha maktabda bo‘lar, ikki smenalab ishlar edi. Hamkasblari esa “Eri bo‘lmasa, bizga o‘xshab bola-chaqasi bo‘lmasa, bitta maosh bitta o‘ziga etmaydimi?”- deb hayron bo‘lishardi. Hilola kuni bo‘yi ish bilan band bo‘lib, o‘z dardi va hasratini unutishini bilishmasdi. Dugonasi bilan suhbat jarayonlarida Hilolaning ichki qalb dardlari ochila boradi. “...Mening o‘rnimda bo‘lganingda bilarding. Agar ishonsang, uyga borgim kelmaydi. Maktabda ishlagim, umuman, qishloqda bosh ko‘tarib yurgim kelmaydi. Uyalaman. Odamlardan uyalaman. Hamma qo‘lini bigiz qilib meni ko‘rsatayotgandek. “Qariqiz, hech kim uni olmaydi”, deyayotgandek tuyuladi. Uyda bo‘lsa...ukalarimning, kelinlarimning yuziga qaray olmayman. Kelinlarim bolasini erkalasa, erlari bilan hazillashishsa men yerga kirib ketay deyman. Ichimda nimadir chirt-chirt uziladi.”

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, adiba ayol tuyg‘ularini g‘oyatda nozik his qiladi. Hilola ko‘ra-bila turib o‘lim bilan yuzlashadi, chunki u hech kimdan kam bo‘lmaslikni, har bir qiz bola orzu qiladigan go‘zal baxtni, kelinlikni, suyukli yor bo‘lishni, onalik baxtni orzu qiladi. Hilola tug‘ma xastaligi, shifokorlar man etishlariga qaramay, qizlik sha‘ni, ko‘ngil mayli, deb oxiri halok bo‘lishini bila turib, o‘limga tik boradi, yosh jonini qurbon qiladi, Uning ushalgan orzusi – nikoh to‘yi sururi, kapalak umriga teng visol damlari azaga aylanadi. Chin inson uchun baxtli kunlarning qancha davom etgani emas, balki shu holatga yetmoqning o‘zi muhim ekanligi asarda butun fojiviy chigalligi bilan ko‘rsatilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –Toshkent. O‘qituvchi, 2001.-556-b.
2. Boltaboev H. Nasr va uslub.-T.Fan 1992. -112-b.
3. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. –Toshkent. Yangi asr avlodi, 2006. -778-b.
4. Karimov N. Mamajonov S va boshqalar. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. –Toshkent. O‘qituvchi. 1990. -100-b.
5. Mamajonov S. Uslub ilolari.–Toshkent. Adabiyot va san’at nashriyoti.1972. -219-b.

**PEDAGOGIKA****UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA TILGA E'TIBOR**

**Durdona  
RAJABOVA**

**Urganch Innovatsion  
universiteti pedagogika  
va boshlang'ich  
sinflarda metodik  
ta'lim kafedrası  
o'qituvchisi,  
Pedagogika fanlari  
nomzodi**

**UO'K 40.450**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim tizimida davlat tilini tizimli rivojlantirish, tilga bo'lgan e'tibor, dunyoda millat qadrini, uning borligini ko'rsatib turuvchi yagona vosita ekanligini ta'lim jarayoniga singdirish borasidagi qarashlar ko'rib chiqilgan.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются системное развитие государственного языка в сфере непрерывного образования, внимание к языку, взгляды на привитие в образовательном процессе того, что он является единственным инструментом, показывающим ценность нации и ее существование в мире.

**Annotation:** In this article, the systematic development of the state language in the continuous education system, attention to the language, views on instilling in the educational process that it is the only tool that shows the value of the nation and its existence in the world are considered.

**Kalit so'zlar:** til, davlat tili, ta'lim tizimi, jarayon, uzluksiz ta'lim.

**Ключевые слова:** язык, государственный язык, система образования, процесс, непрерывное образование.

**Key words:** language, state language, education system, process, continuous education.

Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan davrda har sohada oldinga siljish, o'sish, taraqqiyot mavjud. Bu ijtimoiy, siyosiy, madaniy, umuman, qaysi soha bo'lishidan qat'i nazar o'zini namoyon qilmoqda. Ijtimoiy sohadagi har bir yutuq o'zining natijasini bevosita siyosat, iqtisod kabi sohalarda namoyon qila oladi.

Xo'sh, ijimoiy sohaning asosiy mezonlaridan sanalgan tilimizga bo'lgan e'tibor qay darajada? Bugungi kunda biz o'zbek tilida so'zlashuvchi til vakillari sifatida unga qanchalik hurmat ko'rsata olyapmiz?! Uning obro'si uchun nimalar qila olyapmiz yoki qila olamiz? Mashhur adib Abdulla Qahhor yo'l qoidasini buzganga hushtak chalinishini, lekin til qoidasini buzganga hech kim hushtak chalmasligini kinoya qilib aytganda yuz chandon haq ekanligini zamon ko'rsatib turibdi. Masalan, yo'l-yo'lakay minglab mahsulotlarning turli xil reklamasiga ko'zimiz tushadi. Reklama matnidagi (matndagi uslubni-ku qo'ya turing) imlo


qoidalaridagi qo‘pol xatoliklardan insonning dili xufton bo‘ladi. To‘g‘ri, har qanday reklama turi xalq va uning negizida iqtisodiyotimizga ma‘lum bir foyda



keltiradi, ammo undagi tilnimizning nufuziga raxna solayotgan xatoliklar xalqimiz bilimiga, yoshlar savodiga o‘zining salbiy ta‘sirini ko‘rsatmay qolmasligini unutmaslik lozim. Shundan kelib chiqqan holda biz reklama matnlariga jiddiy e‘tibor berish tarafdorimiz. Xususan, ushbu kamchilikni bartaraf qilish uchun har bil tilchi o‘zining jonbozligini ko‘rsatmog‘i lozim, deb o‘ylaymiz. Tilning sofliqi uning targ‘ib etilishiga ham bog‘liq. Bu targ‘ibot esa e‘lon, reklama matnlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Bu dunyoda millat qadrini, uning borligini ko‘rsatib turuvchi yagona vosita uning tili sanaladi. “Tili yo‘q millat yo‘qlikka mahkum”- deb bejizga aytilmaydi. Ona tili – millatning ruhidir. Til — davlat timsoli, mulki. Tilni asrash, rivojlantirish – millatning yuksalishi demak. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yilgan. Shu tariqa o‘zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog‘i, gerbi, madhiyasi qatorida turadigan, qonun yo‘li bilan himoya qilinadigan muqaddas davlat ramziga aylandi.” Turkiy til, xususan, o‘zbek tili ham bugungi mavqeyiga osonlikcha yetib kelgani yo‘q. Bundan 35 yil muqaddam o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan edi. Bu o‘z davrida tom ma‘noda olamshumul voqea bo‘lgan edi. Chunki, Beruniy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniy, Alisher Navoiy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Bobur Mirzo singari buyuk siymolarni yetishtirgan xalq tili yo‘qolish arafasiga kelib qolgan edi. Mustaqillikka ilk qadamlar

tashlanayotgan davridayoq birinchi Prezidentimiz tomonidan o‘zbek tiliga davlat maqomi berish masalasi kun tartibiga qo‘yilib, bu ish amalga oshirilgan edi. Ona tilimiz – o‘zbek tiliga 1989 yil 21 - oktabrda davlat tili maqomi berildi. Bu mamlakatimiz, yurtdoshlarimiz hayotidagi unutilmas, tarixiy voqeaga aylandi. Agar o‘shanda til to‘g‘risida qonun qabul qilinmaganda edi, o‘zbek tili ham tarix sahifalaridan joy olgan bo‘larmidi? Til har bir millatning qadriyati, madaniyati, kechasi va bugunini ko‘rsatuvchi ko‘zgidur. Tildan to‘g‘ri foydalanmaslik, tilni qadrlamaslik uning tanazzuliga sababchi bo‘ladi.



“YUNESKO tomonidan nashr qilinadigan “Yo‘qolib ketish xavfi arafasida turgan jahon tillari atlası”da Yevropadagi 50 ta, Tinch okeani mintaqasidagi 200 ta til yo‘qolib ketish arafasida ekani ta‘kidlandi. Afrikadagi 1400 ta tildan 600 tasi kelajakda, 250 tasi esa yaqin orada butunlay yo‘qolishi haqida bong urilmoqda”. Ming afsuski, hozirgi kunda tilimizdagi turli g‘alizliklar, ya‘ni so‘zlarni buzib aytish, jargon va argolardan foydalanish kabi omillar tilimiz

mavqeyiga putur yetkazmoqda. Masalan, yoshlar nutqida ishlatiladigan “ok” so‘zi o‘zbek tilidagi “Xo‘p” so‘zi o‘rnida qo‘llanilmoqda. Bir qarashda bu tilni “mensimaslik”, “kamsitish “ ma‘nosida ifodalayotgandek tuyuladi. Bundan tashqari, ruscha baynalmilal so‘zlar ham nutqimizga shunchalik joylashdiki, biz ulardan o‘zbekcha so‘zlarning o‘rnida foydalanib kelmoqdamiz. Masalan, “umuman” so‘zi o‘rnida “vapshe” so‘zini qo‘llashimiz shu jumladandir. Hatto ba‘zilar ruscha baynalmilal so‘zlarning sof o‘zbekcha variantini ham bilishmaydi. Bu holatlar bugungi jamiyatimiz oldidagi eng katta muammolarimizdan biridir. Chunki, yuqorida aytganimizdek, til davlat madaniyatini ko‘rsatib beradi. Buyuk ma‘rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy yozganidek: “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”.

Turkiya turizmi tizimida shunday bir turizm turi bor. Turkiyaga kelmoqchi bo‘lgan sayyohlar maxsus internet saytidan turkiyalik aholi bilan kelishib, Turkiyadagi mehmonxonalarga emas, kelishilgan oilaning uyiga sayohatchi bo‘lib keladi. Bu bilan ular nafaqat u mamlakat go‘zalligidan bahramand bo‘ladi, balki shu yerning madaniyatini yanada yaxshiroq bilish imkoniyatini yaratadi.

Bundan tashqari, siz xorijlik bir odam bilan gaplashsangiz, u odamning tili orqali madaniyatini ham bilib olasiz.

O‘zbek tili shu kunga yetib kelgunga qadar juda ko‘p mashaqqatlarni boshdan kechirgan. Rus bosqini paytida o‘zbek tilining mavqeyi deyarli yo‘qolish arafasida edi. Ana shu paytlarda general Skobelev aytganidek, “Davlatni yo‘q qilish uchun uni qirish shart emas, tili va madaniyatini yo‘q qilish kifoya”. Xususan, adiblarimiz hayotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularning tazyiq va bosim ostida yashaganligini ko‘ramiz. Maktab ochib, bolalarga ta‘lim bermoqchi bo‘lgan jonkuyar jadidlarimiz boshiga tushgan musibatlar hammamizga ayon. Lekin o‘zbek tili o‘zligini saqladi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligi tilimizning barqarorligini yana bir bor mustahkamlab qo‘ydi.

O‘zbek tilining borlig‘i, boyligi, bo‘y-basti-yu butunligini ko‘rsata olgan filologiya fanlari doktori, professor Nizomiddin Mahmudov ta‘kidlaganlaridek, “Odamni, olamni va Olohni tanimoqday mashaqqatli, sharaflil yo‘lning avvaloxir charog‘boni shu tildir. Dunyoda o‘zining kimligini anglash, qavmining hamiyati va hurligini ko‘rish tuyg‘usi ham, avvalo, til tufayli poydordir. Ona tilining inson aqliy va ma‘naviy-ruhiy dunyosining tayanchi ekanligidan iborat haqiqatni hushi o‘zida bo‘lgan odamlarning barchasi e‘tirof etadi.” O‘zbek tilining me‘yorlari mukammal shakllanganligi o‘zbek xalqi madaniyatining ulkan yutug‘idir. Millatimizning millatligini ko‘rsatuvchi, “...borligi, birligi, va butunligidan iborat boqiy baxtining bukilmas taxti” hisoblanuvchi raso va ravon tilimizning buguni va ertasi uchun har birimiz mas‘ulmiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muqimova Z. O‘zbek tili- o‘zbek xalqining o‘zligi, 2021-yil.
2. [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz)
3. A.Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq”, Toshkent 1992.

**PEDAGOGIKA****UMUMTA'LIM MAKTABLARINI O'QITUVCHI KADRLAR BILAN  
TA'MINLASHDAGI O'ZGARISHLAR: YUTUQ VA MUAMMOLAR  
(1946-1960 yillar)****Sherzodbek  
RO'ZIQULOV****Andijon davlat  
pedagogika instituti  
ijtimoiy fanlar  
kafedrasi  
o'qituvchisi****UO'K 40.450**

**Annotatsiya:** Maqolada ikkinchi jahon urushidan keyingi yillaridan to 1960-yillarga qadar O'zbekiston SSRda pedagogik ta'lim va pedagog kadrlar tayyorlash tizimida yuz bergan o'zgarishlar haqida sўz boradi. Oliy ta'lim va o'rta maxsus ta'lim sohasiga oid sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan islohotlar, ularni hayotga tadbiiq etishdagi muammolar, pedagogik ta'lim sohasida erishilgan yutuqlar hamda tizimda vijudga kelgan muammolar mavjud manbalar asosida yoritlgan.

**Аннотация:** В статье идёт речь об изменениях, произошедших в системе педагогического образования, подготовках педагогических кадров в Узбекской ССР в годы после Второй мировой войны. Освещаются реформы, проводимые советской властью в области высшего и среднего специального образования, проблемы их реализации, достижения в области педагогического образования.

**Annotation:** In the article, the changes that occurred in the system of pedagogical education and pedagogical staff training in the Uzbek SSR in the years after the Second World War, the reforms implemented by the Soviet authorities in the field of higher education and secondary special education, laws and decisions, problems in their implementation, achievements in the field of pedagogical education efforts were made to highlight the achievements and problems in the education system based on available sources.

**Kalit so'zlar:** ta'lim sohasi, oliy ta'lim, o'rta maxsus ta'lim, kasb-hunar bilim yurtlari, texnikum, pedagogika bilim yurtlari, kommunistik partiya, siyosat, kommunistik mafkura, qarorlar, qonun.

**Ключевые слова:** образования, высшее образование, среднее специальное образование, профессиональные училища, техникумы, педагогические училища, коммунистическая партия, политика, коммунистическая идеология, решения, закон.

**Key words:** field of education, higher education, special secondary education, vocational schools, technical schools, pedagogical schools, communist party, politics, communist ideology, decisions, law.

Tarixdan ma'lumki, ta'lim jarayonining asosiy tayanchi hisoblangan pedagog kadrlarga talab hamisha yuqori bo'lgan. Mamlakatimizda sovet hokimiyati hukmronligi yillarida ham jamiyatning rivojlanishida pedagog kadrlarning juda katta hissasi bor. Bu davr O'zbekiston tarixida o'ziga xos o'rin tutadi. U o'zining murakkabligi va ziddiyatlilik bilan ajralib turadi. Urushdan keyingi xalq xo'jaligini qayta tiklash yillarida ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda jamiyatning barcha sohalarida mutaxassislar yetishmas edi. Bu ta'lim tizimida ham mavjud edi va bu muammo ayrim islohotlar orqali hal etildi. Xususan, xalq ta'limi sohasidagi kadrlar yetishmasligi muammosini o'quv yurtlari sonini ko'paytirish va qabul kvotalari hajmini oshirish orqali yechishga harakat qilindi. Shuningdek, ta'lim olishning boshqa shakllari ham yo'lga qo'yildi. Maktablarda yetti yillik majburiy ta'lim joriy etilishi natijasida pedagog kadrlar soni yanada ko'paytirildi va ularga qator imtiyozlar berildi.

O'zbekistonda ta'lim tizimi va uning Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillardagi ahvoriga doir bugunga qadar ko'plab monografiya, risola, maqola, hujjatlar to'plami va xotira kitoblari chop etilgan. Mavzuga oid sovet davrida yaratilgan ilmiy-tadqiqotlar ko'proq kommunistik mafkura izmida yaratilgan bo'lib, ularda sovet davri ta'lim tizimining afzalliklari, kommunistik partiya tomonidan ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar, ularning natijalari, pedagog kadrlarni tayyorlash sohasidagi o'zgarishlarga ijobiy jihatdan baho berish bilan birgalikda xotin-qizlar ta'limiga ham to'xtalib o'tilgan. Jumladan, I.K.Qodirov, Sh.N. Ulmasov S. Sodiqov., X. Zufarov, N. Raxmonov kabi tadqiqotchilarning ilmiy tadqiqotlarida[1.] O'zbekiston SSRda sovet hokimiyati yillarida ta'lim tizimida ro'y bergan o'zgarishlar tarixini kommunistik mafkura andozasida atroflicha bayon etishga harakat qilganlar.

Shuningdek, mavzuga oid mustaqillik yillarida O'zbekistonda urushdan keyingi yillarda ta'lim tizimida ro'y bergan o'zgarishlar, ta'lim tizimiga malakali kadrlarni tayyorlash sohasida erishilgan yutuq hamda muammolar, umumta'lim maktablarida o'qituvchilar sonining ortib borishi, ta'lim maskanlari sonining ko'payishi, ta'lim sohasiga oid hukumat qarorlari va ularni hayotga tadbiiq etishdagi muammolarga oid qator ilmiy tadqiqotlar yaratildi[2.].

O'zbekiston maktablarida o'qituvchi xodimlarning yetishmovchiligi masalasi urushdan keyingi yillardagi eng jiddiy muammolardan biri edi. Chunki malakali o'qituvchilar asosan urushga yuborilgan, ularning ko'pchiligi halok bo'lgandi. Xususan, 1947-yilda respublika bo'yicha 4 ming o'qituvchi yetishmas edi. Tuman xalq maorifi bo'limlari mudirlari, maktab direktorlari va ta'lim bo'yicha direktor muovnlarning 60 foizdan ko'prog'i tegishli ma'lumotga ega

emasdi. 1950-yilda O‘zbekistondagi 7125 ta maktabda o‘qituvchilarga ehtiyoj mfvjud edi [3.223].

Bu davrda pedagogik kadrlarni tayyorlash, ularning sifatini oshirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlardan biri bo‘lgan 1947-yil avgustda respublika hukumati tomonidan qabul qilingan “Pedagogik o‘quv yurtlari ishlarini yaxshilash tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori [4.10] va uning ijrosi yuzasidan belgilangan vazifalar tizimda ayrim o‘zgarishlarni amalga oshirishga qaratildi. 1946-1947-o‘quv yilining birinchi yarmida respublikada o‘rta maxsus ta’lim tizimini tashkil etishda ham kadrlar masalasida ayrim muammolar mavjud edi. Bu davrda pedagogika bilim yurtlari tarmog‘i 21 tani tashkil qilgan. Talabalar tarkibi 1946-1947-o‘quv yilining sentyabr holatiga ko‘ra 5183 kishi, shundan 2588 nafari ayollar, shu jumladan, mahalliy millat vakillari 3028 nafarni tashkil etgan. O‘qituvchilar jamoasi esa pedagogika o‘quv yurtlarini bitirgan 385 nafar bitiruvchi hisobidan ta’minlangan. Ulardan oliy ma’lumotli 262 nafarni, to‘liq bo‘lmagan oliy ma’lumotli 91 nafarni, o‘rta ma’lumotli 31 nafarni tashkil etgan. Shuningdek, ularning 122 nafari pedagogika bilim yurtlarida ayrim ta’lim yo‘nalishlarida dars berish huquqiga ega bo‘lmagan o‘qituvchilar ham mutaxassis yo‘qligidan, ayniqsa, o‘zbek tili va adabiyoti, pedagogika-psixologiya, musiqa fanlari bo‘yicha o‘qituvchilar yetishmasligi tufayli ishlashga to‘g‘ri kelgan. Bu jarayonda albatta tajriba muhim hisoblanib, bu o‘qituvchilardan 10 yillik tajribaga ega bo‘lgani 219 nafarni, 5 yildan 10 yilgacha bo‘lgani 99 nafarni, 5 yilgacha bo‘lgani 61 nafarni tashkil etgan [5.5].

1945-1946-o‘quv yilida O‘zbekiston SSR Maorif ministrligi tizimida 2 ta universitet, 5 ta kunduzgi va 3 ta kechki ta’lim beradigan pedagogika institutlari faoliyat olib bordi [6.54]. Bu oliy ta’lim muassasalarning keyingi davrlarda umumta’lim maktablariga o‘qituvchi kadrlar tayyorlab berishda xizmati katta bo‘ldi.

O‘zbekistonda XX asrning 50-yillarida maktablarga pedagog o‘qituvchi kadrlarni tayyorlash ishlari maktablarda o‘quvchilar va sinflar sonining ortib borishidan orqada qolgan edi. Bu esa o‘z navbatida maktablarda o‘qituvchilar yetishmasligini keltirib chiqargan. 1951-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra respublikada 4952 ta maktab faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 1951-1952-o‘quv yilining oxiriga kelib respublika bo‘yicha maktablar soni 5200 taga yetgan. Yetti yillik o‘rta maktablarning o‘zi 274 taga ko‘paygan. Qishloq joylarda yetti yillik to‘liqsiz o‘rta maktablar hamda ulardagi o‘quvchilar soning shiddat bilan o‘sib borishi 1951-1952-o‘quv yilining o‘zida O‘zbekiston SSR maorif ministrligiga qarashli maktablarda 18 ming pedagogik ma’lumotga ega bo‘lmagan o‘qituvchilarni ishda ushlab turishga majbur etgandi [7.7,8]



1951-1952-o‘quv yilining boshida O‘zbekiston SSR maktablarida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilarning umumiy soni va milliy tarkibi direktorlar hamda o‘rinbosarlar bilan qo‘shib hisoblaganda quyidagicha ko‘rinishda bo‘lgan:

Jami o‘qituvchilar 47 421 nafar (ayollar 18 712 nafar) bo‘lib, ulardan oliy ma‘lumotlilar 5543 nafar (ayollar 2419 nafar), xorijiy til o‘qituvchilari 11146 nafar (ayollar 3542 nafar)ni tashkil qilgan. Milliy tarkibiga ko‘ra o‘zbeklar 22 210 nafar (ayollar 6119 nafar) bo‘lib, ularning 1559 nafari (ayollar 328 nafar) oliy ma‘lumotli, xorijiy til o‘qituvchilari 4390 nafar (ayollar 1033 nafar) ni tashkil etgan. Bu ma‘lumotdan ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchilar orasida oliy ma‘lumotli o‘qituvchilar, butun o‘qituvchilar kontingentiga solishtirganda nihoyatda ozchilikni tashkil qilgan. Milliy tarkibga ko‘ra birinchi o‘rinda o‘zbeklar bo‘lsa, ikkinchi o‘rinda rus millatiga mansub o‘qituvchilar turgan. Ularning ichida oliy ma‘lumotli o‘qituvchilar soni o‘zbek millatiga mansub 22210 nafar o‘qituvchining bor yo‘g‘i 1559 nafari oliy ma‘lumotli bo‘lgani holda rus millatiga mansub 9136 nafar o‘qituvchidan 2196 nafari oliy ma‘lumotli bo‘lgan [8.1-11]. Ko‘rinib turibdiki, yerli xalq vakillari orasida oliy ma‘lumotli o‘qituvchilar soni nisbatan kam bo‘lgan.

1951-yil holatiga ko‘ra O‘zbekistonda 6 ta pedagogika institutlari, 11 ta o‘qituvchilar institutlari va 21 ta pedagogika uchilishilari malakali pedagog kadrlarni tayyorlash bilan mashg‘ul bo‘lgan. O‘qituvchilarni qayta tayyorlash va kasb malakasini oshirish bilan 2 ta institut shug‘ullangan. Respublikadagi 2 ta kechki pedagogika institutlarida, 5 ta pedagogika institutlarida, 9 ta o‘qituvchilar institutlari va 16 ta pedagogika institutlarida sirtqi bo‘limlar faoliyat ko‘rsatgan.

1952-yil holatiga ko‘ra respublika oliy o‘quv yurtlarining kunduzgi bo‘limlarida 10043 nafar talaba, pedagogika uchilishilarining kunduzgi bo‘limlarida 9257 talaba tahsil olgan. Pedagogika o‘quv dargohlarining sirtqi bo‘limlarida jami 13739 talaba tahsil olgan. Pedagogika oliy o‘quv yurtlarida atigi 107 nafar ilmiy darajali pedagog kadrlar faoliyat olib borgan. Respublika bo‘yicha mavjud pedagogika uchilishilarida jami 505 nafar o‘qituvchi asosiy shtatda ishlagan [9.8]. Ko‘rinib turibdiki, oliy va o‘rta ta‘lim maskanlarida ham dars beruvchi professor-o‘qituvchilar yetishmas, ularning juda ozchiligi ilmiy daraja va unvonlarga ega edi.

O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1948-yil 14-yanvarda qabul qilgan “O‘rta maktablarda chet tili o‘qitishni yaxshilash” haqidagi qarori asosida nemis, ingliz, fransuz tillaridan dars soatlari ko‘paytirildi. Ammo chet tillarni o‘rgatishga bo‘lgan e‘tiborning ortib borishi mutaxassis o‘qituvchilar yetishmasligi muammosini keltirib chiqardi. Ayni masalani yechish maqsadida 1948-yili Toshkent davlat chet tillari instituti, 1963-yili Toshkent shahrida Rus tili va

adabiyoti instituti, 1964-yili Andijon shahrida Chet tillari instituti ochildi. Chet tiliga ixtisoslashgan oliy o'quv yurtlarida fakultetlar va ixtisosliklar soni ham oshib bordi. Lekin shunga qaramay, respublikada ingliz, tojik, rus tilidan dars beradigan o'qituvchilar yetishmas edi.

Sovet hukumati davrida ham "ruslashtirish" siyosati davom etdi. Xususan, o'lkada milliy madaniyatni yo'q qilish maqsadida rus tilini keng yoyish uchun harakat qilindi. Ayni paytda rus tilining rasmiy til sifatida maqomga egaligi rus tili o'qituvchilariga bo'lgan ehtiyojni sun'iy ravishda oshirar edi. Maktablarda rus tili fani o'qituvchilari alohida nazoratda bo'ldi. Rus tilida dars beruvchi o'qituvchilar yetishmasligi muammosini bartaraf etish niqobi ostida Rossiya va Ukrainadan o'qituvchilar yo'llanma asosida ishga jo'natilar edi. Ular respublika aholisining milliy madaniyatiga ham ta'sir ko'rsatar edi. Ya'ni, O'zbekistonda baynalmilal oilalar soni ham ko'payib bordi.

Oliygozlarda rus tili fakultetlari soni ko'payib, mutaxassis o'qituvchilar mahalliy xalq vakillaridan respublikaning o'zida tayyorlana boshlandi. 1960-yillardan keyin chetdan keladigan o'qituvchilarga bo'lgan talab kamaya bordi. Xususan, arxiv manbalarida Andijon oblasti xalq ta'limiga 1956-1961-yillar davomida Ukraina va RSFSRdan kelayotgan o'qituvchilar soni 166 nafardan 2 nafargacha kamaygani keltirilgan[10.37].

Urushdan keyingi yillarda pedagogik ta'lim muassasalarining ish sifatini har tomonlama yaxshilashga qaratilgan amaliy ishlar ham o'z natijasini berdi. Jumladan, pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida va o'rta maxsus pedagogika bilim yurtlarida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar jamoasida ijtimoiy-ma'naviy muhitda hamda talabalarining o'quv va maktabdan tashqari jarayonida olib borilayotgan g'oyaviy-siyosiy tarbiyasida sezilarli darajada o'zgarishlar kuzatildi. Barcha pedagogika institutlari va o'rta maxsus bilim yurtlarida partiya tashkilotlari tomonidan jamiyatda ro'y berayotgan voqea-hodisalar to'g'risida tizimli ravishda joylarda keng targ'ibot ishlari olib borildi. Shuningdek, doimiy ravishda sovet adabiyoti va san'ati asarlari bo'yicha bahslar tashkil etildi. Talabalar tomonidan ijtimoiy-siyosiy mavzularda insholar yozish institutlarda keng tarqalgan amaliyotga aylandi. Shu o'rinda aytish kerakki, bu tadbirlarning barchasi talaba-yoshlarda marksistik-lenincha dunyoqarashni shakllantirishga bag'ishlangan bo'lib, sovet hukumatining asosiy maqsadi haqiqiy "Sovet o'qituvchilari"ni tayyorlashga qaratilgan edi.

Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston SSR da pedagogik kadrlar tayyorlash tizimida amalga oshirilgan islohotlar natijasida turli o'quv yurtlarida minglab pedagoglar tayyorlandi va ular ta'lim tizimida o'z faoliyatlarini olib bordilar. Bu sohada bir qator ijobiy o'zgarishlarga erishilgan bo'lsa-da, pedagog kadrlar tayyorlovchi ta'lim muassasalarida tarbiyalangan o'qituvchilar sovet

hukumati ilgari surgan mafkura va g'oyalarini o'quvchi-yoshlar ongiga singdirish, sekin-astalik bilan milliylikni izdan chiqarish kabi g'oyalar asosida o'qitildi. Biroq, shunday bo'lishiga qaramay, o'z kasbining fidoyilari bo'lgan ko'plab pedagog kadrlar milliy an'analarga sodiq qolib, ularni saqlab qolishga va kelajak avlodga yetkazishga o'z hissasini qo'shdilar.

Ko'rilgan davrda ayniqsa, oliy ta'lim muassasalari sonini ko'payishi va ularda kechki va sirtqi ta'lim shakllarining tashkil etilishi, yoshlarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlari kuchayib borishi natijasida ko'plab umumta'lim maktablarida o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyoj qondirildi. O'qituvchilar soni ko'payib, ularning orasida ayollar salmog'i ham ortib borishi esa bu davr islohotlarining samarali natijasi bo'ldi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кади́ров И.К. Народное образование в Узбекской ССР за 30 лет. – Ташкент: Учпедгиз, 1954. – 126 с.; Унинг ўзи. Ўзбекистон халқ маорифининг 40 йил ичида эришган ютуқлари. –Тошкент, 1957; Унинг ўзи. Успехи народного образования в Узбекской ССР. – Ташкент: Госиздат, 1957. – 129 с.; Унинг ўзи. Ўзбекистон ССРда халқ маорифи. – Тошкент: Ўздавнашпр, 1961. – 63 б.; Унинг ўзи. Народное образование Советского Узбекистана. – Ташкент: Узбекистан, 1964. – 81 с.; Унинг ўзи. Развитие школ УзССР послевоенный период. – Ташкент: Укитувчи, 1965. – 216 с.; Унинг ўзи. Очерки развития общеобразовательной школы в Советского Узбекистана. – Ташкент: Укитувчи, 1974. – 212 с.; Улмасбаев Ш.Н. Промышленное развитие советского Узбекистана. – Ташкент, 1958 Садыков С. Очерки развития высшего образования в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1969. – 229 с.; Рахманов Н. Развитие педагогического образования в Узбекистане. – Ташкент: Узбекистан, 1976. – 176 б.

2. Хаджиева М.Д. Социальное развитие села Узбекистана в конце 70-х и начале 80-х годов: опыт и проблемы. Дисс. на соиск. ...канд. ист. наук. – Ташкент, 1992. – 200 с Эргашев К. Развитие общеобразовательной школы в Узбекистане 70-е-90-е гг.: проблемы и тенденции. –Ташкент, 1996.

3. O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). Ikkinchi kitob 1939-1991-yillar. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.

4. O'z MA, R-94-fond, 5-ro'xat, 4823 – ish

5. O'z MA, R-94-fond, 5-ro'xat, 4996 — ish

6. Рахманов Н. Развитие народного образования в Узбекистане. – Ташкент: Узбекистан, 1976

7. O'z MA, R-94-fond, 5-ro'xat, 5674-ish

8. O'z MA, R-94-fond, 5-ro'xat, 5422-ish

9. O'z MA, R-94-fond, 5-ro'xat, 5674-ish

10. Andijon VDA, 505- fond, 1- ro'xat, 188-ish

**PEDAGOGIKA****SHAXS RIVOJLANISHIDA HADISLARNING AHAMIYATI**

**Maysara  
AXMEDOVA**

**Urganch  
innovatsion  
universiteti  
o'qituvchisi**

**UO'K 40.450**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada individ, inson, shaxs va akmeshaxs tushunchasining farqli jihatlari va chinakam akmeshaxsning kamolga yetishi borasidagi jahon va MDH davlatlari olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqot izlanishlari, jumladan chinakam kamolotga erishishda aqliy va ahloqiy tarbiyaning uyg'unligini ta'minlashda hadislarining ahamiyatlilik darajasi borasidagi fikrlar o'rin olgan.

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены различные аспекты понятия личности, человека, акме личности и исследования, проведенные учеными мира и стран СНГ по вопросам формирования подлинной личности, в том числе мнения о значении хадисов в обеспечении гармонии умственного и нравственного воспитания в достижении истинной зрелости.

**Annotation:** In this article, the different aspects of the concept of individual, person, acme person and the research carried out by scientists of the world and CIS countries on the maturation of a true personality, including opinions on the importance of hadiths in ensuring the harmony of mental education and moral education in achieving true maturity got rin

**Kalit so'zlar:** individ, shaxs, akmeshaxs, akmeologiya, "Qur'oni Karim", pedagog, muhaddis, mikro, mezzo, makromuhit.

**Ключевые слова:** человек, личность, акмеология, "Qur'oni Karim", педагог, микро, мезо, макросреда.

**Key words:** individual, person, acme person, acmeology, "Qur'oni Karim", educator, editor, micro, mezzo, macro environment

Insoniyat butun umri davomida turlicha muammolarga duch kelgan. Lekin ular ichida o'zining dolzarbligini yo'qotmay kelayotgan shunday muammo borki, u nafaqat yakka shaxsga, balki jamiyat hayotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Bu akmeshaxsni tarbiyalashdir. Biz kundalik muloqotda shaxs tushunchasiga ko'p bora murojaat qilamiz. Lekin akmeshaxs kim o'zi, degan tabiiy savol tug'ilishi mumkin, albatta. Pedagogik akmeologiya sohasi doirasida bu savolga quyidagicha ta'rif berilgan: "Akme" – yunoncha yuksalish, cho'qqi degan ma'nolarni anglatib, shaxsning komillikda eng yuqori darajaga erishishini nazarda tutadi.


“Akmeologiya asoslari” fani mavzulari bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlarning o‘zbek milliy modeli asosida tuzilgan loyiha-darslik kitobi muallifi G.H.Tillayeva, rus professorlari A.A.Derkach, V.G.Zazikin “Акмеология” asari orqali insonning professionalizmga erishuvi, insonning komillikka erishuvi, yulduzli onlari, eng oliy nuqta [1.200 b] deb ta’riflashgan.

Qozog‘istonlik pedagoglar A.B.Ospanova, K.D.Beysembaeva ham “Акмеология” asari orqali akmeshaxs erishuv bosqichlarini yosh chegaralari bosqichlari doirasida yoritib berishgan. Shaxs kamoloti borasida so‘z ketar ekan, bunda hadis ilmining sultoni Imom Buxoriyning ham xizmatlari kattaligini e’tirof etishimiz lozim. Xususan, Imom Buxoriy merosini o‘rganish borasida Misr Al-Azhar Islom tadqiqotlari majmuasi bosh kotibi, professor Muhammad Nazar Ayyad, Rossiya Bulg‘or islom akademiyasi professori Muhammad Ayman Zahroviy, Malayziya Islomni anglash instituti ilmiy xodimi Muhammad Xusni Mohid Amin Imom Buxoriy asarlari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borishgan. Turkiyalik hadisshunos olim, Anqara Yildirim Boyazid universiteti professori Ahmad Yildirim o‘z tadqiqotlari natijasidan kelib chiqqan holda Imom Buxoriyning “Al-jome’ as-saxix” asari bugungi globallashuv jarayonida ba’zi bir muammoli masalalarni yechishda asosiy manba bo‘lib xizmat qilishini o‘rgangan. Rossiya Federatsiyasi Oliy ta’lim Vazirligi tomonidan Ibragimov I.D, Chomaev Z.A lar hammuallifligida “Hadis o‘rganish nazariyasi va amaliyoti” (dastlabki bosqich) bo‘yicha darslik yaratilgan. Unda hadislar, ularning leksik ma’nolari, shuningdek, hadislarini o‘rganish yuzasidan topshiriqlar o‘rin olgan. Buxoriyning hayoti va faoliyatiga bevosita bag‘ishlangan monografik asarlar nisbatan kam. Oxirgi 15 yillik davrni sarhisob qiladigan bo‘lsak, bu borada pokistonlik doktor Hasan Abdul Jabborning 2007-yilda Oksfordda nashr qilingan “Buxoriy” asarini keltirishimiz mumkin.

Akmeshaxsni tarbiyalash borasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shaxsning kamol topishida mikra, mezo va makromuhitlarning bevosita ta’siri mavjud. Insonning chinakam komillik darajasiga erishuvda o‘tmish ajdodlarimizning qadimiy meroslari va qoldirgan nodir manbalarining ham o‘rni beqiyos. Hadislar orqali ham insonda yuksak sifatlar va tuyg‘ularni shakllantirish mumkin. Islom dini ta’limotida “Qur’oni Karim”dan keyin asosiy manba hadisi shariflardir. Hadis ilmi bilan shug‘ullanish VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlanib, unga eng bilimdon, mo‘tabar shaxslargina tartib bergan. VIII-XI asrlarda to‘rt yuzdan ortiq muhaddislar hadis ilmi bilan shug‘ullanishgan. Mazkur muhaddislar ichida Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy 194(810)-256(870) [4. 50 b] chinakam akmeshaxs darajasiga erishgan. Zero, uni butun islom sivilizatsiyasida bilmaydigan, tanimaydigan inson yo‘q. Uning ilm olish uchun qilgan safarlarining o‘zi olimning kuchli iroda sohibi ekanligini ko‘rsatadi. Uning hadislarini to‘plash uchun bosib o‘tgan bir martalik yo‘li 13 900 kilometrni tashkil qilgan. Imom Buxoriy hadis ilmi bo‘yicha “Alloh taoloning yer yuzidagii mo‘jizasi” deb tan olingan. Imom Buxoriy bolalik chog‘ida 70 000 dan ortiq hadisni hamda uni rivoyat qiluvchilarning tarjimai hollarini xotirasida saqlagan.

Imom Buxoriyning “Al-Jome’ as-saxix” asarida keltirilgan ma’lumotlar va hadislar insonning jismoniy, ruhiy va ahloqiy tarbiyasida bevosita katta ahamiyatga ega. Unda insonni kamolotga yoki zalolatga yetaklovchi amallar borasidagi qiyosiy tahlilni ham ko‘rishimiz mumkin. Ushbu asar Imom Buxoriyni akmeshaxs darajasiga olib chiqqan.

Akmeshaxsning rivojlanish strukturasi quyidagi ko‘rinishda ifodalash maqsadga muvofiq.



1-rasm

**1.Individ** –lotincha “individum”, “bo‘linmas” ma’nosini anglatadi. Individ bolaning ma’lum bir yoshgacha bo‘lgan davrini o‘z ichiga oladi. Bu davr fanda o‘rtacha 3 yosh deb olingan.

**2.Inson** – bu dunyoning aziz-u mukarram hilqati, mavjudotlar ichida sarvaridir. Aqllilik, ma’naviyat insonga xos eng muhim xususiyatlar bo‘lib, ular insonning mohiyatidan kelib chiqadi.

**3. Shaxs** – alohida individ, mohiyatan yaxlit ijtimoiy-ahloqiy olam. U o‘zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi.

**4.Akmeshaxs** – yetuk intellektual salohiyatli, ahloqan pok, yuksak professional mutaxassis, jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlashtirishning asosiy kuchi.

Hadislarda insonning kamolotga erishishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar ifoda etilgan bo‘lib, ushbu fazilatlar sirasiga ota-ona, kattalar va qarindoshlarga nisbatan muruvvatli bo‘lish, shafqatlilik, kamtarlik, rostgo‘ylik, inson o‘zini yomon illatlardan tiyishiga qaratilgan pand- nasihatlar ham o‘z aksini topganki, bularning barchasi komil insonni tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi [4]. Inson qalbi e’tiqoddan, e’tiqod esa ichonchdan kuch olgani kabi, inson ma’naviyati ham bevosita buyuk allomalarimizning merosidan kuch oladi.

Imom Buxoriy kimki farovon hayot kechirib, o‘zidan yaxshi nom qoldirmoqchi bo‘lsa, eng avvalo, qarindosh-urug‘lariga siylayi rahm qilishi, ularning hol-ahvolidan xabardor bo‘lishi zarurligini ta’kidlaydi. Insonlar bir-biriga tili bilan, qo‘li bilan ozor bermaslikni yuksak amal deb hisoblagan va allomaning o‘zi ham bunga qattiy amal qilgan. Ulug‘ allomaning ta’kidlashicha, har bir inson komillikka erishuvida asosiy mezon sifatida “men” konsepsiyasining “biz” konsepsiyasiga aylana borishi, ya’ni o‘zi yaxshi ko‘radigan narsalarni o‘zgalarga ham ravo ko‘radigan go‘zal ahloqli bo‘lishi kerak. Allomaning hadislar to‘plamida insonning eng yaxshi muloqoti deb kerakli joyda jim tura

bilishlikdir deya, bu bilan insonlar soʻz orqali kelishi mumkin boʻlgan konfliktli vaziyatlardan saqlanishi mumkinligiga alohida urgʻu bergan. Mutafakkir oilaviy muhitning barqaror, tinch, oila aʼzolarining sogʻ-salomat, toʻq boʻlishini istaydi. Shunday boʻlgan oila baxt-saodatga erishishi shubhasizdir. Pedagogik soha boʻyicha tahlil etadigan boʻlsak, “felisitalogik” funksiyasining asosini ham asosan mazkur shaxslararo muloqot jarayoni tashkil etadi. Oila tarbiyasida faol kuzatuvchi sifatida farzand bevosita ota-ona munosabatlaridan oʻziga shaxsiy namuna oladi. Bu oʻrinda oʻzbek xalqining “qush uyasida koʻrganini qiladi” maqoliga ingliz xalqining “siz farzandlaringizni tarbiyalamang, oʻzingizni tarbiyalang” maqolini sinxron ravishda qoʻllaydigan boʻlsak, darhaqiqat farzand tarbiyasida shaxsiy namunaning oʻrni beqiyosdir. Oilaning “felisitalogik” funksiyasida esa oiladagi har bir insonning oʻrni va darajasi kimyo fanida qoʻllaniladigan “zanjir reaksiyasi”ning yuzaga kelishiga sababdir. Baxt tushunchasi insonning turli yoshida turli koʻlamdagi maʼnoni anaglatadi. Oila baxti esa deyarli butun insoniyat uchun asosan yagona iliq mehr bilan taʼriflanadigan moʻjazzgina qalbning orom topishi bilan xarakterlidir. Hadislarda aqrabolarni sevishlik aytiladi. Aqrabo yunoncha eng yaqin yelkadosh, safdosh maʼnosini anglatadi. Umr yoʻlida bir-biriga yelkadosh boʻluvchi er-xotin farzand tarbiyasida teng masʼuliyatlidir. Oila baxti tushunchasi hech qachon yakka shaxsga daxldor boʻlmaydi. Bu esa tarbiya jarayonida uygʻunlikni kasb etishining yorqin dalillaridan biri hisoblanadi.

Xulosa oʻrida shuni aytish mumkinki, jamiyatning porloq ertasi boʻlmish yoshlarning akmeshaxs darajasiga erishishi nafaqat millat uchun balki, butun insoniyat uchun ulkan sarmoyadir. Zero, bizga maʼlumki, sarmoya qanchalik yaxshi boʻlsa, natija ham shunchalik yaxshi boʻladi. Xuddi S(stimul)-R(reaksiya) formulasi singari. Insoning dastlabki qadami odatga, odat qismatga, qismat esa taqdirga aylangani kabi insonning komillik darajasini faqat IQ darajasi emas, ahloqiy tarbiyasi ham koʻrsatadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Акмеология: Учебное пособие / А. Деркач, В. Зазыкин.- СПб.: Питер, 2003. – 256 с.
2. G.H.Tillayeva, “Акмеология asoslari”, “Tafakkur boʻstoni”T.: 2014. 190-b.
3. M.L.Umedjanova, “Hadislarda maʼnaviy-ahloqiy tarbiya talqini va uni oʻquvchilarda shakllantirishning nazariy asoslari”. Journal of Advanced Research and Stability 2022 y. 158-160-b.
4. NamDu-ARM-3937- “Pedagogika nazariyasi va tarixi”. Namangan, 2023-y.
5. Ibrahim Zöhrab Oğlu Quliyev, “Hədisşünaslığın Əsasları” Bakı. 2013.
6. Чомаев З.А, Ибрагимов И.Д., “Теория и практика изучения хадисов (начальный этап): хрестоматия”. БГПУ Уфа: Изд-во, 2018 г.

**PEDAGOGIKA****BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING PEDAGOGIK  
REFLEKSIYALASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING  
IMKONIYATLARI****Gavxaroy  
YULDASHEVA****Urganch  
innovatsion  
universiteti  
o‘qituvchisi****UO‘K 40.450**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik refleksiyalash qobiliyatini rivojlantirishning turli pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi hamda o‘qituvchilarning o‘zaro tajriba almashishi, kuzatuvlar o‘tkazishi va tahliliy ishlar bajarishi orqali pedagogik refleksiyani oshirishning ahamiyati ta’kidlanadi.

**Аннотация:** В данной статье анализируются различные педагогические возможности развития педагогической рефлексии будущих учителей и подчеркивается важность повышения педагогической рефлексии путем взаимного обмена опытом учителей, наблюдений и аналитической работы.

**Annotation:** This article analyzes various pedagogical possibilities for developing the pedagogical reflection ability of future teachers and emphasizes the importance of increasing pedagogical reflection by teachers' mutual exchange of experience, observations and analytical work.

**Kalit so‘zlar:** Pedagogik refleksiya, o‘qituvchi tayyorlash, ta’lim jarayoni, refleksiv fikrlash, tajriba almashish, innovatsion usullar, pedagogik metodlar, o‘zaro munosabat, tahlil va kuzatish, professional rivojlanish.

**Ключевые слова:** Педагогическая рефлексия, подготовка учителей, образовательный процесс, рефлексивное мышление, обмен опытом, инновационные методы, педагогические методы, взаимодействие, анализ и наблюдение, профессиональное развитие.

**Key words:** Pedagogical reflection, teacher training, educational process, reflexive thinking, experience sharing, innovative methods, pedagogical methods, interaction, analysis and observation, professional development.

Hozirgi rivojlanib borayotgan jamiyatning oliy ta’lim muassasasi zamonaviy professor-o‘qituvchisidan o‘zgarishlarga tayyor bo‘lish, o‘z-o‘zini takomillashtira olish, harakatchanlik, bilimlarini doimiy ravishda yangilash va o‘z-o‘zini rivojlantirish istagi, nostandart muammolarni hal qilishga ijodiy yondashishni talab etilmoqda.

Oliy ta’lim tizimidagi sifat ko‘rsatkichlari oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining yangi talablar va o‘zgarishlarni amalga oshirish lozimligi



muammosini keltirib chiqardi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yildagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida “...professor-o‘qituvchilar, talabalar o‘rtasida so‘rovlar o‘tkazish, jamoatchilik va ish beruvchilarning fikrini o‘rganish hamda ilg‘or xorijiy tajribalarni tahlil qilish orqali oliy ta’lim sifatini oshirish, o‘quv dasturlarini takomillashtirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish” kabi vazifalar ustuvor qilib qo‘yilgani bejiz emas[1]. Bunday sharoitda o‘qituvchining pedagogik vaziyatni tahlil qilish, o‘z ishining natijalarini baholash, ularni rejalashtirilgan maqsad bilan taqqoslash, talabaning pozitsiyasini egallash qobiliyati alohida ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda o‘quv jarayonida pedagogik refleksiya katta e‘tibor berilmoqda. Zero, aynan refleksiya o‘quv jarayoniga “o‘quvchilar ko‘zi” bilan qarashga, ularning individual xususiyatlarini hisobga olishga, o‘z faoliyati va uning natijalarini mustaqil baholashga imkon beruvchi pedagogik xususiyat sifatida qaralmoqda.


Pedagogik refleksiya - bu mutaxassisning o‘ziga va kasbiy faoliyatiga nisbatan analitik pozitsiyani egallash qobiliyatida namoyon bo‘ladigan o‘z-o‘zini kasbiy takomillashtirish va o‘z-o‘zini rivojlantirish mexanizmi. O‘qituvchining kasbiy rivojlanishi konsepsiyasini aks ettirish ichki shaxsiy qarama-qarshiliklarni hal qilish vositasi sifatida qaraladi, uning sababi “haqiqiy o‘zlik”, “ideal o‘zlik” va “refleksiv o‘zlik” o‘rtasidagi nomuvofiqlikdir[2].

B.G.Ushakov “pedagogik refleksiyalash” tushunchasiga quyidagi ta’rifni beradi: “Pedagogik refleks subyektning o‘z kasbiy (pedagogik) faoliyatiga nisbatan refleksiv, analitik pozitsiyani egallash qobiliyatida va shaxs sifatida o‘z-o‘zini o‘qitish tajribada namoyon bo‘ladigan murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida tushuniladi[3].

L.M.Mitina refleksiyaning tahlil qilish, baholash, o‘zini anglash, o‘z hatti-harakati va faoliyatini tartibga solish, ta’lim oluvchining individual xususiyatlariga kirib borish, o‘z-o‘zini bilish, tushunish va baholash, shaxsning ichki qarama-qarshiliklari hamda ziddiyatlarini konstruktiv hal qilish uchun talabaning pozitsiyasi va nuqtai nazarini egallash qobiliyatlari to‘plami sifatida belgilaydi[4].

Pedagogik refleksiyaning imkoniyatlarini aniqlash o‘quv maqsadining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish, refleksiya orqali bilimlarni o‘zlashtirish usullarini tavsiflash va pedagogik refleksiyalashni amalga oshirishda o‘quv subyektlarining o‘zaro ta’sirining xususiyatini aniqlash kerak. Yuqorida berilgan fikr-mulohazalarni tahlil qilgan holda asosiy pedagogik refleksiyalash

qobiliyatidan foydalanish imkoniyatlari va uning ta'lim jarayonida qo'llashdan olinadigan foydalarni quyidagicha xulosalash mumkin:



### 1. Tanqidiy fikrlash va mustaqillikni oshirish:

Pedagogik refleksiylash qobiliyati talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Ular o'z harakatlarini tahlil qilishni, xatolarni aniqlashni va ularni tuzatish yo'llarini topishni o'rganadilar, bu ularning mustaqilligini va o'quv jarayoni uchun mas'uliyatini oshiradi.

### 2. Ta'lim natijalarining progressiyasi:

pedagogik refleksiyaning ta'lim jarayonida qo'llanilishi talabalarda mutaxassislik fanining moduli yoki umumiy fan doirasida akademik jihatdan yaxshi natijalarga erishishga olib keladi. Bu o'quv materialini chuqurroq tushunish va bilimlarni amaliyotda qo'llay

olish kabi xususiyatlarning takomillashuviga olib keladi.

**3. Hissiy va psixologik rivojlanish:** Pedagogik refleksiya talabalarga o'z his-tuyg'ularini, motivatsiyalarini va hatti-harakatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi, bu ularning shaxsiy o'sishi va hissiy intellektning rivojlanishiga ko'maklashadi.

**4. O'zgarishlarga va innovatsiyalarga moslashish:** Pedagogik refleksiya talabalarga yanada moslashuvchanlik va o'zgarishga tayyor bo'lishga yordam beradi. Ular yangi sharoitlarga tezda moslashishni va o'z faoliyatiga innovatsion yondashuvlarni joriy qilishni o'rganadilar.

**5. O'zaro ta'sir va muloqot ko'nikmalarining takomillashuvi:** Guruhda o'z harakatlarini muhokama qilish va tahlil qilish orqali talabalarda samarali muloqot va o'zaro ta'sir ko'rsatish ko'nikmalari shakllanadi, bu ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muhim ahamiyatga ega.

**6. Kollegial qo‘llab-quvvatlash va jarayonni tashkil etish:** Pedagogik refleksiya samaradorligi ko‘p jihatdan ustoz –shogird an‘analariga tayangan holda o‘qituvchilarning yordami va yo‘l-yo‘riqlariga bog‘liq takomillashishi bilan tavsiflanadi. Pedagogik refleksiylash uchun qulay shart-sharoitlar, jumladan, refleksiyaaviy muhitni yaratish va muhokama qilish vositalaridan foydalanish muhimdir.

Pedagogik refleksiyaning yuqorida keltirilgan imkoniyatlari ta‘lim jarayonida pedagogik refleksiylashning ahamiyatini va uning talabalar rivojlanishining turli jihatlariga ijobiy ta‘sirini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik refleksiylash yordamida faoliyatni tahlil qilish va uni tanqidiy qayta qurish asosida mustaqil ravishda yangi faoliyat normalarini topish kabi o‘quv maqsadlariga erishiladi. Bundan tashqari, biz nafaqat bilimlarni oshirish (kognitiv paradigma) haqida emas, balki tushunish, ma‘no-qadriyatlarni shakllantirish (shaxsiy paradigma) imkoniyatini yaratish kabi vaziflarni ham bira to‘la hal etishga erishamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yildagi PF-5847-son Farmoni.
2. Мышление учителя: личностные механизмы и понятийный аппарат / Ю.Н.Кулюткин, Г.С.Сухобская, С.Н.Иванова; под ред. Ю.Н.Кулюткина: АПН, НИИ общ. образ. взрослых. - М.: Просвещение, 1984. – 120-с.
3. Ушаков Б.Г. 2012 г. Рефлексивные основания профессиональных компетенций педагога вуза. Материалы научно-практической конференции Северо-Западного института управления (1): 197-206.
4. Митина, Л.М. Психология труда и профессионального развития учителя / Л.М.Митина. – М.: Академия, 2004. – 318-с.

## IQTISODIYOT

### INVESTITSİYALARNI MOLİYALASHTIRISH MAZMUNI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



**Ne'mat  
OTAYEV**

**Xorazm viloyati  
hokimining o‘rinbosari  
– investitsiyalar, sanoat  
va savdo boshqarmasi  
boshlig‘i kotibiyati  
mudiri**

**UO‘K 574.510**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan investitsiyalarni moliyalashtirishning ahamiyati, mavjud imkoniyatlari, shakllari, zaruriyati, eng muhim masalalari va o‘ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan. Shuningdek, investitsiyalarni samarali moliyalashtirishga qaratilgan muallif tomonidan taklif va tavsiyalar ham bayon etilgan.

**Аннотация:** В данной статье освещены значения, имеющие возможности, формы, необходимость, наиболее важные вопросы и особенности финансирования инвестиций, направленных на развитие отраслей экономики. Также представлены предложения и рекомендации автора, направленные на эффективное финансирование инвестиций.

**Annotation:** This article highlights the importance, available opportunities, forms, necessity, most important issues and specific features of financing investments aimed at the development of economic sectors. Also, suggestions and recommendations by the author aimed at effective financing of investments are presented.

**Kalit so‘zlar:** Investitsiya, moliyalashtirish, loyiha, kredit, foyda, pul mablag‘lari.

**Ключевые слова:** Инвестиции, финансирование, проект, кредит, прибыль, фонды.

**Key words:** Investment, financing, project, loan, profit, funds.

Ma'lumki, investitsiya faoliyati pul oqimini amalga oshirishda yetakchi o'rinni egallaydi. Shu bois, bu faoliyat ko'p jihatdan iqtisodiy vaziyat va davlatning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bular investitsiya resurslari sifatida xizmat qiladigan pul oqimlari va fondlari bo'lib hisoblanadi. Ushbu investitsiyalarning tuzilishi va hajmi investitsiya sohasining rivojlanish yo'nalishi, milliy iqtisodiyotning o'sish sur'ati va barqarorligini belgilaydi. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish uchun resurslarni izlab topish va ulardan samarali foydalanish talab etiladi. Bu esa mamlakatda investitsiyalarni moliyalashtirish zarurligini va uni o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi.

Tadqiqotlarda investitsiyalarni moliyalashtirish zarurligi va uning o‘ziga xos xususiyatlari alohida qayd etiladi. Xususan, tadqiqotlarga asosan, investitsiya resurslari jumlasiga pul mablag‘lari va boshqa moliyaviy mablag‘lar, shu jumladan kreditlar, paylar, ulushlar, aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar, ko‘char va ko‘chmas mol-mulk hamda ularga bo‘lgan huquqlar, intellektual mulk obyektlari, shu jumladan u yoki bu turdagi ishlab chiqarish turini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan texnik hujjatlar, ko‘nikmalar va ishlab chiqarish tajribasi tarzida rasmiylashtirilgan, patentlangan yoki patentlanmagan texnik, texnologik, tijoratga oid va boshqa bilimlar hamda yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlar, boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqlari, shuningdek mulk huquqlaridan kelib chiquvchi boshqa ashyoviy huquqlar kabilar kiradi [1].

Mablag‘ olish usuli sifatida ushbu moliyalashtirish usuli ko‘rib chiqilib, ularning ichidan eng yaxshisi tanlanadi. Investitsiya jarayonini moliyaviy ta‘minlash tizimi uni moliyalashtirish manbalarini aniqlashga asoslanib, kapital qo‘yilmalar shaklida bo‘lishi mumkin. Shunga asosan, boshqa tadqiqotlarga ko‘ra, kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirish manbalari deganda kapital qo‘yilmalar jarayonini ularda amalga oshirish imkonini beruvchi mablag‘lar va pul oqimlari tushuniladi [2].

Investitsiyalarni moliyalashtirishda moliyaviy aktivlar ham biznesni rivojlantirish uchun doimiy ravishda jalb qilinadi. Investitsiyalarga bo‘lgan ehtiyoj korxonalar mablag‘lari shaklida investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun yetarli bo‘lmaganda paydo bo‘ladi. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari investitsiya va tushum manbalarini hisobga olgan holda mablag‘larni keng jalb qilish yo‘nalishi va investitsiyalar maqsadi bo‘yicha guruhlanadi. Shu asosda, tadqiqotlarga ko‘ra, Investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari investorlar tomonidan real, moliyaviy va investitsiya faoliyatining boshqa obyektlariga investitsiya kiritish uchun foydalanishi mumkin bo‘lgan barcha turdagi aktivlar yig‘indisi sifatida qaraladi [3].

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari ichki va tashqi turlarga ajratilib, pul mablag‘larini o‘zlashtirib olish usullarini belgilaydi. Biznesni moliyalashtirishning tashqi manbalari davlat, mintaqaviy yoki shahar budjeti va bepul beriladigan qo‘llab-quvvatlash fondlaridan mablag‘lar, xalqaro moliya institutlari va tashkilotlari, jismoniy shaxslar, korxonalar va davlatlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalari hamda qaytariladigan asosda berilgan kredit shakllari, bank kreditlari va veksellardan tarkib topadi.

## XORIJIY INVESTITSİYALAR



Ichki moliyalashtirish manbalari faqat o'z resurslariga ega bo'lgan kapital qo'yilmalarni o'z ichiga oladi. Ular sof foyda, xo'jalik ichidagi zahiralar va amortizatsiya ajratmalaridan shakllantiriladi. Investitsiya loyihasini moliyalashtirishning ichki manbalarini jalb qilish

investitsiya portfelini shakllantirish yoki foyda olish uchun mo'ljallangan mablag'lardan foydalanish usuli bo'lib xizmat qiladi.

Fikrimizcha, investitsiyalarni moliyalashtirish uchun quyidagi iqtisodiy ko'rsatkichlar qo'llaniladi:

- sof foyda. Korxonaning sof foydasi ichki moliyalashtirish manbai sifatida tovarlar yoki xizmatlarni sotishdan tushgan xarajatlar va daromadlar o'rtasidagi farq bo'lib hisoblanadi. Sof foyda soliqlar va boshqa ajratmalar to'langandan keyin qoladi. Aksiyadorlar va biznes egalari uni o'tgan yillardagi yo'qotishlarni qoplash, dividendlar to'lash va turli fondlarni shakllantirish uchun taqsimlash to'g'risida qaror qabul qiladilar.

- amortizatsiya ajratmalari. Amortizatsiya nomoddiy aktivlar va asosiy ishlab chiqarish fondlarining ko'payishini ta'minlash uchun mo'ljallanadi. Eskirgan materiallar va ishlab chiqarish quvvatlarini almashtirish uchun ajratilgan amortizatsiya ajratmalari tadbirkorlar uchun zarur bo'ladi. Ular barqaror moliyalashtirish manbai sifatida investitsiya ehtiyojlarini qondiradi.

- mulkni sotish. O'z mol-mulkini sotish kamdan-kam hollarda yetarli mablag' keltiradi. Chunki, faqat bir nechta korxonalar ishlab chiqarish jarayoniga zarar yetkazmasdan aktivlardan voz kechishlari mumkin. Agar aktivlarni qayta sotish korxonaning asosiy faoliyati bo'lsa, bu korxonaning asosiy daromad va sof daromad manbai bo'lib hisoblanadi.

- bank kreditlari. Investitsiya krediti investitsiya maqsadlarida foydalaniladigan kredit turi hisoblanadi. Ushbu xizmatning mohiyati shundan iboratki, bank kapitali ishlab chiqarishni qayta tiklash, mavjud muammolarni bartaraf etish yoki jarayonni sifatli takomillashtirishga yo'naltiriladi. Bunday kredit maqsadli yo'nalishlarda uzoq vaqt davomida taqdim etiladi va yuqori darajadagi xavfga ega bo'ladi.

- kredit liniyasi. Kredit liniyasi moliya-kredit muassasasi qarz oluvchiga kelishilgan doirada va ma'lum muddatga qarz berish majburiyatini oladi. Bunday

majburiyat qayta tiklanadigan va qayta tiklanmaydigan turda bo'lishi mumkin. Mablag'lar tovarlarni yetkazib berish uchun ishlatiladi.

- ipoteka. Ko'chmas mulkni sotib olish uchun uzoq muddatli kreditlar bitimni ta'minlash uchun ko'chmas mulk huquqini qarz beruvchiga o'tkazish sharti bilan beriladi. Ipoteka krediti investitsiya loyihasining rentabelligini tasdiqlovchi, mijozning yuqori daromad darajasi va mulkning maqbul narxini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lganda tuziladi. Bank amaliyotida investitsiya xarakteridagi kreditlar muhim qoidaga muvofiq ishlaydi. Shu bois, ipoteka kreditlari uzoq muddatga beriladi.

- lizing. Moliyaviy lizing uzoq muddatli kreditlar bilan ko'p o'xshashliklarga ega bo'lsa-da, lizing beruvchi shartnoma predmetini lizing oluvchiga belgilangan muddatga belgilangan haq evaziga va kelishilgan shartlar asosida foydalanishga topshirishi bilan farq qiladi. Lizing muddati shartnoma predmetining to'liq amortizatsiya davriga to'g'ri keladi. Shartnoma tugagandan so'ng, lizing predmeti lizing oluvchining mulkiga aylanishi mumkin. Qaytariladigan lizing lizing oluvchiga aylanma mablag'lar va soliqlarni kamaytirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Jalb qilingan moliyalashtirish turli manbalardan tarkib topadi. Jalb qilingan mablag'lar ulushini ko'paytirish tendensiyasi mavjud bo'ladi. Chunki, korxonalar resurslarining cheklanganligi ularni investitsiyalarni moliyalashtirish uchun yetarli manbaga aylanadi. Bundan tashqari, jalb qilingan manbalar xususiy va davlat investitsiyalari, obligatsiyalar va aksiyalar chiqarilishidan olingan mablag'lar cheksiz imkoniyatlarga ega bo'ladi.

- aksiyalarni chiqarish va sotish. Aksiyalar rentabelligi korxonalar ishiga bog'liq bo'ladi. Yopiq aksiyadorlik jamiyatlari kapitalni jalb qilish uchun ochiq korxonalarga qaraganda kamroq imkoniyatlarga ega bo'ladi. Ular tijorat sirini tashkil etadigan ma'lumotlarni tarqatishda ko'proq cheklangan bo'ladi. Aksiyalarni ommaviy ravishda chiqarish orqali biznes egalari ularning likvidligini oshiradilar. Birinchi marta aksiyalarni birjaga joylashtirish orqali korxonalar ularning qiymatini 15 foizga oshiradi.

- obligatsiyalar. Korporativ obligatsiyalar egasiga doimiy daromad keltiradigan va ikkilamchi bozorda sotiladigan, bozor va nominal narxlar farqida o'ynash imkoniyatini ochadigan qimmatli qog'ozlar bo'lib hisoblanadi. Bu kelishilgan daromad shakllarini olish va belgilangan muddatlarda oldindan to'langan summalarni qaytarish uchun investitsiya bo'lib hisoblanadi.

Investitsiyalarni davlat budjeti orqali ham moliyalashtirish mumkin. Uzoq vaqt davomida ichki iqtisodiyotda budjet mablag'lari investitsiyalarining ulushi pasayib boradi. Ushbu moliyalashtirish manbai ijtimoiy sohaning notijorat

tarmoqlari, harbiy-sanoat kompleksi va infratuzilma uchun zaruriy manba bo‘lib qaraladi. Natijada, davlat hokimiyati bugungi kunda xususiy investorlar uchun uzoq muddatli kapital talab qiladigan loyihalarni qo‘llab-quvvatlaydi. Budgetni qo‘llab-quvvatlash biznes uchun alohida rol o‘ynaydi.

- budget kreditlari. Biznes egalari investitsiya loyihalarini budget tomonidan moliyalashtirish investitsiyalar doirasida amalga oshiriladi. Shu maqsadda har yili qonun hujjatlari paketlari qabul qilinadi. Aynan, u ishlab chiqarish sohasiga sarmoya kiritish yo‘nalishlarini tanlashda muhim rol o‘ynaydi. Natijada, unda tanlangan obyektlarni moliyalashtirish siyosati amalga oshiriladi.

- budget mablag‘lari. Ajratmalar bepul taqdim etiladigan budget mablag‘laridir. Ular milliy ahamiyatga ega bo‘lgan kam daromadli korxonalarda amalga oshiriladi. Bunday ishlab chiqarishlar moddiy va kapital intensivligining oshishi bilan ajralib turadi. Bunday sharoitda asosan rivojlanayotgan yangi tarmoqlar, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma obyektlari moliyalashtiriladi.

- investitsion soliq kreditlari. Mamlakatda soliq kodeksi korxonalarga soliqni to‘lash va qaytarish shartlari bo‘yicha soliqni kechiktirishdan foydalanishga imkon beradi. U mahalliy soliqlar yoki daromad solig‘i bo‘yicha taqdim etiladi.

Investitsiyalarni moliyalashtirish investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda asosiy kredit mahsulotlaridan biridir. Bu yuqori sifatli rivojlanishni ta‘minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va biznes qiymatini oshirish uchun qarz oluvchining kapital xarajatlarini kreditlashni o‘z ichiga oladi. Bu esa iqtisodiyotni turli yo‘nalishlarda rivojlantirish va davlatning ijtimoiy va moliyaviy-iqtisodiy siyosatini samarali amalga oshirishga imkon beradi. Ushbu jarayonni tartibga solish bozor mexanizmlari va monopoliyaga qarshi qonun hujjatlari ko‘rinishidagi davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-598-son qonuni. Manba: <https://lex.uz/docs/4664142>

2. Годунов В.В. Финансирование и кредитование инвестиций. Учебное пособие. - Костанай, 2017. - с. 84.

3. Хынку Р.В., Сухович А.В. Основы инвестиционной деятельности. Молд. Экон. Акад., Каф. "Инвестиции и рынки капитала", Изд. 2-е. - Кишинев: МЭА, 2010. - с. 53.



## IQTISODIYOT

### BIZNES TUZILMASINING INNOVATSION RIVOJLANISH BOSQICHLARI

UO‘K 670.10



**Pyos  
ABDULLAYEV**

**Iqtisodiyot fanlari  
doktori, professor**



**Dilfuza  
MATYOQUBOVA**

**Iqtisodiyot fanlari  
bo‘yicha falsafa  
doktori.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada biznes tuzilmasining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilish strategiyasini ishlab chiqarish jarayonlari yoritilgan. Diversifikatsiya strategiyasini amalga oshirishning asosiy bosqichlari tahlil qilinib, innovatsion texnologiyalardan foydalanishga oid tushunchalar haqida fikr yuritiladi.

**Аннотация:** В данной статье описаны процессы создания стратегии диверсификации инновационного развития бизнес-структуры. Анализируются основные этапы реализации стратегии диверсификации, обсуждаются концепции использования инновационных технологий, что помогает вырабатывать стратегические решения по диверсификации бизнес-структур.

**Annotation:** This article describes the processes of creating a strategy for diversification of innovative development of a business structure. The main stages of implementing the diversification strategy are analyzed, the concepts of using innovative technologies are discussed, which helps to develop strategic decisions on the diversification of business structures.

**Kalit so‘zlar:** biznes, biznes tuzilma, innovatsiya, innovatsion rivojlanish, diversifikatsiya, strategiya, bozor tahlili, ishlab chiqarish.

**Ключевые слова:** бизнес, структура бизнеса, инновация, инновационное развитие, диверсификация, стратегия, анализ рынка, производство.

**Key words:** business, business structure, innovation, innovative development, diversification, strategy, market analysis, production.

Bugungi kunda dunyodagi global o‘zgarishlar va har qanday sharoitda biznes tuzilmalari uchun rivojlanish va innovatsion kuchlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Texnologiyalarning jadal rivojlanishi,

innovatsion kasblarga ehtiyojlar va bozor sharoitlarining tez o'zgarishi korxonalaridan o'z strategiyalarini diversifikatsiya qilishni talab qilmoqda.

Innovatsion rivojlanishni diversifikatsiya qilish strategiyasini ishlab chiqish yuzasidan bir qator iqtisodchi olimlar tadqiqotlarni amalga oshirganlar. "Innovatsion jarayon, innovatsion faoliyat va bu jarayonlarni boshqarish mexanizmi innovatsiyaning mohiyatini ifoda etadi" [1], "bu innovatsiyalar rivojlanish manbai bo'lgan korxonaning rivojlanishidir" [2], "innovatsion rivojlanish kompaniya boshqaruvining eng yuqori darajasi tomonidan amalga oshiriladigan strategik menejmentning yo'nalishlaridan biri" [3], "bu nafaqat asosiy innovatsion jarayon, balki uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan omillar va shart-sharoitlar tizimini, ya'ni innovatsion salohiyatni rivojlantirishdir" [4] kabi iqtisodchi olimlarning ta'riflari shular jumlasidandir.

Ushbu maqolada biznes tuzilmasining innovatsion rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish tadqiq qilinish, bunda kuzatish, tahlil (qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil, nazariy tahlil, tizimli tahlil), xronologik usullardan samarali foydalanildi.

Biznes tuzilmasining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilish strategiyasini ishlab chiqish jarayonida innovatsionlik, iqtisodiy maqsadga muvofiqlik, kelajakda bozor ehtiyojlariga e'tibor qaratish, moslashuvchanlik, uni amalga oshirishning texnologik imkoniyati, amalga oshirilgan ishlanmalarning hayot aylanish bosqichlarini hisobga olgan holda xavfni minimallashtirish, ustuvorliklarni joylashtirish, strategiyaning samaradorligi, tizimni joriy etish, innovatsion rivojlanishning uzluksizligi, biznes tuzilmasining hayot aylanishini hisobga olish, biznes tuzilmasining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilish jarayonining tafsilotlari, biznes tuzilmasining kognitiv afzalligi kabi 14 tamoyilni hisobga olish taklif etiladi.

Innovatsionlik tamoyili biznes tuzilmasini rivojlantirish strategiyalarini ularning innovatsion yo'nalishi nuqtai nazaridan tubdan qayta ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi. Iqtisodiy maqsadga muvofiqlik tamoyili esa biznes tuzilmasining innovatsion rivojlanishni diversifikatsiya qilish strategiyasini amalga oshirish qobiliyatini dastlabki baholashga asoslanadi. Bozorning kelajakdagi ehtiyojlariga e'tiborni qaratish tamoyili innovatsion rivojlanishni prognozlash usullaridan foydalanishni o'z ichiga oladi, bu esa biznes tuzilmasining innovatsion rivojlanish vektorini maksimal rentabellik bilan aniqlash imkonini beradi.

Moslashuvchanlikning to'rtinchi tamoyili resurs, jarayon, natija va boshqaruvni qo'llab-quvvatlash darajasida innovatsiyalarni qabul qilish uchun biznes tuzilmasining imkoniyatlarini baholashni o'z ichiga oladi. Strategiyaning amalga oshirishning texnologik imkoniyati tamoyili yangi ishlanmalarni amalga oshirish imkoniyatlari va salohiyatini baholash zarurligini nazarda tutadi.

Oltinchi tamoyil - amalga oshirilgan ishlanmalarning hayot aylanish bosqichlarini hisobga olish prinsipi, bu ma'lum sharoitlarda innovatsion rivojlanishni diversifikatsiya qilish strategiyasi bilan hozirgi va kelajak haqidagi bilimlarni shakllantirish imkonini beradi. Risklarni minimallashtirish tamoyili, bir tomondan, biznes tuzilmasining mavjud resurslaridan oqilona foydalanishni nazarda tutsa, ikkinchi tomondan, yuqori darajadagi tavakkalchilikka ega innovatsion loyihalarni amalga oshirish orqali daromadni oshirishga intiladi.

Ustuvorliklarni joylashtirish tamoyili innovatsion rivojlanishni diversifikatsiya qilish vektorlarini belgilangan maqsadlar va mumkin bo'lgan natijalar asosida tartiblash imkonini beradi. Strategiyaning samaradorligi tamoyili innovatsion rivojlanishni diversifikatsiya qilish strategiyasini amalga oshirishdan kutilayotgan barcha foydali samaralar birligiga barcha turdagi resurslarni tejash qobiliyati bilan belgilanadi. Innovatsion rivojlanishni diversifikatsiya qilish strategiyasini tizimli amalga oshirish tamoyili biznes tuzilmasini mahalliy emas, balki tizimli rivojlantirish uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanishni nazarda tutadi.

Innovatsion rivojlanishning uzluksizligi tamoyili vaqt o'tishi bilan omillarning o'zgarishi tufayli tabiiy zarurat sifatida biznes tuzilmasi maqsadlarini sezilarli darajada o'zgartirish imkoniyati tekisligida yotadi. Biznes tuzilmasining hayot aylanishini hisobga olish tamoyili innovatsion rivojlanishning diversifikatsiyasi turg'unlikning so'nggi bosqichiga xos ekanligini nazarda tutadi. Biznes tuzilmasining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilish jarayonini batafsil tavsiflash tamoyili strategiyada tegishli aks ettirish uchun tanlangan vektor va ob'ektga qarab uning bosqichlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashni o'z ichiga oladi.

Biznes tuzilmasining kognitiv ustunligi tamoyili strategiyani amalga oshirishning barcha bosqichlarida innovatsion rivojlanishni diversifikatsiya qilishga sodiq bo'lgan malakali kadrlar bilan ta'minlashni nazarda tutadi. Biznes tuzilmasining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilish strategiyasini tanlashda korxonalar raqobatbardosh xususiyat sifatida o'zida shakllantiradigan omillar va imkoniyatlar to'plamini hisobga olish kerak. Bundan tashqari, biznes tuzilmasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan innovatsion rivojlanishni diversifikatsiya qilish strategiyasining asosiy elementlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak, ular quyidagilardan iborat:

- biznes tuzilmasining vazifasi;
- biznes tuzilmasining strategik maqsadlari;
- innovatsion rivojlanishni diversifikatsiya qilish strategiyasining amal qilish muddati;

- innovatsion rivojlanishni diversifikatsiya qilish strategiyasini rasmiylashtirish usullari (strategiya taktik rejalar, dasturlar, budjetlar tizimi shaklida taqdim etiladi);

- biznes tuzilmasini boshqarishning tashkiliy tuzilmasi, xodimlar;

- biznes tuzilmasining tashkiliy madaniyati;

- resurslarni boshqarish usullari (hisoblash, tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash, nazorat qilish, tartibga solish, budjetlashtirish, biznesni reinjining qilish usullari);

- boshqaruv jarayonini axborot bilan ta'minlash va uni raqamlashtirish;

- kompaniya resurslarining umumiyligi, ularning sifat va miqdoriy xarakteristikalari, potensial bahosi;

- tadbirkorlik tuzilmasi faoliyatini moliyalashtirishning real va potensial manbalari;

- xo'jalik yurituvchi sub'ektning tashqi (boshqa xo'jalik tuzilmalari, moliya-kredit tizimi bilan o'zaro munosabatlari) va ichki sheriklik munosabatlari (xo'jalik tuzilmasi, xo'jalik tuzilmalari birlashmalari doirasida);

- xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy-xo'jalik faoliyatining xavf omillari;

- rivojlanish strategiyasi samaradorligini baholash ko'rsatkichlari va usullari;

- diversifikatsiya sharoitida biznesning strategik ko'lamini (joylashuvi);

- biznes tuzilmasining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilishga ilhomlantiruvchi strategik markaz. Innovatsion rivojlanishni diversifikatsiya qilish strategiyasi elementlaridan, shuningdek, uni shakllantirish tamoyillaridan kelib chiqib, biznes tuzilmasining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilish strategiyasini ishlab chiqish jarayonining asosiy bosqichlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Strategiyani shakllantirishning birinchi bosqichi biznes tuzilmasi missiyasini aniqlashga asoslanadi. Ikkinchi bosqich biznes tuzilmasining rejalashtirilgan davr uchun strategik maqsadlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Uchinchi bosqich biznes tuzilmasining tashqi va ichki muhitini rivojlanishini tahlil qilish va prognozlashni o'z ichiga oladi, "tashqi va ichki muhit omillarining rivojlanishini tahlil qilish va prognozlash" alohida bloklarini o'z ichiga oladi, ular darajasini har tomonlama baholash bilan yakunlanadi. To'rtinchi bosqichda tashqi va ichki imkoniyatlar va tahdidlarni belgilovchi omillar ta'sirida biznes tuzilmasining strategik maqsadlari oydinlashtiriladi.

Beshinchi bosqich diversifikatsiya sharoitida biznesning strategik joylashuvi funksional yo'nalishlari elementlarini tanlashni o'z ichiga oladi. Oltinchi bosqichda barcha tanlangan rivojlanish vektorlariga yo'naltirilgan

strategiyalar portfeli shakllantiriladi. Bosqich uchta kichik bosqichni o‘z ichiga oladi: birinchisida barcha turdagi resurslarga bo‘lgan ehtiyoj aniqlanadi; ikkinchidan, jalb qilingan resurslarga bo‘lgan ehtiyoj, ularni jalb qilish shartlari va narxi aniqlanadi. Oltinchi bosqich innovatsion rivojlanishni diversifikatsiya qilish strategiyasi uchun budjetni shakllantirish bilan yakunlanadi.

Yettinchi bosqichda budjet maqsadlarining muvofiqlik darajasiga asoslangan strategiyani baholash va tanlash amalga oshiriladi, bu strategiyani amalga oshirish bilan bog‘liq xavflar darajasining maqbulligini baholashni o‘z ichiga oladi, bu esa strategiyaning amalga oshirilishini belgilovchi innovatsion rivojlanishni diversifikatsiya qilish strategiyasi parametrlari muvozanatini baholash samaradorligini belgilaydi. Sakkizinchi bosqich strategiyani amalga oshirish jarayonini ta‘minlaydigan funksiyalarni shakllantirish bilan tavsiflanadi.

Sakkizinchi bosqichning asosiy maqsadlari: tashkiliy boshqaruv tuzilmalarini moslashtirish; hamkorlar bilan oqilona moliyaviy munosabatlarni shakllantirish; optimal budjetni shakllantirish; strategiyani amalga oshirishning funksional vazifasini boshqarish tizimini ta‘minlashdan iborat. To‘qqizinchi bosqich strategiyani amalga oshirish va uning izchilligini nazorat qilishni tashkil etishga ixtisoslashgan. O‘ninchi, yakuniy bosqichda biznes tuzilmasini innovatsion rivojlantirishning diversifikatsiya strategiyasi samaradorligini monitoring qilish va baholash amalga oshiriladi.

Kognitiv diversifikatsiyani yakunlovchi ilhom bosqichining vazifalaridan biri innovatsion rivojlanishning diversifikatsiya bosqichlari bo‘yicha samarali mutaxassislar jamoasini shakllantirish bo‘lib, u diversifikatsiya bosqichlari bo‘yicha boshqaruv ierarxiyasi darajasidagi ishtirokchilarning muvofiqligini baholashni talab qiladi. An‘anaga ko‘ra, boshqaruv vertikal menejerlarning funksiyalari bilan belgilanadigan texnik daraja; boshqaruv darajasi; institutsional daraja qismlarga bo‘linadi. Texnik darajadagi menejerlar biznes tuzilmasining barqaror ishlashi uchun zarur bo‘lgan joriy operatsiyalar va harakatlarni amalga oshiradilar (mahsulot ishlab chiqarish, xizmatlar ko‘rsatish).

Boshqaruv darajasi tashkilot ichidagi boshqaruv va muvofiqlashtirish bilan tavsiflanadi, menejerlar biznes tuzilmasi bo‘linmalarining faoliyati va harakatlari to‘g‘risida kelishib oladilar. Institutsional darajani ifodalovchi menejerlar uzoq muddatli rejalarni ishlab chiqishga, biznes tuzilmasi maqsadlarini shakllantirishga, ularning atrof-muhitning qutbli o‘zgarishlariga moslashishiga, biznes tuzilmasi va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni boshqarishga hissa qo‘shadilar.

Boshqaruv darajalari bo‘yicha boshqaruv ierarxiyasi eng keng tarqalgan bo‘lib, yuqori boshqaruv, o‘rta va chiziqli yoki supervayzerlarga taqsimlanadi.

Boshqaruv darajalari bo‘ysunishni aniq belgilab qo‘yganligi sababli ular yuqori darajadagi menejerlar o‘rta bo‘g‘in menejerlari ishini boshqaradigan ierarxiyani tashkil qiladi, ular o‘z navbatida yo‘nalish menejerlari faoliyatini muvofiqlashtirishni ta‘minlaydilar. Bu boshqaruv ierarxiyasini tugatadi.

Kognitiv diversifikatsiyani yakunlovchi ilhom bosqichining vazifalaridan biri innovatsion rivojlanishning diversifikatsiya bosqichlari bo‘yicha samarali mutaxassislar jamoalarini shakllantirish bo‘lib, u diversifikatsiya bosqichlari bo‘yicha boshqaruv ierarxiyasi darajasidagi ishtirokchilarning muvofiqligini baholashni talab qiladi. An‘anaga ko‘ra, boshqaruv vertikal menejerlarning funksiyalari bilan belgilanadigan texnik daraja; boshqaruv darajasi; institutsional daraja qismlariga bo‘linadi.

Boshqaruv darajasi tashkilot ichidagi boshqaruv va muvofiqlashtirish bilan tavsiflanadi, menejerlar biznes tuzilmasi bo‘linmalarining faoliyati va harakatlarini muvofiqlashtiradilar. Institutsional darajani ifodalovchi menejerlar uzoq muddatli rejalarni ishlab chiqishga, biznes tuzilmasi maqsadlarini shakllantirishga, ularning atrof-muhitdagi qutbli o‘zgarishlarga moslashishiga hissa qo‘shadilar va biznes tuzilmasi hamda jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni boshqaradilar.

Biznes tuzilmasining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilish strategiyasini ishlab chiqish uzoq muddatli rivojlanish va raqobatbardoshlikni ta‘minlashga yordam beradi. Diversifikatsiya biznesga yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish, yangi bozorlarga kirib borish, texnologiyalarni yangilash va mijozlar ehtiyojlariga moslashishlarga ega bo‘ladi. Bu o‘z navbatida, biznesning tavakkalchiliklarini kamaytirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Балабанов И.Т. Инновационный менеджмент/ И.Т. Балабанов. – СПб.: Питер, 2000. – 208 с.
2. Поляков С.Г. Модель инновационного развития предприятия// С.Г. Поляков, И.М. Степнов // Инновации. – 2003. – № 2-3 (59-60). – С. 36-38.
3. Воронков Д. К. Управление стратегическими изменениями в отношении инновационного развития предприятия// Вестник Хмельницкого Национального университета. – 2009. – №. 6. – С. 7-11.
4. Gumba H.M. Theoretical foundations of innovative development enterprises of construction industry [Electronic resource]: monograph/ Moscow. Mr. build Univ. – H.M. Gumba. - M.: Moscow State University, 2012. - 200 стр.

## IQTISODIYOT

### JOYLASHTIRISH VOSITALARI DAROMADLILIK DARAJASINI PROGNOZLASHTIRISH ISTIQBOLLARI



**Lola  
MIRZAYEVA**

**“Khiva Farovon”  
mehmonxonasi  
menejeri, mustaqil  
izlanuvchi**

**UO‘K 670.10**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada joylashtirish vositalari daromadlilik darajasini ko‘p omilli modellar va muqobil senariylar asosida tahlil qilish va baholash natijalariga muvofiq prognozlashtirish istiqbollari yoritilgan.

**Аннотация:** В данной статье описаны перспективы прогнозирования доходности инструментов размещения на основе результатов анализа и оценки на основе многофакторных моделей и альтернативных сценариев.

**Annotation:** This article describes the prospects of forecasting the profitability of placement tools based on the results of analysis and evaluation based on multi-factor models and alternative scenarios.

**Kalit so‘zlar:** Joylashtirish vositalari, senariy, prognozlash, omil, ko‘rsatkich, funksiya.

**Ключевые слова:** Инструменты позиционирования, сценарий, прогнозирование, фактор, показатель, функция.

**Key words:** Positioning tools, scenario, forecasting, factor, indicator, function.

So‘nggi yillarda iqtisodiy jarayonlarni prognozlash iqtisodiyot tarmoq va sohalarining samarali va maqsadli ishlashini ta‘minlashda asosiy usullaridan biriga aylandi. Kelgusi davrni rejalashtirish va rivojlantirishning muqobil senariylarini ishlab chiqish jarayonida prognozlash jamiyat ishlab chiqarishi va uning maqsadlarini ilmiy asoslashda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo‘llarini oldindan ko‘rish vositasi vazifasini o‘taydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy modellashtirishning uzoq va o‘rta muddatli iqtisodiy samarador yo‘nalishlari siyosat va qabul qilingan qarorlarning amaliyotga joriy etish holatini ko‘rib, tahlil qila bilish uchun zarur. Ishlab chiqarishni rejalashtirish va boshqarishda maqbul qarorlar tanlash va ularning ijrosini ta‘minlash o‘ta muhim, chunki bugungi kunda jamiyat uchun noo‘rin qarorlar qabul qilishdan ko‘riladigan zararlar darajasi o‘sib bormoqda. Shuning uchun zamonaviy xo‘jalik yuritish faoliyatini prognozlash ko‘lami kengaytirilishida, birinchi o‘rinda, uning usul va uslubiyatlari takomillashtirilishi talab etilmoqda, chunki milliy iqtisodiyot

tarmoqlarida yuz berayotgan jarayonlarni prognozlash darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, tarmoqni rivojlantirish jarayonlarini boshqarish ishonchligi shunchalik baland bo'ladi.

Iqtisodiyot tarmoqlarini prognozlashtirish masalalari xorijiy va mahalliy olimlar ishlarida o'rganilgan. Jumladan, I.I.Yeliseevoy ko'p omilli ekonometrik modelning statistik ahamiyatligi va o'rganilayotgan jarayonga mos kelishini aniqlash uchun Fisherning F-mezonidan foydalanishni tavsiya qiladi [1].

A.Dimitrios, G.Stephen ko'p omilli ekonometrik model bo'yicha natijaviy omilning qoldiqlarida avtokorrelyatsiyani tekshirish uchun Darbin-Uotson (DW) mezonidan foydalanishni taklif qiladilar [2].

I.S.Abdullayev tadqiqotlarida mintaqaviy iqtisodiy tizimni optimal tartibga solishning mexanizmlari ekonometrik usul orqali takomillashtirilgan va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning prognoz qiymatlari aniqlangan [3].

M.T.Alimova tadqiqotlarida bozorning zamonaviy turi sifatida hududiy turizm bozorining rivojlanish holati Samarqand viloyati misolida prognoz qilingan [4].

B.Sh.Safarov tomonidan xizmatlar bozorining shakli sifatida milliy turistik xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishga oid ko'rsatkichlar prognoz qilingan [5].

Shularga muvofiq, makro yoki mezo hudud doirasida joylashtirish vositalari faoliyatining samaradorligini modellashtirish faoliyatning rivojlanishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir etuvchi eng muhim omillarni boshqarishga asoslanadi. Ushbu omillarni ajratib olish va ularning natijaviy omillari, ya'ni joylashtirish vositalari davromadliligiga ta'sirga asoslangan omilli modellar korrelyatsion-regression tahlil asosida amalga oshiriladi hamda natijaviy ko'rsatkichga tayanib tuzilgan ko'p omilli ekonometrik modellar orqali hisoblangan prognozlari yordamida faoliyatni samarali tashkil etishning senariylari ishlab chiqiladi.

Joylashtirish vositalari faoliyati samaradorligini aks ettiruvchi natijaviy ko'rsatkichning statistik tahlili negizida unga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar o'rtasidagi bog'liqliklar shakllarini, bu bog'liqlikda faoliyat samaradorligiga ta'sir etuvchi muhim omillar hamda ularning boshqa omillardan farq qiluvchi xususiyatlari aniqlandi.

Amaliy vaziyatlar uchun ishlab chiqarishning chiziqli funksiyalaridan foydalanish amalda qo'llaniladigan va oson tuzilishli matematik modellarni qo'llash imkonini beradi.

Aniq vaziyatlar uchun iqtisodiy o'sish funksiyasining chiziqsiz ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$N = a_0 \cdot F_1^{a_1} \cdot F_2^{a_2} \cdot F_3^{a_3} \cdot \dots \cdot F_n^{a_n}$$



Bu funksiya yordamida har bir omilning natijaviy omilga ta'sirini aniqlashimiz mumkin. Natijaviy omilning o'zgarish tezligi ikki xil, o'sishning mutlaq tezligi va o'sishning nisbiy tezligi ko'rinishida bo'ladi.

Natijaviy ko'rsatkichning har bir omili uchun ko'rsatkichning mutlaq o'sish tezligi o'sishning chiziqsiz ko'rinishidan biron bir omil bo'yicha xususiy hosila olish bilan aniqlanadi. Masalan, birinchi omil uchun:

$$\frac{\partial N}{\partial F_1} = a_0 \cdot a_1 \cdot F_1^{a_1-1} \cdot F_2^{a_2} \cdot F_3^{a_3} \cdot \dots \cdot F_n^{a_n}$$

Ma'lumki, natijaviy omilning o'zgarishi uning barcha omillariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Omil bo'yicha olingan xususiy hosilalar nisbati mazkur omillarning o'rin almashuvida o'ziga xos meyoriy ko'rsatkich bo'ladi.

Iqtisodiy o'sish modellaridagi natijaviy omil o'zgarishining mutloq tezligidan tashqari nisbiy tezligi ham katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Iqtisodiy o'sish modellaridagi natijaviy omil o'zgarishining nisbiy tezligi o'sishning biron bir omil sarfi 1 foizga o'zgarganda ishlab chiqarilgan mahsulot (xizmat) hajmining qancha foizga o'zgarishini ko'rsatuvchi miqdordir.

Tadqiqot jarayonida joylashtirish vositalaridan olingan daromad hajmi o'zgarishini endogen omil sifatida olgan holda uning asosiy omil (resurs)lar ta'sirida o'zgarishi bo'yicha ko'p omilli tahlil amalga oshirildi. Joylashtirish vositalaridan olingan daromad hajmini funksiyaning yuqori cho'qqisi, ya'ni natijaviy omil sifatida belgilab olindi. Unga ta'sir etuvchi omillar turizm qo'mitasining yetakchi ekspertlari ishtirokida o'tkazilgan ekspert tahlili asosida belgilandi. Unga ko'ra tanlangan quyidagi ko'rsatkichlar asosiy omil sifatida tanlandi (1-jadval):

$X_1$  – joylashtirish vositalari soni;

$X_2$  – joylashtirish vositalaridagi jami nomerlar soni;

$X_3$  – joylashtirish vositalaridagi jami o'rin-koykalar soni;

$X_4$  – joylashtirish vositalariga joylashtirilgan kishilar soni;

$X_5$  – joylashtirish vositalarida ishlovchi xodimlarning o'rtacha ish haqi miqdori.

Tanlab olingan ta'sir etuvchi omillar sifatida esa ushbu ko'rsatkichlarning shakllanishida yuqori ta'sirga ega bo'lgan omillar tanlab olinib, ularning natijaviy omil bilan bog'lanish darajasi bir qancha test va mezonlar (korrelyatsiya koeffitsiyenti, Grenjer sabab testi, kengaytirilgan Dikki-Fuller testi va Fillips-Perron testi) asosida tekshirib ko'rildi.

Quyidagi jadvalda keltirilgan natijaviy va ta'sir etuvchi omillarning 2010-2023-yillar vaqt oralig'idagi ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

huzuridagi statistika agentligi ochiq ma'lumotlari tizimidan ajratib olindi hamda har bir natijaviy va unga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlari alohida jadvallarga tushirildi. Ajratib olingan statistik ma'lumotlar asosidagi ko'p omilli modelga kiritilgan omil ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqlik testlari, shu bilan birga tuzilgan modellarning sifati hamda prognoz ko'rsatkichlari jadvaldagi ketma-ketlikda aniqlandi.

## 1-jadval

**Joylashtirish vositalaridan olingan daromad hajmi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlari [6]**

Yillar	Joylashtirish vositalaridan olingan daromad hajmi, mln. so' m (Y)	Joylashtirish vositalari soni, birlik (X <sub>1</sub> )	Joylashtirish vositalaridagi jami xonalar soni, birlik (X <sub>2</sub> )	Joylashtirish vositalaridagi jami o' rin-koykalar soni, birlik (X <sub>3</sub> )	Joylashtirish vositalariga joylashtirilgan mijozlar soni, ming kishi (X <sub>4</sub> )	Joylashtirish vositalarida ishlovchi xodimlarning o' rtacha ish haqi miqdori, ming so' m (X <sub>5</sub> )
2010	104148,0	464	12992	24685	946,8	1243,6
2011	140262,5	473	13244	25164	1122,1	1665,2
2012	160596,0	481	13468	25589	1189,6	1993,4
2013	170296,0	503	14084	26760	1216,4	2380,6
2014	193328,8	513	14364	27292	1271,9	2727,9
2015	225284,0	546	15288	29047	1325,2	3127,8
2016	264792,5	609	16445	31950	1513,1	3591,6
2017	315412,8	767	18588	37065	1714,2	4075,7
2018	446439,0	1096	24646	50434	2125,9	4735,4
2019	515449,0	2163	33388	71979	2193,4	5798,7
2020	147588,0	2789	37455	83115	702,8	6547,9
2021	279910,0	4015	47619	103296	1217,0	8184,2
2022	551323,5	5029	55277	124191	2250,3	9728,5

Endogen omil va unga ta'sir etuvchi ekzogen omil ko'rsatkichlarining mohiyati ko'riladigan bo'lsa, ta'sir etuvchi omillar sifatida joylashtirish vositalari va ulardagi nomerlar hamda sig'im ko'rsatkichlari, shu bilan birga ko'rilayotgan vaqt oralig'idagi xizmatlardan foydalangan mijozlar soni olingan. Ta'sir etuvchi omillar tarkibida joylashtirish vositalaridagi xizmatlar sifatini ta'minlashda bilvosita ta'sirga ega bo'lgan xodimlarning o'rtacha ish haqi darajasi ham tanlab olingan. Tanlangan ekzogen omillar mazmuni tahlil qilinadigan bo'lsa, ular muhim ta'sirga ega bo'lgan omillarni ifodalovchi omil ko'rsatkichlari asosida ishlab chiqarish modeliga yaqin ko'rinishdagi bog'lanishga ega bo'ladi. Ajratib

olingan asosiy endogen va ekzogen omillarning bog‘lanishi asosida joylashtirish vositalaridan olingan daromad hajmining o‘zgarish trendlarini aniqlash maqsadida yuqoridagi vaqtli qator ko‘rinishidagi ma’lumotlar EViews10 dasturidan foydalangan holda tahlil qilindi.

Yuqoridagi jadvalda ajratib olingan natijaviy va ta’sir etuvchi omil ko‘rsatkichlari o‘lchov birligining bir xil emasligi, ya’ni omil ko‘rsatkichlarining bir jinsli emasligi sababli asosiy trend modelini chiziqli logarifmik bog‘lanish ko‘rinishida aniqlab olamiz. Buning uchun, avvalo, omil ko‘rsatkichlarining barchasini natural logarifmik ko‘rsatkichlarga keltirib olamiz (2-jadval).

2-jadval

**Joylashtirish vositalaridan olingan daromad hajmi va uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omil ko‘rsatkichlarining logarifmik qiymati<sup>9</sup>**

t	<i>LnY</i>	<i>LnX<sub>1</sub></i>	<i>LnX<sub>2</sub></i>	<i>LnX<sub>3</sub></i>	<i>LnX<sub>4</sub></i>	<i>LnX<sub>5</sub></i>
2010	11,55	6,14	9,47	10,11	6,85	7,13
2011	11,85	6,16	9,49	10,13	7,02	7,42
2012	11,99	6,18	9,51	10,15	7,08	7,60
2013	12,05	6,22	9,55	10,19	7,10	7,78
2014	12,17	6,24	9,57	10,21	7,15	7,91
2015	12,33	6,30	9,63	10,28	7,19	8,05
2016	12,49	6,41	9,71	10,37	7,32	8,19
2017	12,66	6,64	9,83	10,52	7,45	8,31
2018	13,01	7,00	10,11	10,83	7,66	8,46
2019	13,15	7,68	10,42	11,18	7,69	8,67
2020	11,90	7,93	10,53	11,33	6,56	8,79
2021	12,54	8,30	10,77	11,55	7,10	9,01
2022	13,22	8,52	10,92	11,73	7,72	9,18

EViews10 dasturiy paketidan foydalangan holda amalga oshirilgan regression tahlil jarayonida aniqlangan parametrlar hamda modelning ahamiyati dastur tomonidan hisoblangan asosiy baholash ko‘rsatkichlari orqali baholangan. Regression tahlil natijalaridan ko‘rilayotgan holatni aniqlash uchun regression modelning koeffitsiyentlarini ajratib olgan holda trendning chiziqli logarifmik modeli shakllantirib olinadi.

Aniqlangan ma’lumotlardan foydalangan holda joylashtirish vositalaridan olingan daromad hajmi va unga ta’sir etuvchi omillar ta’sirida o‘zgarishining ko‘p omilli ekonometrik modeli tuzildi. Unga ko‘ra ushbu jarayonni ifodalovchi regressiya tenglamasi tuzildi.

$$LnY = -14,165 \cdot LnX_1 - 165,171 \cdot LnX_2 + 164,715 \cdot LnX_3 + 110,349 \cdot LnX_4 + 40,305 \cdot LnX_5 + 97,82 \quad (1)$$

<sup>9</sup> Muallif hisob-kitoblari asosida ishlab chiqilgan.

Aniqlangan chiziqli logarifmik model potentsirlansa, mahalliyashtirilgan sanoat ishlab chiqarishi hajmini ifodalovchi chiziqsiz ko‘rinishdagi ekonometrik model kelib chiqadi:

$$Y = \frac{X_3^{164,715} \cdot X_4^{110,349} \cdot X_5^{40,305} \cdot e^{97,82}}{X_1^{14,165} \cdot X_2^{165,171}} \quad (2)$$

### 3-jadval


#### Joylashtirish vositalaridan olingan daromad hajmi va unga ta‘sir etuvchi omil ko‘rsatkichlarining trend modellari hamda 2024-2028-yillar uchun prognoz ko‘rsatkichlari<sup>10</sup>

Ko‘rsatkichlar va ularning omilli modellari	Prognoz ko‘rsatkichlari				
	2024	2025	2026	2027	2028
Joylashtirish vositalaridan olingan daromad hajmi, mln. so‘m $Y = \frac{X_3^{164,715} \cdot X_4^{110,349} \cdot X_5^{40,305} \cdot e^{97,82}}{X_1^{14,165} \cdot X_2^{165,171}}$	592329,6	627019,3	692703,4	748627,9	811086,5
Jami joylashtirish vositalari soni, birlik $x_1 = 381,952 \cdot t - 1080,78$	4649	5030	5412	5794	6176
Joylashtirish vositalaridagi jami nomerlar soni, birlik $x_2 = 3769,402 \cdot t - 1103,09$	55438	59207	62977	66746	70516
Joylashtirish vositalaridagi jami o‘rinskoykalar soni, birlik $x_3 = 8853,148 \cdot t - 8922,9$	123874	132727	141581	150434	159287
Joylashtirish vositalariga joylashtirilgan mijozlar soni, ming kishi $x_4 = 80,835 \cdot t + 916,09$	2128,6	2209,5	2290,3	2371,1	2452,0
Joylashtirish vositalarida ishlovchi xodimlarning o‘rtacha ish haqi miqdori, ming so‘m $x_5 = 708,612 \cdot t - 535,707$	10093,5	10802,1	11510,7	12219,3	12927,9

Dasturiy paketdan foydalangan holda aniqlangan trend modellari asosida 2024-2028-yillarda joylashtirish vositalaridan olingan daromad hajmi o‘zgarishining istiqboldagi ko‘rsatkichlari hamda ularni hisoblash uchun eng qulay modellar ro‘yxati keltirildi (3-jadval).

Ko‘p omilli ekonometrik modeldan foydalangan holda joylashtirish vositalaridan olingan daromad hajmining o‘rta muddatda, ya‘ni 2010-2028-yillarda o‘zgarishi qiymatlari grafik ko‘rinishda ifodalandi (1-rasm).

<sup>10</sup> Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



**1-rasm. Joylashtirish vositalaridan olingan daromad hajmi ko'rsatkichining 2010-2028-yillarda o'zgarishi<sup>11</sup>, mln. so'm (2024-2028-yil prognoz ko'rsatkichlari)**

Ko'p omilli bog'lanish asosida aniqlangan trend modellari kelgusi davrda soha faoliyati asosiy ko'rsatkichlarining tanlangan omillar ta'sirida ma'lum o'rinlardagi xatoliklarni hisobga olgan holda o'zgarishini oldindan prognozlash imkonini beradi. Tadqiqot jarayonida joylashtirish vositalaridan olingan daromad hajmining o'zgarishi 5 ta asosiy omil ta'sirida kelgusi davr uchun prognoz qiymatlarni aniqlashda qo'l keladi.

Ekonometrik modellashtirishning verifikatsiya bosqichida aniq omillar ta'sirida ishlab chiqilgan model va uning parametrlari ahamiyati to'rtta yo'nalish bo'yicha tekshirildi:

- modelning sifati ko'plikdagi korrelyatsiya koeffitsiyenti va determinatsiya koeffitsiyenti yordamida baholandi;
- modelning ahamiyati approksimatsiya xatoligi va Fisher mezoni yordamida baholandi;
- modelning parametrlari ishonchliligi Styudent mezoni bo'yicha baholandi;
- Darbin-Uotson mezoni yordamida "eng kichik kvadratlar usulining" bajarilish shartlari tekshiriladi, ya'ni tuzilgan trend modelida avtokorrelyatsiya yoki multikolleniarlik darajasi mavjudligi baholandi.

EViews10 dasturiy paketidan foydalangan holda amalga oshirilgan regression tahlil jarayonida aniqlangan parametrlar hamda modelning ahamiyati

<sup>11</sup> Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

dasturda ishlab chiqilgan asosiy baholash ko‘rsatkichlari orqali hisoblab chiqilgan (4-jadval).

Dasturiy paket asosida amalga oshirilgan tahlil natijaviy omilning ta’sir etuvchi omillar bilan birgalikdagi korrelyatsiyasi  $r=0,9989$  ra, determinatsiya koeffitsiyenti  $R^2=0,9965$  ga teng ekanligini ko‘rsatmoqda. Bu esa ta’sir etuvchi omillar bilan natijaviy omilning yuqori zichlikda korrelyatsiyaga ega ekanligini va hisoblangan ko‘rsatkichlar bilan real ko‘rsatkichlar orasidagi farq sifatidagi qoldiqlarning ham zich bog‘langanligini ko‘rsatadi.

#### 4-jadval

### Joylashtirish vositalaridan olingan daromad hajmi bo‘yicha tanlangan omillarning bog‘lanish xususiyatlari va tuzilgan omilli model sifatining asosiy ko‘rsatkichlari<sup>12</sup>

Dependent Variable: <b>Joylashtirish vositalaridan olingan daromad hajmi, LnY</b>				
Method: Least Squares				
Date: 10/13/24 Time: 14:23				
Sample: 2010 2023				
Included observations: 14				
Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
<b>Mahalliy lashtirish uchun jalb etilgan investitsiyalar hajmi, LnX<sub>1</sub></b>	-14,16510	29.33128	-0.482935	0.6421
<b>Jami joylashtirish vositalari soni, LnX<sub>2</sub></b>	-165,1705	135.0756	-1.222800	0.2562
<b>Joylashtirish vositalaridagi jami nomerlar soni, LnX<sub>3</sub></b>	164,7153	110.4897	1.490775	0.1744
<b>Joylashtirish vositalaridagi jami o‘rin-koykalar soni, LnX<sub>4</sub></b>	110,3491	5.775964	19.10487	0.0000
<b>Joylashtirish vositalarida ishlovchi xodimlarning o‘rtacha ish haqi miqdori, LnX<sub>5</sub></b>	40,30527	6.740278	5.979763	0.0003
<b>Tasodifiy omillarning umumiy ta’siri, ε</b>	97,82020	279.9711	0.349394	0.7358
R-squared	0.996585	Mean dependent var		1245.286
Adjusted R-squared	0.994451	S.D. dependent var		57.82923
S.E. of regression	4.307699	Akaike info criterion		6.056212
Sum squared resid	148.4502	Schwarz criterion		6.330094
Log likelihood	36.39348	Hannan-Quinn criter.		6.030859
F-statistic	466.9733	Durbin-Watson stat		2.099733
Prob(F-statistic)	0.000000			

Jadvalda ko‘rsatilgan ko‘rsatkichlar qiymatidan foydalangan holda tuzilgan ekonometrik modelning ahamiyati va parametrlari sifati baholanadi. Aniqlangan modeldagi endogen omil uchun Fisher mezoni qiymati 466,97 ga teng bo‘lib, uning ahamiyati 0,000000 ga teng. Bundan ko‘rinib turibdiki, tuzilgan trend modelni ahamiyati jihatidan amaliyotda qo‘llash mumkin. Model sifati dasturiy paket vositasida Akiake axborot mezoni (6,06), Shvars mezoni (6,33) va Xannan-


<sup>12</sup> Muallif tomonidan EViews10 dasturida hisoblash asosida ishlab chiqilgan.

Kuin mezonni (6,03) orqali baholangan. Ushbu mezonlar qiymati ham trend modelini amaliyotda qo‘llash mumkinligini ko‘rsatadi.

Tuzilgan ekonometrik modelda avtokorrelyatsiya yoki multikolleniarlik mavjudligini aniqlash imkonini beruvchi Darbin-Uotson (*DW*) mezonni 2,1 ga teng bo‘lib, optimal chegara 2,0 atrofida ekanligi hisobga olinsa, modelda avtokorrelyatsiya darajasi mavjud emasligini ko‘rish mumkin.

EViews10 dasturiy paketidan foydalangan holda sanoat ishlab chiqarishini mahalliyashtirishda asosiy tayanch ko‘rsatkich hisoblangan mahalliyashtirilgan sanoat ishlab chiqarishi hajmining  $\pm 2$  statistik xatolik chegaralarida o‘zgarishi trendini shakllantiramiz hamda ushbu trendning ahamiyatini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni baholaymiz (2-rasm).

2-rasmda keltirilgan ko‘rsatkichlar tuzilgan modelning ahamiyati hamda adekvatligini aks ettiradi. Jumladan, Teil notenglik koeffitsiyenti 0,0013 ga, Teil U2 koeffitsiyenti 0,0732 ga, Bias nisbati 0 ga, variatsiya nisbati 0,0008 ga, kovariatsiya nisbati 0,9991 ga hamda simmetrik MAPE 0,191 ga teng ekanligi tuzilgan modelning zaruriy oraliqlarda joylashganligini ko‘rsatadi. Xususan, simmetrik MAPE uchun chegara 10 gacha ekanligi hisobga olinsa, taxminiylik xatoligi darajasi belgilangan chegaradan kichikligini ko‘rish mumkin, ya’ni MAPE:  $0,191 < 10$ .




**2-rasm. Joylashtirish vositalaridan olingan daromad hajmining 2010-2023-yillardagi o‘zgarishida  $\pm 2$  statistik xatolik chegaralarida o‘zgarishi<sup>13</sup>**

Yuqoridagilar bilan birga joylashtirish vositalari samaradorligini ta’minlashda eng muhim deb topilgan joylashtirish vositalaridan olingan daromad hajmining omillar ta’sirida o‘zgarish modelini baholashda qoldiq, haqiqiy va

<sup>13</sup> Eviews 10 dasturi asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

tuzilgan model qiymatlari grafigidan foydalanish ham maqsadga muvofiq (3-rasm).



**3-rasm. Joylashtirish vositalaridan olingan daromad hajmining qoldiq, haqiqiy va tuzilgan model qiymatlari grafigi<sup>14</sup>**

3-rasmda berilgan grafikda qoldiq model asosida hisoblangan va haqiqiy qiymatlarning qoldiq ko'rsatkichlari o'rtasidagi tebranish darajasi yuqori bo'lsa-da, haqiqiy ko'rsatkichlar va tuzilgan model asosida hisoblangan ko'rsatkichlar grafigi o'rtasidagi farq darajasi sezilarsiz ekanligini ko'rish mumkin.

Yuqoridagi tahliliy ma'lumotlar hamda ko'rsatkichlar qiymatlarini baholash asosida joylashtirish vositalari samaradorligini ta'minlashda eng muhim deb topilgan joylashtirish vositalaridan olingan daromad hajmi va unga omillar ta'sirini hisobga olgan chiziqsiz trend modelini joylashtirish vositalari samaradorligini oshirish yo'nalishidagi strategiyalar senariylarini ishlab chiqish jarayonida qo'llash mumkin.

Eviews 10 dasturi asosida ishlab chiqilgan model va prognoz ko'rsatkichlar turizm infratuzilmasining asosiy tuzilmalaridan biri hisoblangan mijozlarni joylashtirish yo'nalishida faoliyat olib boruvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini kelgusi qisqa va o'rta muddatlar oralig'ida rivojlantirish rejalarini va strategiyalarini ishlab chiqish yo'nalishida muqobil senariylarni shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladi. Sohada tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlar ushbu ishlab chiqilgan modelda foydalanilgan natijaviy omil va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlaridan ushbu yo'nalishdagi o'z reja va dasturlarini shakllantirishda foydalansa, prognozlashning belgilangan mezonlar asosida tekshirish natijalarning yuqori samara berishiga olib kelishi mumkinligi isbotlandi.

Joylashtirish vositalarining samaradorligini ko'p omilli modellar asosida baholash va muqobil senariylar asosida maqsadli ko'rsatkichlari tahlili natijalari asosida quyidagi xulosalar umumlashtirildi:

<sup>14</sup> Eviews 10 dasturi asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



1. Joylashtirish vositalaridan olingan daromad hajmining o'zgarish qonuniyati (trend modeli)ni ko'p omilli ekonometrik tahlil asosida chiziqli bo'lmagan model ko'rinishida aniqlash mumkin.

2. Ekspertlar xulosalari bo'yicha bugungi kunda joylashtirish vositalari faoliyati samaradorligi darajasining o'zgarishiga asosiy ta'sir etuvchi omillar sifatida 5 ta muhim egzogen omillar: joylashtirish vositalari soni, joylashtirish vositalaridagi jami nomerlar soni, joylashtirish vositalaridagi jami o'rin-koykalar soni, joylashtirish vositalariga joylashtirilgan mijozlar soni va joylashtirish vositalarida ishlovchi xodimlarning o'rtacha ish haqi miqdori belgilandi. Ushbu omil ko'rsatkichlarining ma'lum miqdorda o'zgarishi (ortishi yoki kamayishi) endogen o'zgaruvchining sezilarli darajada o'zgarishiga olib keladi.

3. Natijaviy omil (joylashtirish vositalaridan olingan daromad hajmi)ga ta'sir etuvchi omillar ta'sirini o'zida ifodalovchi trend modelidagi omil ko'rsatkichlar bir jinsli bo'lmaganligi sababli model shakli chiziqli bo'lmagan model ko'rinishida tanlab olindi.



Keltirib o‘tilgan xulosalar hamda (2) – bog‘lanishdan kelib chiqib, mamlakatimizda joylashtirish vositalaridan olingan daromad hajmini oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlarda faoliyatni tashkil etish maqsadga muvofiq:

- yil nomi bilan bog‘liq hamda tarmoq va hududiy dasturlarni ishlab chiqish jarayonida turizm infratuzilmasining joylashtirish vositalarini rivojlantirish yo‘nalishida tashkil etilayotgan korxonalarining soniga emas, balki ulardagi nomerlarning sig‘imi oshirilishiga ko‘proq e‘tibor berish joylashtirish vositalari samaradorligi ortishiga olib keladi;

- tarmoq dasturlarida ichki turizm yo‘nalishidagi va kirish turizmi bilan bog‘liq tadbirlarning va ular ko‘lamining ortishi joylashtirish vositalariga joylashtirilgan mijozlar sonining ortishiga to‘g‘ri bog‘lanishi bilan hajm ko‘rsatkichlarini barqaror oshirish imkoniyatini kengaytiradi.

Yuqoridagi tahlillar natijalaridan hamda ular asosida taklif etilayotgan amaliyotda joylashtirish vositalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalardan foydalanish kelgusida faoliyat ko‘rsatayotgan joylashtirish vositalarining iqtisodiy jihatdan samarali faoliyat ko‘rsatish imkonini yaxshilaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Dimitrios Asteriou and Stephen G. Hall. Applied econometrics. A modern approach using Eviews and Microfit. Revised edition. Palgrave Macmillan, New York, 2007. – p.140-397.

2. Эконометрика: Учебник. / Под ред. И.И.Елисеевой. – М.: Финансы и статистика, 2003. – 51-53 с.

3. Abdullayev I.S. Mintaqaviy iqtisodiy tizimni optimal tartibga solishning mexanizmlarini takomillashtirish. // 08.00.06 – Ekonometrika va statistika (iqtisodiyot fanlari) ixtisosligi bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2017. – 5-30 b.

4. Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida). // 08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti (iqtisodiyot fanlari) ixtisosligi bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2017. – 23-27 b.

5. Safarov B.Sh. Milliy turistik xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish. // 08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti (iqtisodiyot fanlari) ixtisosligi bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2016. – 23-24 b.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM

# INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT

10 (19)  
2024-yil, oktabr.

Bosh muharrir:	M.Eshmurodov
Bosh muharrir o‘rinbosari:	S.Samandarova
Mas’ul kotib:	U.Bekimmetov
Texnik muharrir:	M.Kuranbayev
Navbatchi:	M.Kuranbayev

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 10-fevral kuni

№062869 raqamli guvohnoma berilgan.

Bosishga topshirish vaqti: 10:00. Topshirildi 10:00

Qog‘oz bichimi: A4. Adadi: 200 nusxa.

Hajmi: 7,75 b.t. Buyurtma №32/24.

Nashr ko‘rsatkichi: 1404.

Bahosi kelishilgan narxda.

“Milleniumus print” MCHJda ofset usulida chop etildi.

Urganch tumani, “Shermatlar” MFY, Tadbirkorlar ko‘chasi, 69-uy.

Tel: (+998) 91-994-24-00

---

Urganch innovatsion universiteti  
220100, Urganch shahri, “Mustaqillik” MFY,  
Gurlan ko‘chasi, 2-uy.  
Tel: (+998) 90-436-20-22